

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TALIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti
Botanika kafedrası

5140400-biologiya ta'lim yo`nalishi 4^b-kurs talabasi Reimboeva Irodaning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: MANZARALI O`SIMLIKLAR VA ULARNING
BIOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARINI O`RGANISH

Ilmiy raxbar:

b.f.n. R.A. Eshmuratov

Kafedra mudiri:

b.f.n. M.T. Baltabaev

Kafedra ma'jilisinin' 2014 - yil _ may

№10 protokoli bilan himoyaga yuborildi

Nukus – 2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
I. BOB. MANZARALI BOG'DORCHILIK VA GULCHILIK TARIXI, TARQALISHI VA ISTIQBOLLARI	5
1.1. Manzarali bog`dorchilik va gulchilikning tarixi	6
1.2. O'zbekistonda manzarali bog'dorchilik va gulchilikning axvoli va rivojlanishi	9
II. BOB. MANZARALI O`SIMLIKLARI BIOMORFOLOGIK O`ZGACHALIKLARI	11
2.1. Manzarali va gulli o'simliklarning guruhlanishi va ularga tashqi muhit omillarining ta'siri	13
2.2. Manzarali va gulli o'simliklarni urug'idan va vegetativ ko'paytirish yo'llari	25
2.3. Manzarali va gulli o'simliklarni ochiq va yopiq erlarda o'stirish agrotexnikasi	35
III. BOB. MANZARALI VA GULLI O'SIMLIKLAR BILAN ATROF, XONA, KIRISH JOYLARI VA YO'LAKLARNI BEZASH	52
HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI	65
XULOSALAR	75
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	78

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Go`zallik va ozodalik insonga xos eng oddiy fazilatlardan bo`lib inson doimo unga intilib yashaydi. Inson qadim-qadimdan o`z yashash joylarini go`zal va obod qilish uchun harakat qilib kelgan. Chunki, shinam va ko`rkam muhit kishiga o`zgacha zavq bag`ishlaydi.

Hozirgi zamonda meditsina ham shinam va ko`rkam joylar kishining mehnat layoqatini oshirishni isbotladi. Demak, shinamlik va go`zal manzaralar kishiga faqatgina zavq berib qolmasdan, balki uning mehnat layoqatiga, sog`ligiga ham ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo`lga kiritgach bunday go`zal muhitni yuzaga keltirishga alohida e`tibor qaratdi. Ayniqsa, 2003 yili “obod mahalla yili” deb e`lon qilinishini bu boradagi olg`a qadam deb hisoblash mumkin. Bugungi kunda respublikamizning barcha tuman va qishloqlarida, mahalla va muassasalarida manzarali gulzorlar barpo qilish, atrof-muhit ko`kalamzorlashtirishlari qizg`in tus olgan. Chiroyli ko`kalamzorlashtirilgan xiyobonlar, did bilan qurilgan katta ko`chalar shahar xusniga xusn qo`shib, aholini sof havo bilan ta`minlaydi. Yashil daraxtlar, butazorlar, gulzorlar havoni chang va tutun hididan tozalaydi va normal mikroiklim yaratadi.

Inson paydo bo`libdiki u tabiat ne`matlaridan, uning go`zalligidan baxramand bo`lib kelmoqda. Demak inson va tabiat bir-biri bilan chambarchas bog`liq. Ibtidoiy odamlar o`z go`shasi atrofida o`suvchi egulik va kasalliklarga da`vo bo`luvchi o`simliklarni qidirib topishga harakat qilishgan. Tabiatning yam-yashil libosga o`ralishi uning qo`ynida ochilib turgan rang-barang gullar, barg shoxlari, ularning tana tuzilishlaridagi o`zgarishlar bilan hamohang. Gulzorlar rang-barangligi hamda xushbo`y hidlari bilan insonni o`ziga rom qilib, sehrlab o`ziga tortadi. Gullarga bo`lgan intilish, qiziqish insonga xos bo`lib, avlodlardan o`tib kelayotgan tabiatga bo`lgan tug`ma muhabbat belgisidir. Go`zal manzaralar, gulzorlar inson kayfiyatini ko`taradi, ruhan tetik qiladi va estetik did bag`ishlaydi.

Qolaversa bu go`zalliklardan zavqlana bilish uni chuqurroq tuyish va unga to`g`ri munosabatni shakllantirish insonning madaniyati hamda estetik mezoni belgisidir.

Arxeologik qazilmalardan ham shu narsa ma`lumki, qadimgi dunyo xalqlari o`simliklardan oziq-ovqat, dorivor va manzarali o`simliklar sifatida foydalanishgan. Eron, Hindiston, Yaponiya, Markaziy va Janubiy Amerika xalqlari qadim vaqtlardan beri yirik va ochiq gulli yovvoyi o`simliklardan, shuningdek dorivor xususiyatga ega bo`lgan o`simliklardan o`z ehtiyojlariga yarasha foydalanishgan. Bu o`simliklar bilan ular o`zlari yashagan joylarni bezashgan va ular tibbiyot sohasida ishlatishgan.

Gullar kishilarga estetik zavq berishdan tashqari, ular shahar va qishloqlarni tutun, ishlangan gaz va hakazolardan saqlashdek juda katta sanitar ahamiyatga molikdir. Ko`pgina o`simliklar fitontsidlik (o`simlikdan chiqadigan, bakteriyalarni yo`qotadigan uchuvchan moddalar) xususiyatga ega. Bog` va xiyobonlar shahar havosini tozalovchi o`ziga xos arteriya hisoblanadi. Daraxt va butalar harorat tebranish qo`lamini ma`lum darajada me`yorlaydi, issiq kunlarda havo namligini ko`paytiradi, meliorativ va suv saqlash xususiyatiga ega bo`ladi. Yashil o`simliklar turli xil ishlab chiqarish jarayonida yuz beradigan ayrim holatlarga va ko`cha shovqinlariga qarshi kurashda ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi.

To`g`ri tashkil etilgan gulchilik yuqori foydali tarmoq hisoblanadi. Shuning uchun gulchilik ham qishloq xo`jaligining boshqa tarmoqlari singari ishlab-chiqarish unumdorligini oshirish asosida rivojlanishi zarur. Bu masalalarni muvaffaqiyatli echishda soha mutaxassislari va gulchilik bilan shug`ullanuvchilar o`z bilimlarini yanada boyitish bilan ko`proq tarqalgan manzarali o`simliklarni etishtirish, ularning navlarini ko`paytirish, agrotexnikasini mukammallashtirib borishlari lozim deb hisoblaymiz.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari.

Ishning maqsadi: Manzarali va gulli o'simliklarning guruhlanishi, ko'paytirish usullari, o'stirish agrotexnikasi va ularni fitodizaynda qo'llash usullarini o'rganish va olingan ma'lumotlarni o'quv-tarbiyaviy jarayonidagi ahamiyatini tadqiq etishdan iborat.

Ishning vazifalari:

- Istiqbolli manzarali o'simliklarni aniqlash;
- Manzarali va gulli o'simliklarning guruxlanishi va ularga tashqi muhit omillarining ta'siri o'rganish;
- Manzarali va gulli o'simliklarning urug'idan va vegetativ ko'paytirish yo'llarini o'rganish;
- Manzarali va gulli o'simliklarni ochiq va yopiq erlarda o'stirish agrotexnikasini o'rganish;
- olingan ma'lumotlarni o'quv-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilish.

Ishni bajarishda foydalaniladigan uslublar.

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishini bajarishda botanika va o'simliklar eksperimental biologiyasada umumqabul qilingan uslublardan foydalandik.

Ishni bajarish jarayonida asosan manzarali o'simliklar va ularning estetik jihatlari, etishtirish uslublariga bag'ishlangan adabiyotlardan keng foydalanildi.

Ishning ahamiyati.

Manzarali o'simliklar kishilarga estetik zavq berishdan tashqari, ular shahar va qishloqlarni tutun, ishlangan gaz va hazazolardan saqlashdek juda katta sanitar ahamiyatga moyillikdir. Ko'pgina o'simliklar fitontsidlik (o'simlikdan chiqadigan, bakteriyalarni yo'qotadigan uchuvchati moddalar) xususiyatga ega. Bog' va xiyobonlar shahar havosini tozalovchi o'ziga xos arteriya hisoblanadi. Daraxt va butalar harorat tebranish ko'lamini ma'lum darajada me'yorlaydi, issiq kunlarda havo namligini ko'paytiradi, meliorativ va suv saqlash xususiyatiga ega bo'ladi.

Yashil o'simliklar turli xil ishlab chiqarish jarayonida yuz beradigan ayrim holatlarga va ko'cha shovqinlariga qarshi kurashda ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi.

To'g'ri tashkil etilgan gulchilik yuqori foydali tarmoq hisoblanadi. Shuning uchun gulchilik ham qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari singari ishlab-chiqarish unumdorligini oshirish asosida rivojlanishi zarur.

Bu masalalarni muvaffaqiyatli echishda soha mutaxassislari va gulchilik bilan shug'ullanuvchilar o'z bilimlarini yanada boyitish bilan ko'proq tarqalgan

manzarali o`simliklarni etishtirish, ularning navlarini ko`paytirish, agrotexnikasini mukammallashtirish va kelajak avlodga estetik tarbiya berish ishlarini olib borishlari haqida ham ma'lumotlar keltiriladi.

Íshning sinovdan o`tishi.** Bitiruv malakaviy ishi bo`yicha tadqiqot natijalari 2011 yil 21 mayda Tyumen shahrida Межкультурные коммуникации и идеология миротворчества konferensiyasida, 2013 yil 26-27 aprel kunlari Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Tabiatshunoslik va geografiya fakultetida **«Ekologik muvozanatni saqlash, chiqindisiz texnologiya ishlab chiqish va barqaror rivojlanishda talim-tarbiya muammolari va istiqbollari» mavzusida Respublika miqyosida o`tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanida, 2013 yil 20 dekabrda Kamolot YIH QK, O`zRFA QQB, YOK hamkorligida tashkil etilgan Qoraqalpog`iston yosh olimlarining XIII respublika ilmiy konferensiyasida hamda NDPI Botanika kafedrasida diplom oldi himoyasida ma`ruza qilindi va muhokamadan o`tdi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Íshning hajmi 80 betdan iborat bo`lib, 2 ta jadval keltirilgan. Bitiruv malakaviy ishini yozishda 26 manbadan foydalanildi ulardan 4 ta tasi chet el adabiyoti va internet saytlari.

I. BOB. MANZARALI BOG'DORCHILIK VA GULCHILIK TARIXI, TARQALISHI VA ISTIQBOLLARI

Inson paydo bo'libdiki u tabiat ne'matlaridan, uning go'zalligidan baxramand bo'lib kelmoqda. Demak inson va tabiat bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ibtidoiy odamlar o'z go'shasi atrofida o'suvchi egulik va kasalliklarga da'vo bo'luvchi o'simliklarni qidirib topishga harakat qilishgan. Tabiatning yam-yashil libosga o'ralishi uning qo'ynida ochilib turgan rang-barang gullar, barg shoxlari, ularning tana tuzilishlaridagi o'zgarishlar bilan hamohang. Gulzorlar rang-barangligi hamda xushbo'y hidlari bilan insonni o'ziga rom qilib, sehrlab o'ziga tortadi. Gullarga bo'lgan intilish, qiziqish insonga xos bo'lib, avlodlardan o'tib kelayotgan tabiatga bo'lgan tug'ma muhabbat belgisidir. Go'zal manzaralar, gulzorlar inson kayfiyatini ko'taradi, ruhan tetik qiladi va estetik did bag'ishlaydi. Qolaversa bu go'zalliklardan zavqlana bilish uni chuqurroq tuyish va unga to'g'ri munosabatni shakllantirish insonning madaniyati hamda estetik mezonini belgisidir.

Arxeologik qazilmalardan hamda shu narsa ma'lumki, qadimgi dunyo xalqlari o'simliklardan oziq-ovqat, dorivor va manzarali o'simliklar sifatida foydalanishgan. Eron, Hindiston, Yaponiya, Markaziy va Janubiy Amerika xalqlari qadim vaqtlardan beri yirik va ochiq gulli yovvoyi o'simliklardan, shuningdek dorivor xususiyatga ega bo'lgan o'simliklardan o'z ehtiyojlariga yarasha foydalanishgan. Bu o'simliklar bilan ular o'zlari yashagan joylarni bezashgan va ular tibbiyot sohasida ishlatishgan.

Gullar kishilarga estetik zavq berishdan tashqari, ular shahar va qishloqlarni tutun, ishlangan gaz va hakazolardan saqlashdek juda katta sanitar ahamiyatga moyillikdir. Ko'pgina o'simliklar fitontsidlik (o'simlikdan chiqadigan, bakteriyalarni yo'qotadigan uchuvchan moddalar) xususiyatga ega. Bog' va xiyobonlar shahar havosini tozalovchi o'ziga xos arteriya hisoblanadi. Daraxt va butalar harorat tebranish qo'lamini ma'lum darajada qo'llashni me'yorlaydi, issiq kunlarda havo namligini ko'paytiradi, meliorativ va suv saqlash xususiyatiga ega bo'ladi. Yashil o'simliklar turli xil ishlab chiqarish jarayonida yuz beradigan ayrim

holatlarga va ko`cha shovqinlariga qarshi kurashda ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi.

To`g`ri tashkil etilgan gulchilik yuqori foydali tarmoq hisoblanadi. Shuning uchun gulchilik ham qishloq xo`jaligining boshqa tarmoqlari singari ishlab-chiqarish unumdorligini oshirish asosida rivojlanishi zarur. Bu masalalarni muvaffaqiyatli echishda soha mutaxassislari va gulchilik bilan shug`ullanuvchilar o`z bilimlarini yanada boyitish bilan ko`proq tarqalgan manzarali o`simliklarni etishtirish, ularning navlarini ko`paytirish, agrotexnikasini mukammallashtirishlari shart.

1.1. Manzarali bog`dorchilik va gulchilikning tarixi.

Olimlarimiz tomonidan olib borilgan tekshirishlar eramizdan ming yil oldin ham o`rik, shaftoli, olxo`ri va shunga o`xshash mevali va manzarali o`simliklar bo`lganligini ko`rsatadi.

Olimlarning fikriga ko`ra eng birinchi manzarali o`simliklar atirgul bilan lotos bo`lgan. Qadimiy obidalarining guvohlik berishiga, bu o`simliklardan jamiyatda 5,5–6 ming yil, gulsavsar va xrizantemadan esa 4 ming yil avval foydalanilgan. Krit orolida olimlar tomonidan 3500 yil ilgari atirgul tasviri topilgan. Umuman, bu gullarning tarqalishi 1000 yil avval boshlanib Mesopotamiya, Hindiston va Rimgacha etib kelgan. Qadimgi Yunonda atirgul go`zallik xudosi Afroditaga bag`ishlangan, uning ehromi atroflarini atirgullardan tashkil topgan go`zal bog`lar o`rab turgan.

Tel`-El`-Amarandan topilgan toshdagi yozuvlar shundan dalolat beradiki, bu erlarda yo`l chetlariga qator qilib manzarali daraxtlar ekilgan.

“Osilib turuvchi bog`lar” to`rt qavatli keng minoralarda joylashgan bo`lib, uning ayvonlarida pal`malar, kiparislar, mevali daraxtlar, manzarali noyob o`simliklar, gulli o`simliklar o`stirilgan. Mevali daraxtlar, gulli o`simliklar, hattoki noyob qushlari bo`lgan qadimgi Solomon bog`lari haqidagi ma`lumotlar bizgacha etib kelgan.

Qadimgi Misrning manzarali bog`dorchiligida suvdagi bog`lar alohida o`rin tutgan. Ehrom saroyi oldidagi to`rt burchakli hovuzlarda Misrning ajoyib oq va

havorang nilufarlari, lotoslari o`stirilagn. Italiyada manzarali bog`dorchilik bir muncha boshqacharoq rivojlangan. Rimda esa yassi tomlar va balkonlarni tuvakda o`suvchi gullar bilan bezash urf bo`lgan. (Adonis bayrami). Tomlarda baliqli osilib turgan hovuzlar tashkil qilingan.

Bizning davrgacha bo`lgan 500 yilda forslar birinchi bo`lib chiroyli hovuzlar, turli tuman g`aroyib gullar va manzarali daraxtlardan iborat bo`lgan istirohat bog`larini ko`paytirishgan. Ba`zan bu bog`larda yovvoyi hayvonlar ham bo`lgani uchun forslar uni “hayvonlar bog`i” deb atashgan. Sharqiy Turkistonda manzarali bog`dorchilik xo`jaligining paydo bo`lishi O`rta Sharq xalqlarida tuproqshunoslik, bog`dorchilik, sabzavotchilikni kelib chiqishi va rivojlanishi bilan uzviy bog`langan. Bu xalqlar Afg`oniston, Eron, Hindiston, Kichik Osiyo mamlakatlari bilan savdo va madaniy aloqalar o`rnatishgan. Sharqiy Turkiston shaharlaridan o`tuvchi buyuk ipak yo`li ana shundan dalolat beradi.

Ehrom devorlaridagi rasmlar, tarixning turli davriga doir bo`lgan eski yozuvlar bizga u yoki bu mamlakatining gullari, uzumzorlari va bog`lari haqida ma`lumot beradi. Masalan, X-XIV asrdagi tarixiy yodgorliklar uyg`ur davlatining gullab- yashnaganligini ko`rsatadi. Uyg`ur bog`larining hayoti va yashash sharoiti devorlardagi rasmlarda muhrlangan. Bu rasmlardan birida tasvirlangan knyaz` qo`lidagi gul tinchlik timsolidir. Uzoq sharq mamlakatlarida, Janubiy-Sharqiy Osiyoda, ayniqsa, Koreya, Yaponiya, V`etnamda o`zgacha bog`dorchilik san`ati XIII asrdan beri yashab kelmoqda. Bu mamlakatlarning xalqlari manzarali bog`dorchilik gullari bilan bezashning beqiyos usullarini ishlab chiqishlari bu singari o`simliklarning juda boy hillarini yig`ishgan.

Pakana (kichkina) o`simliklar xiliga subtropik nina bargli va oddiy bargli daraxtlar, butalar kiradi. Xrizantema esa Yaponiya va Xitoyda asosiy gulli o`simliklar hisoblangan. XIII asr o`rtalarida O`rta evropa shaharlarida har xil g`aroyib o`simliklar uchun maxsus xonalar tashkil qilina boshladi. Reynda birinchi marta qishki bog` yaratishga urinib ko`rildi. O`sha davrda g`aroyib o`simliklardan xonalarni ko`kalamzorlashtirishda foydalanish manzarali bog`dorchilikni rivojlanishi uchun yangi bir turtki bo`ldi.

Botanika bog`lari 1400 yilda Florentsiyada, 1530 yilda Mantuda, Rimda va boshqa shaharlarda tashkil qilindi. Bu bog`lar mashhur arxitektorlar G.Gollvittsev va V.Virsingning yozishicha, Semiramidadagi bog`lardan ham a`lodir. Prussiyada imperator Fridrix III, Frantsiya qiroli Karl V va uning o`g`li Filip II o`z saroylarida apel`sin, limon daraxtlaridan va turli xil dorivor o`tlardan iborat bog`lar barpo ettirishgan, maxsus akvariumlarda esa noyob baliqlar va hatto xon baliqni ko`paytirishgan.

Evropa mamlakatlarida XIV asr oxiri va XV asr boshlarida bo`tako`z, lolaqizg`aldoq, nargis, binafsha, liliya (piyozgul), xayrigul, gulsafsar manzarali o`simliklarning asosiy xili xisoblangan. Bular asosan evropa florasi hamda Osiyo va Shimoliy Afrikaning ayrim o`simlik turlaridan tashkil topgan Yaqin Sharq mamlakatlarining ba`zi o`simlik turlari ham asta – sekin botanika bog`lari orqali shular tarkibiga kirdi. Botanika bog`larida piyoz gulli o`simliklar ham paydo bo`ldi. Lola, nargis, gulisumbul, bog` pufagi, tugmaboshlar shular jumlasidandir.

Turkiyadan XVI asrda Italiyaga birinchi marta oddiy siren o`simligi keyinroq olcha va bog` yasmini keltirildi. Keyinroq evropaga tropik manzarali o`simliklardan chechak, mirabilis, tagitislar, shuningdek Shimoliy Amerikaning ba`zi o`simliklari keltirildi. XVI asrning ikkinchi yarmida xususiy va davlat botanika bog`lari soni chetdan keltirilgan manzarali o`simlik turlari keskin ko`paydi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar va ba`zi boy-badavlat kishilar o`z hisobidan ekspeditsiyalar tashkil qilishib sayyohlarni va olimlarni uzoq mamlakatlardan o`simliklar olib kelish uchun jo`natishdi. Shimoliy Amerikaning madaniylashgan o`simlik turlari soni XVII asrga kelib ancha ko`paydi. Shu davrga kelib evropaning manzarali o`simliklar turiga redbekiya, monarda, Kanada axveligiyasi, manzarali butalar, ba`zi do`lanalar, porsildochlar, janubiy tuya o`simligi kabilar kirar edi. Evropada XVII asrda sovuqqa chidamsiz o`simliklarni parvarishlash uchun issiqxonalar qurila boshlandi. Sal vaqtdan so`ng katta botanika bog`larining issiqxonalarida O`rta er dengizi, Sharqiy va janubiy Osiyo, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Markaziy va Janubiy Afrika, Hindiston, Atlantika va Tinch okeani orollaridan keltirilgan tropik va subtropik o`simliklar joy oldi.

O`rta Osiyoda XV-XVIII asrlarga kelib bog`dorchilik juda ilgarilib ketdi. Bog`larda mevali va manzarali daraxtlardan tashqari har xil o`rchil gullar va ko`katlarga alohida joy ajratilgan G.A.Pugachenkoning yozishicha, O`rta Osiyo bog`lari va xiyobonlarining o`ziga xos xususiyati bo`lib, evropa bog`laridan tubdan farq qiladi. 1903 yilda Samarqand bog`bonlar maktabini ochilishi munosabati bilan shu maktab hududida 50 turdagi daraxt va butalardan iborat dendropark tashkil qilinadi. Bu bog`da kumush va havorang el`, pxiba, mamont daraxti, lola daraxti, Amerika qora qarag`ayi va hokazolar ekilgan. Hozirgi kunda ularning juda oz qismi O`zbekiston sharoitiga moslashib urug` va meva bermoqda.

1.2. O`zbekiston manzarali bog`dorchilik va gulchilikning axvoli va rivojlanishi.

Gulchilik bizning respublikamizga uzoq Sharqdan Xitoy va Hindistondan Buyuk ipak yo`li orqali kirib kelgan va birinchi bo`lib Samarqandda, so`ngra Buxoro, Qo`qon va boshqa shaharlarda tarqalgan. 1920 yildan boshlab O`rta Osiyo davlat universitetining qoshida 12 gektarlik botanika bog`i tashkil qilinib 60 ziyod gul navlari etishtirilgan. Gul navlari 300 taga ko`paytirilgach bu bog` 1943 yilda akademiya hisobiga o`tkazilgan va yangi botanika bog`i tashkil etilib, er maydoni 80 gektarni tashkil qilgan.

1962 yildan boshlab Respublikamizning ettita shahri – Andijon, Angren, Olmaliq, Buxoro, Samarqand, Farg`ona va Urganchda o`simlikshunoslik xo`jaliklari tashkil topdi. Bu xo`jaliklarning maydoni 592 gektar edi. 1977 yilga kelib O`zbekiston respublikasida 15 ta o`simlikshunoslik kombinatlari tashkil topdi. Bulardan eng yirigi hisoblangan Toshkent gulchilik savxozining ekin maydoni 1279 gektar edi. Oynavon issiq binolar maydoni 5,9 gektarni tashkil etar edi. 1980 yili botanika bog`ida gulchilik laboratoriyasi tashkil topdi va unda 2000 dan ortiq gul navlari etishtirishga muvoffiq bo`lindi.

Bunga fan doktorlari, professorlardan F.N.Rusanov, Z.F.Bachansiva, V.P.Pechenitsin, fan nomzodlaridan P.K.Ozolin, L.K.Kravchenko, A.K.Kyatkin, A.X.Sharipov, L.A.Abduraxmonovlar o`zlarining munosib hissalarini qo`shdilar.

Mustaqil Respublikamizda hozir gulchilikka katta e'tibor berilmoqda. Gulchilik O'zbekiston xalqining kundalik turmushiga kirib bormoqda va shahar aholisining turmushida muhim ahamyat kasb etmoqda. Samarqand shahrining manzarali va turli xil gul o'simliklari bilan bezashda va ko'chatlarni o'z o'rniga chiroyli qilib o'tqazishda Shreder nomli meva va tokchilik ilmiy tekshirish institutining zabardast olimlarining hissalarini beqiyos.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Toshkent shahrining 2200 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tqazish to'g'risidagi qarorlari ham shuning tasdig'idir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi manzarali o'simliklar va ulardan foydalanish bo'yicha ya'ni yog'och butali o'simliklar, ulardan foydalanish va himoya qilish. Qoraqalpog'iston hududida daraxtlarni ko'paytirish bo'yicha T. O'tenov, M. Ametov, Sh. Yusupov, X. Tolipovlar o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

II. BOB. MANZARALI O`SIMLIKLARI BIOMORFOLOGIK O`ZGACHALIKLARI

Manzarali o`simliklarga yuqori tuzilishga ega bo`lgan bir, ikki va ko`p yillik o`t-o`simliklar, chala buta va daraxtlar kiradi. Bu o`simliklar o`z navbatida vegetativ va generativ organlardan tarkib topgan. Ularning vegetativ organlariga ildiz, poya va barglari kirib, bu o`simliklarning o`sishi va rivojlanishi uchun zarur. Generativ organlariga esa gullari, mevalari hamda urug`lari kiradi. Vegetativ organlar o`sish, ko`payish xususiyatiga ega bo`lib, generativ organlar esa urug`dan ko`paytirish uchun xizmat qiladi. O`simlik hujayralari protoplazma, tsitoplazma, yadro va vakuola hamda qobiqdan iborat. Protoplazmada plastidalar joylashgan. Protoplazma rangsiz suyuqlik bo`lib harakat qilish xususiyatiga egadir. Uning ichki qismida vakuola joylashgan hamda organik, anorganik moddalar bor. Hujayra yadrosi dumaloq ba`zan cho`ziqroq shaklga ega. Yadro o`simlik hayotida muhim rol o`ynaydi. O`simliklarda kelib chiqishiga ko`ra uch xil ildiz bo`ladi: asosiy, yon va qo`shimcha. Gulchilikda qo`shimcha ildizlar o`ziga xos ahamiyat kasb etadi. Qo`shimcha ildizlar o`simliklarning poya va barglarida hosil bo`lib, bu ko`pchilik manzarali o`simliklar (verbena, gnafalium, binafsha va boshqalar) ning vegetativ ko`payishi uchun asosiy rol o`ynaydi. Ko`pchilik piyozli gullarda ildizlar va nafaqat piyozining ostki tomonidan balki piyoz ustidan, ya`ni poya asosida hosil bo`ladi. Shuning uchun bunday piyozlarni piyoz usti ildizlari tuproq ichida bo`lishi uchun chuqurroq ekishga to`g`ri keladi.

O`simliklarda tepa va yon kurtaklar bo`lib, tepa kurtaklar poyaning uchki qismida, yon kurtaklar esa barg qo`ltiqlarida joylashadi. Bulardan tashqari, qisqargan novdalarda joylashgan yirik gul hosil qiluvchi kurtaklar hamda bo`g`im oraliqlari uzun bo`lgan novdalarda joylashgan mayda, barg hosil qiluvchi kurtaklar bo`ladi. Tepa kurtak boshqa barcha kurtaklarga nisbatan tez o`sadi. Yon kurtaklar esa qanchalik novdaning pastida joylashsa shunchalik sekin o`sadi. Yon kurtaklarni uyg`otish va ularni o`sishini tezlatish uchun tepa kurtaklar chilpib tashlanadi. Bundan tashqari bu usul o`simlik shox-shabbalarining ko`payishiga

hamda ularga chiroyli shakllar berishda katta ahamiyatga ega. Gul tabiatdan qisqargan novda bo`lib uning shakli o`zgargan barglari (ba`zan gul barglar ham deyiladi) bor. To`liq shakllangan gul odatda yashil rangdagi alohida-alohida yoki qisman birikib o`sgan gul kosacha barglardan iborat bo`lib, bu o`z navbatda himoya vazifasini bajaradi. Gultoji esa xilma-xil rangdagi gultojibarglardan tashkil topgan.

Gulkosa va gultojibarglar birgalikda gul qo`rg`onni tashkil qiladi. Gullarning rang-barang va nafis bo`lishi gulkosa va gultoji barglarning tuzilishiga va rangiga bog`liqdir. Gulda gulkosa va gultoji barglar bo`lsa bunday gullarga murakkab gul qo`rg`onli gullar deyiladi. Oddiy gulqo`rg`onli gullarda bularning ikkalasidan biri ishtirok etadi. Gullarda changchilar soni bir nechta ayrimlarida esa juda ko`p bo`ladi. Kamdan kam hollarda changchilar bir ikkita bo`ladi. Har bir changchi odatda changdondan uning ipidan va bog`lag`ichidan tashkil topgan.

Gulning makaziy qismida urug`chi joylashgan bo`lib u bir yoki bir nechta barglarning qo`shilib o`sishidan hosil bo`ladi. Urug`chi asosan tumshuqchadan, ustunchadan, hamda asosiy qismi hisoblangan tugunchadan tarkib topgan. Tuguncha ichida bir yoki bir nechta urug` kurtaklar joylashib bulardan urug`lar hosil bo`ladi.

Gullarning shakllari gul o`rnida joylashishi gul qismlarining sonlari ularning rang barangliligi o`simliklar olamida gullarning turli tumanligidan dalolat beradi. Chinnigul, lola, lolaqizg`aldoq va boshqa gullarda gul yakka-yakka poyaning uchki qismida joylashadi. Ayrim gullarning guli mayda bo`lib to`p gullarga joylashgan. Hidli no`xat, marvarid gul, shingil tup gulda, savatcha to`p gul esa bo`tako`z, salla gul, kartoshka gul va boshqalarga xosdir.

Xullas manzarali o`simliklar gullarning xilma-xil morfo botanik xususiyatlarga ega bo`lishi kishilarni qadimdan o`zlariga jalb qilib kelgan.

2.1. Manzarali va gulli o'simliklarning guruhlanishi va ularga tashqi muhit omillarining ta'siri

Manzarali va gulli o'simlik o'simliklarning guruxlanishi. Dunyoda 250 mingga yaqin gulli o'simliklar turi ma'lum va er yuzida ular keng tarqalgan. Gullar morfologik, biologik va xo'jalik belgilari bo'yicha keskin farqlanadi. Hayotining davomiyligiga ko'ra gulli o'simliklar bir yillik, ikki yillik, ko'p yilliklarga va yopiq maydon o'simliklari, barvaqt etishtiriladigan o'simliklar, doimiy yashil o'simliklarga bo'linadi.

Bir yillik o'simliklarga Xitoy Astrasi, Aterrinum, Agietum, Balzamin, Barxattsi, Begoniya, Gvozdika, Gadetsiya, Koreopsis, Kosmeya, Levkoy, Lobeliya, Petuniya, Sal'viya, Floks, Xushbo'y no'xat, Amarant kiradi.

Ikki yillik o'simliklarga Fial'ka, Turkiya gvozdikasi, Kalakol'chik, Margaritka, Nizabutka, Mal'va getokroza, Shtokroza, Naprestyanka kiradi.

Ko'p yillik o'simliklarga Astel'ba, Astra al'piyskaya, Gayllardiya, Gipsofilla, Goritsvet, Zolotoy shar, Iris, Landish, Lyupin, Mak, Pion, Primula, Spargina, Sparja, Lola, Nargis, Liliya, Shafran, Georgina, Gladiolus, Kanna, Atirgul, Shipovnik, Sirin, Gerbera, Stachys kiradi.

Yopiq maydon o'simliklariga Gortenziya, Tsenirariya, Gliotrop, Geran, Glaktsaniya, Fuktsiya, Primula, Tsiklamen kiradi.

Barvaqt etishtiriladigan o'simliklarga Amarillis, Magnoliya, Azaliya, Kameliya, Rododendron kiradi.

Doimiy yashil o'simliklar Araliya, Begoniya, Kardelina, Lavr, Lavrovlashniya legstrum, Pal'ma, Fikus, Felodendron, Limon, Apel'sin, Bresklet, Tuya, Asparagus, Kalakolchik kiradi.

№	O'simlikning nomi	Lotincha nomi	Oilaning botanik nomi
I. Bir yillik o'simliklar.			
1	Antirrinum	Antirrhinum majus	Sigirquyruqdoshlar
2	Xitoy astrasi	Callistephus chinensis	Astrasimonla
3	Ageratum	Ageratum mexicanum	Astrasimonla

4	Bal`zamin	Impatiens balsamina	Xinodoshlar
5	Barxattsi	Tagetes erecta	Astrasimonlar
6	Begoniya	Begonia semperflorens	Begoniyadoshlar
7	Gvozdika	Diathus caryophyllus	Chinniguldoshlar
8	Godetsiya	Yodetia amoena	Kipreydoshlar
9	Koreopsis	Coreosis tinctoria	Astrasimonlar
10	Kosmeya	Cosmea bipinnatus	Astrasimonlar
11	Levkoy	Matthiola incana	Karamguldoshlar
12	Lobeliya	Lobelia erinus	Lobeliyadoshlar
13	Mak	Papaver somniferum	Kuknorguldoshlar
14	Nagotki	Calendula officinalis	Astrasimonlar
15	Petuniya	Petunia hybrida	Tomatguldoshlar
16	Rezeda	Reseda odorata	Rezaguldoshlar
17	Sal`viya	Salvia splendens	Lebguldoshlar
18	Tabak xushbo`y tamaki	Nicotine affines	Tomatdoshlar
19	Floks	Phlox drysanthemum	Floksimonlar
20	Xrizantema	Chrysanthemum carinatum	Astrasimonlar
21	Tseloziya	Celosia pyramidalis	Gultojxo`rozlar
22	Tsiniya	Zinnia elegans ligulosa	Astrasimonlar
23	Bargli karam	Brassica oleracea	Karamguldoshlar
24	Kanoplya (ekinbob nasha)	Cannabis gigantean	Astrasimonlar
25	Makkajo`xori	Zea japonica	Gallagullilar
26	Xushbo`y no`xot	Zathrus odoratus	Dukkakdoshlar
27	Ipomeya	Ipomea purpurea	Chirmovuqdoshlar
28	Nasturtsiya	Tropaelum cultorum	Nasturtsiyasimonlar
29	Fasol`	Phaseolus coccineus	Dukkakdoshlar

30	Besmertnik	Helichrysum bracteatum	Astrasimonlar
31	Amarant (gultojxo`roz)	Amaranthus	Gultojxo`rozlar
II. Ikki yillik gulli o`simliklar			
1	Fialka	Viola tricolor	Binafshadoshlar
2	Turkiya gvozdikasi	Diathus barbatus	Chinniguldoshlar
3	Kolokol`chik	Campanula medium	Qo`ng`iroqguldoshlar
4	Margarita	Bellis perennis	Astrasimonlar
5	Nezabudka	Myosotis palustris	Kampirchopondoshlar
6	Mal`va Gitokroza	Aecea rosa	Gulxayridoshlar
7	Naperstyanka	Digitalis purpurea	Sigirquyruqdoshlar
III. Ko`p yillik o`simliklarga			
1	Astra al`piyskaya	Aster alpinus	Astrosimonlar
2	Astil`ba	Asrilbe	Toshyorardoshlar
3	Gaylardiya	Yaillardia hybrida	Astrosimonlar
4	Gipsofila	Yypsophila panikulata	Chinniguldoshlar
5	Goritsvet	Jychnis chalcedonica	Chinniguldoshlar
6	Zolotoy shar	Rudbeckia laciniata	Astrosimonlar
7	Iris	Iris germanica	Sapsarguldoshlar
8	Landish	Convollaria majalis	Piyo zguldoshlar
9	Lyupin	Jopinus polyphullus	Dukkakdoshlar
10	Mak	Papaver arientale	Ko`knorguldoshlar
11	Pion (pion)	Paeonia lactiflora	Sallaguldoshlar
12	Primula	Primula auricular	Primullasimonlar
13	Spargina	Asparagus officinal is	Sarsabilguldoshlar
14	Xushbo`y Fialka	Viola adorata	Binafshadoshlar
15	Floke	Phlox paniculata	Sinyuxagullilar
16	Shpornik (Del`finum)	Delphinium cultorum	Ayiqto vonlar

17	Shatsint	Hyacinthus aorientalis	Piyozguldoshlar
18	Liliya	Cilium regale	Piyozguldoshlar
19	Nargiz	Nargissus pseudonarcissus	Chuchmomoguldoshlar
20	Lola	Tulipa greigii	Piyozguldoshlar
21	Shafran	Crocus vernus	Za`faran irislar
22	Georgina	Dahlia variabilis	Astrasimonlar
23	Gladiolus	Gladiolus hybrid us	Safsarguldoshlar
24	Kanna	Cane indicia	Kannadoshlar
25	Atirgul	Rosa thee hybrida	Atirguldoshlar
26	Shipovnik	Rosa canine	Atirguldoshlar
27	Siraj	Syringe vulgar is	Zaytundoshlar
28	Gerbera	Cerbeta	Astrasimonlar
IV. Yopiq maydon o`simliklar			
1	Gotenzaya	Hydrangea hortensis	Toshyorardoshlar
2	Tsionerariya	Cineraria hyrida	Astrosimonlar
3	Geliotrop	Helliotopium peruvianum	Kampirchopondoshlar
4	Gera`	Pelorgonium zonale	Gerandoshlar
5	Geloksanaya	Yloxinia hyrida	Gloksiniyadoshlar
6	Fuksaya	Fuchsia magellanica	Kipreydoshlar
7	Primula	Primula gigantean	Primulladoshlar
8	Tsiklamen	Cyclamen latifolium	Navro`zguldoshlar
V. Barvaqt etishtiriladigan o`simliklar			
1	Amarillis	Amaryllis Hippeastrum	Amarisdoshlar
2	Magnoliya	Magnolia grandiflora	Magnoliyadoshlar
3	Azaliya	Azalea indica	Azaliyadoshlar
4	Komeliya	Camellia japonica	Komeliyadoshlar
5	Rododendron	Rhodendron	Rododendrodrshlar

		caucasicum	
VI. Doimiy yashil o`simliklar			
1	Araliya	Aralia jipanica	Ataladoshlar
2	Begoniya	Begonia rex	Begoniyadoshlar
3	Kordilina	Codyline australis	Agavadoshlar
4	Lavr	Sauras nobilis	Lavrdoshlar
5	Lavravishnya	Saurocerosus afficeinalis	Atirguldoshlar
6	Legistrum	Sigustrum vulgare	Zaytundoshlar
7	Pal`ma	Kentia forsteriana	Zaytundoshlar
8	Fikus	Fichus elastia	Tutdoshlar
9	Filodendron	Philodendron	Araidrshlar
10	Limon	Citrus Limon	Rutadoshlar
11	Apel`sin	Citrus sienensis	Rutadoshlar
12	Bersket	Econymus japonicum	Sberesketdoshlar
13	Tuya	Thuja occidentalis	Sberesketdoshlar
14	Asparagus	Asparagus plumosus	Sarsabildoshlar
15	Kolokol`chik	Campanula isophylla	Qo`ng`iroqguldoshlr

Manzarali va gulli o`simliklar uchun tashqi muhit omillarining ta`siri.

Gulchilikni to`g`ri tashkil qilish uchun berilgan joyning iqlim xususiyatlarini hisobga olish zarur, chunki shunga ko`ra manzarali o`simliklar navlarini tanlash oson bo`ladi. Iqlim ma`lumotlariga ko`ra quyidagilar aniqlanadi: vegetatsiya va gullash vaqtlari, o`simlik urug`larini bahorda sepish va ko`chatlarini o`tqazish, kuzda esa yig`ish muddatlari, shuningdek, ko`p yillik gullarning qishlash imkoniyatlari. Qishki eng past harorat – qishlovchi ko`p yillik gullarni tanlash uchun hal qiluvchi omillardir.

O`zbekiston sharoitida namlikning kamligi yoki havoning suv bug`lari bilan to`yinmaganligi asosiy xususiyatdir. Havoning suv bug`lari bilan eng tuyinmaganligi O`zbekistonning sahro mintaqasi issiq bo`luvchi va quruq keluvchi

shaharlar Buxoro, Termiz va Nukusda uchraydi. Shuning uchun bu joylarga, shu omillarga ko'proq moslashgan o'simliklarni tanlash kerak.

Tuproqni yumshatish – ko'p mehnat talab qiluvchi ish. Gulchilikda tuproq qo'lda (ketmonda, teshada) yumshatiladi. Shuning uchun qatqaloqqa qarshi har qanday ish tahsinga sazavordir. Bunday ishlar qatoriga – qumlash, tuproqqa chirindi, kompost, bargli tuproqni qo'shish, gullovchi o'simliklar tagidagi tuproqni engil yumshatish, uning ustini tolali yumshoq moddalar (yarim chirigan o'g'it, yirik zarrali qum, sholi qipig'i va h.k) bilan yopish kabilar kiradi. Shag'alli tuproqlar asosan, tashqaridan yumshoq tuproqni qo'shish, ba'zan esa butunlay shag'al tuproqni yumshoq tuproq bilan almshtirishni talab etadi.

O'simliklar hayoti tashqi muhit sharoitlariga bevosita bog'liqdir. Ularning o'sish va rivojlanishiga ta'sir o'tkazuvchi asosiy omillar – issiqlik, suv, yorug'lik, havo va oziq moddalardir. Gulchi gulni etishtirar ekan, ularning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish, ya'ni yuqoridagi barcha omillar o'zaro eng qulay muddatlarda bo'lishiga erishishi kerak.

Bir xil o'simliklar o'sish va rivojlanishning turli davrida yashash sharoiti va muhitning bog'liklik omillar munosabtidan har xil ta'sirlanadi. Bu erda turli guruh, nav, turlarga tegishli o'simliklar haqida gap bo'lishi mumkin emas. Oziqlanish tartibi, yorug'lik va hokazolarni yo'lga solish bilan o'simliklarning yashash faoliyati uchun eng qulay sharoit yaratib, ulardan mumkin qadar ko'proq natija olish mumkin.

Issiqlik rejim. Havo va tuproq harorati – o'simliklar yashash faoliyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Issiqlik – o'simlik hayoti uchun zaruriy shartlardan biridir. Fotosintez, transpiratsiya, nafas olish va hokazolar kabi fiziologik jarayonlarning kechishi unga bog'liqdir. Ko'pgina o'simliklarning o'sishi harorat 15° dan 35° gacha ko'tarilganda tezlashadi, 15° dan 0° gacha pasayganda – sekinlashadi $35-38^{\circ}$ dan yuqori haroratda o'sish jarayoni intensivligi tez pasayadi. Issiqlikning uzoq vaqt ko'p bo'lishi yoki etishmasligi o'simlikning halok bo'lishiga olib keladi.

Turli manzarali o`simliklarning issiqlikka turlicha munosabati ko`pincha ularning kelib chiqishi, iqlim mintaqalari, sharoitlariga bog`liqdir. Manzarali o`simliklar issiqlikka bo`lgan munosabatiga ko`ra, ochiq va yopiq er o`simliklariga bo`linadi.

Birinchi guruhga ochiq er sharoitida etishtirilgan o`zining manzarali xususiyatiga ega o`simliklar kiradi. Ochiq er o`simliklari vegetatsiya davri mobaynida issiqlikka munosabati bo`yicha shartli ravishda sovuqqa chidamli va issiqsevar o`simliklarga bo`linadi. Sovuqqa chidamli o`simliklar – bu, vegetatsiya davrida haroratning 0-1<sup>0</sup> gacha, hatto qisqa muddatda – 2-3<sup>0</sup> gacha pasayishiga chidamli bir yillik va qishlovchi ko`p yillik o`simliklardir. Issiqsevar o`simliklar vegetatsiya davrida haroratning qisqa muddatga 0-1⁰ gacha pasayishini ham ko`tara olmaydi. Ba`zi bir yilliklardan tashqari, bu guruhga qishda issiqxonalarda, yozda esa ochiq erda o`suvchi tropik o`simliklar – pal`ma, agava, yukka va gilam hosil qiluvchi o`simliklar – exeveriya, kleyniya, al`ternantera va boshqalar kiradi.

Yopiq er o`simliklari qishki (eng past) haroratga, munosabatiga ko`ra uch guruhga bo`linadi.

1. Sovuq oynavon bino o`simliklari – ular uchun qish davrida, ya`ni dekabr, yanvar, fevral oylarida 3⁰ dan 7-8⁰ gacha harorat zarur. Lavr daraxti, abutilon, geran, rododendronlar, fuksiya va boshqalar yuqori haroratda yaxshi o`sadi, ammo qishda yorug`likning katta taqchilligiga uchrab, qiynaladilar va nobud bo`lishlari ham mumkin.

2. Mo`ttadil oynavon bino o`simliklari – 8⁰ dan 15⁰ gacha haroratga muhtojdirlar, pastroq harorat ularga yomon ta`sir ko`rsatadi. Bu guruh o`simliklariga pal`malar, xurmo, xamerops, shuningdek xona yasmini al`ternanterlar, kofe daraxtlari, pankratsium, kaktusning (opuntsiya) ba`zi turlari va ko`pgina boshqa o`simliklar kiradi.

3. Issiq oynavon bino o`simliklariga 15<sup>0</sup> dan 25<sup>0</sup> gacha bo`lgan harorat zarur. Past haroratda ular qiynalibgina qolmay, nobud bo`lishlari ham mumkin orxediylar, bromeliya, ananas, krotonlar, kokos pal`malari, kaladium, uzambar gunafshasi, ko`gina paportniklar (qirqquloqlar) va boshqalar.

Barcha oynavon bino o`simliklari subtropik va tropiklardan kelib chiqadi va hammasi nisbatan issiqsevar. Ular orasida gullovchi o`simliklar kam uchraydi. Asosan bargli manzarali o`simliklar pal`malar, qirqquloqlar ichki ko`kalamzorlashtirishda, ya`ni xona o`simliklari sifatida, qishki bog`lar tashkil qilishda ishlatiladi.

Issiqlik tartibi buzilganda, o`simliklar uzoq gullay olmaydi, gullaganlari ham nomukammal gullarga ega bo`ladi, bargli manzarali o`simliklar esa kerakli samara bermaydi. Masalan, aloe, aspidistra, dratsena, kliviya, fillokaktus, epifillyum va boshqalar.

Suv rejimi. O`simliklarning tuproq va havo namligiga ehtiyoji juda katta bo`ladi. Suv – o`simlik hayoti uchun zaruriy manbadir ya`ni:

a) suv – o`simlikning asosiy tashkiliy qismidir. U xujayra miqdorining 50-80 foizini tashkil etadi. Suv o`simliklarning bug`lanish jarayonida katta miqdorda sarf qilinadi va bir vaqtning o`zida ularga tuproq orqali etkaziladi.

b) karbonat angidrid gazi va mineral birikmalar bilan bir qatorda suv o`simlikning organik moddalari sintezi uchun zarurdir. Uning ishtirokida o`simlikdagi barcha asosiy biokimyoviy jarayonlar amalga oshadi.

v) tuproqdagi oziq moddalar o`simlikka faqatgina suvda erigan holda etkaziladi.

g) suv – o`simlikda oziq moddalar harakati uzluksizligini ta`minlaydi.

d) o`simlikning muvofiq darajada o`sishi va yashash faoliyati tuproq hamda havo namligiga bog`liqdir, chunki o`simliklarning yaxshi rivojlanishi suv bilan to`liq to`yingandagina me`yoriy kechadi.

O`simliklarning suv rejimi quyidagi jarayonlardan tashkil topgan:

1. O`simlikka suvning ildiz tizimi va barglardan kelishi.

2. O`simlikda suvning ildizdan barglargacha va aksincha harakati.

3. Barglardan suvning bug`lanishi – transpiratsiya, bu tuproqdan ildiz orqali bargga boruvchi oziq moddali suvning uzluksiz oqimini yuzaga keltiradi. O`simliklar tomonidan suvning bug`lanishi ularni qizib ketishidan saqlaydi.

Suvga ehtiyoji bo`yicha o`simliklar to`rtta guruhga bo`linadilar:

1. Hidrofitlar – bu gurux o`simliklariga ko`p miqdorda suv zarur bo`ladi. Bular suv sevar o`simliklardir, masalan, diametri 1,5 m li juda katta bargli viktoriya, regiya, tsiperus, nimfa va boshqalardir.

2. Hidrofitlar – bular ortiqcha namlik sharoitida yashovchi namsevar o`simliklardir. Ularga ol`xa, antirium, aspidistra, fikusban`yanlar kiradi.

3. Mezofitlar – namlikka talabi o`rtacha ehtiyojli o`simliklar. Bu eng ko`p sonli guruhga anchagina o`simliklar kiradi, bular orasida atirgul, qalampirgul, astra qo`qongul va boshqalar bor. Bu guruh o`simliklarni namlikka ehtiyoji bo`yicha kam, o`rta va ko`p ehtiyojli o`simlik guruhchalarga ham bo`lish mumkin.

4. Kserofitlar – juda kam miqdorda suv iste`mol qiluvchi o`simliklardir. Bu guruh o`simliklar juda kam. Ular cho`l, yarim cho`l va dasht mintaqalarida quruq tuproqda o`suvchi o`simliklardir. Asosan suvni barg va poyada saqlovchi sukkulentlar ko`p. Bunday o`simliklarga kaktus, agava, aloelar kiradi.

Tabiatda yuqorida keltirilgan guruhlar o`rtasida aniq chegara mavjud emas, ayrim o`simliklar o`zining suvga ehtiyoji bo`yicha oraliqda joylashadi. Masalan, kseromezofit yoki mezokserofitlar.

***Yorug`lik rejimi.*** Yorug`lik – erda hayotning zaruriy shartlaridan biridir. O`simliklar ma`lum bir intensivli, kuchli, spektr tarkibli va davomiy yorug`likdagina me`yoriy ravishda o`sishi va rivojlanishi mumkin.

Manzarali o`simliklar yorug`lik intensivligiga munosabati bo`yicha yorug`sevar va soyaga chidamli o`simliklarga bo`linadi.

Yorug`sevar o`simliklar- yorug`likning yuqori intensivligida yaxshi o`sib, rivojlanadi. Bu guruhga kartoshka gul, tsinniya, qo`qongul, nasturtsiya, gulidovud va boshqa ko`pgina gul o`simliklari kiradi.

*Soyasevar o`simliklar* – qoraqarag`ay, jo`ka daraxti, ol`xa, navro`zgulning ayrim turlari va boshqalar- to`liq bo`lmagan yorug`likda, soyada yaxshi o`sadi. Bu o`simliklarning ko`pchiligi kuchli yorug`da azoblanadi va daraxt butalar soyasida juda yaxshi rivojlanadi. Soyasevar o`simliklar xonalarda o`stirish uchun yaroqli hisoblanadi, chunki bu erda o`simlik ko`pincha yoritish taqchilligini boshidan

kechiradi. Hatto kam yoritishda aspidistra, monstera, qirqquloqlar, tiss, fritilyariya va boshqa o`simliklar yaxshi o`sadi.

*Soyaga chidamli o`simliklar*- to`liq yoritilgan joyda ham, yarim soyada ham yaxshi o`sib, o`sib rivojlanaveradi. Yoritilgan joylarda manzaraviy ko`rinishga tezroq kiradi, soyada esa betinim gullaydi va o`z manzaraviy sifatlarini saqlaydi. Bu guruh o`simliklarga akvilegiya, gulsapsar, bo`tako`z, astil`ba, pechak va boshqalar kiradi.

Ayrim hollarda, tabiiy yorug`likning kamchiligi va taqchilligida sun`iy yoritish amalga oshiriladi. Bunda u yoki bu manzarli o`simlikning biologik xususiyatlariga ko`ra harorat rejimi tuziladi.

Havo rejimi. Barcha o`simliklarga hayot faoliyati uchun havo zarur, ya`ni ochiq joyning rel`efi, himoya chizig`i turlari, tuproq xususiyatlari va hokazolarga ko`ra o`zgaruvchi ma`lum gaz muhiti zarur. Yopiq erda gaz muhitini shamollatish, karbonat angidrid gazi bilan to`yintirish orqali nazorat qilish mumkin.

O`simliklarning nafas olish intensivligi rivojlanishning turli davrida turlicha. Ayniqsa, unayotgan urug`lar ko`p nafas oladi. O`sish sur`ati oshishi bilan nafas olish intensivligi ham oshadi, shuning uchun yosh o`simliklar kattalariga ko`ra aktiv nafas oladi. Qishda o`simliklarda bu jarayon minimal darajaga qadar pasayadi.

O`simlikning barcha organlari, shuningdek, ildizlar ham nafas oladi. Shuning uchun tuproqni yumshatish ta`lab etiladi. bundan tashqari, yaxshi ishlangan tuproqda foydali mikroorganizmlar o`simlik qoldiqdari va boshqa organik moddalarni minerallarga aylanishini ta`minlaydi.

Ayrim hollarda o`simlikning nafas olishiga halaqit qiluvchi hollar yuzaga kelganda uning kislorodga talabi ortadi so`ng o`simlik kuchsizlanadi, kasallanadi va nobud bo`ladi. Bunday hollar joylarni suv bosganida, muz qatlami hosil bo`lganida yuzaga keladi. Shunday vaqtda darhol suvni to`xtatish yoki muz qatlamini buzish zarur.

**O`simliklarni oziqlantirish.** O`simliklarda murakkab biokimyoviy va fiziologik jaryonlar kechadi. Xujayra asosan oqsil, ugleroddan, yog`simon

moddalardan tashkil topgan. Oqsil-uglerod, kislorod, vodorod, azot, fosfor, oltingugurt, temir va boshqa elementlardan tashkil topgan. Bundan tashqari, o`simliklarda kichik miqdorda bor, marganets, mis, rux, yod va ba`zi boshqa mikroelementlar ham mavjud.

O`simliklar o`rtacha (o`simlik quruq massasi og`irligining foizlarda) uglerod -45, kislorod -42, vodorod -6,5, azot- 1,5, boshqa moddalar (fosfor, kaliy, kal`tsiy, magniy, temir va boshqa) 560 miqdorlarda mavjuddir.

O`simlik barcha oziq elementlarni tuproq va havodan oladi. Asosiylari- azot, fosfor, kaliy, kal`tsiy tuproqda katta miqdorda mavjud bo`lsa ham, ko`pincha o`simlik uchun yaroqsiz shakldadir. Shuning uchun, mavjud unumdorlikni samarali unumdorlikka aylantirish sharoitlarni yaratishga, tez ta`sir qiluvchi omillar – o`g`itlar (organik va mineralni qo`llashga to`g`ri keladi). Bu o`simlikni o`stirishda muhim agrotexnik usullardan biridir.

Mineral o`g`itlar. Manzarali bog`dorchilik bo`yicha ilmiy – izlanishlar va amaliyotlar shuni ko`rsatadiki, o`simliklar unumdorligining yuqori darajasiga va mineral o`g`itlarni keng qo`llaganda erishiladi. Keng ma`noda “o`g`it” nomi bilan mineral, organik moddalar va tuproq xususiyatini hamda o`simlikni oziqlantirish shartlarini yaxshilash uchun amalda ishlatiluvchi materiallar tushuniladi.

Mineral o`g`itlar o`simliklar hosildorligining miqdori va sifatiga ijlbiy ta`sir ko`rsatibgina qolmaydi, u keyin o`suvchi o`simliklarga ham yaxshi ta`sir ko`rsatadi.

Azotli o`g`itlar. Mamlakatimizning ko`pgina tabiiy-iqtisodiy zonalarining barcha qishloq xo`jalik ekinlarining hosilini oshirishda muhim rol` o`ynaydi. Azot oqsillar sintezi uchun – har qanday organizm hayot faoliyati asosi uchun qo`llaniladi. O`sinh va rivojlanish, yangi barglar, ildiz, gullar, mevalar va boshqa organlar hosil bo`lishi o`simlikka azotning etarli solinganiga bog`liqdir.

Azot taqchilligida o`simliklar uchun quyidagi belgilar kuzatiladi: nozik tupli, qichqa, ingichka novdalar, rivojlanishning boshida sariq-yashil rangli va oxirida sariq yoki qizg`ish rangli mayda barglar. Barglarning sarg`ayishi qari barglardan

boshlanadi. Muddatidan ilgari barg to'kilishi kuzatiladi, natijada gullar sekinlashadi va o'simlikni tashqi ko'rinishi o'zgaradi.

Fosforli o'g'itlar. Fosfor o'simliklar hayotida katta rol o'ynaydi. Bu o'simlikda katakli yadro bo'linish jarayonida va yangi organlar hosil bo'lishida qatnashuvchi murakkab oqsillar tarkibiga kirib, kraxmal, shakar va yog'larni yig'ilishiga yordam beradi. Fosfor etishmaganda ayniqsa, boshlang'ich davrda o'simlikni ildiz tizimi kuchsiz rivojlanadi. O'simlikning o'sishi va rivojlanishi to'xtaydi, barglarda qizil va binafsha dog'lar paydo bo'ladi, sekin asta quriydi va to'kiladi, o'simliklarni hosildorligi pasayadi, ko'rinishi dag'allashadi. O'simliklar ko'proq gullash va meva tugish vaqtida fosforgia ehtiyoj sezadilar.

Kaliyli o'g'itlar. Kaliy tsitoplazma xususiyatlariga oqsil va uglevodlarning hosil bo'lishi va aylanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu o'simlikning tez o'sishiga, o'simlikda oziq moddalar harakatiga, sovuq va zamburug'li kasalliklar va boshqa yoqimsiz sharoitlarga chidamlilikning oshishiga yordam beradi. Kaliy taqchilligida o'simlikning o'sishi sekinlashadi. Ildiz tizimi yomon shakllanadi, poyalar bo'g'ini kaltalashadi barglar xira ko'k-yashil rangda bo'ladi. Barg plastinkalarida asosan tomirlar orasida xlorotik dog'lar paydo bo'ladi, qari barglarning chetlari sarg'ayadi, jigarrang dog'lar paydo bo'ladi, barglar buralib pastdan quriydi.

Organik o'g'itlar – bu o'simliklar va hayvonot minerallaridir. Ularning ta'siri ko'p qirralidir. Ular tuproqqa solingandan so'ng, tuproqning suv, havo va issiqlik xususiyatlari yaxshilanadi. Organik o'g'itlarning parchalanishi natijasida o'simliklarga kerakli karbonat angidrid ajraladi. Ular o'simlik uchun faqatgina oziq moddagina bo'lmay, balki tuproqdagi jarayonlarni biologik faollashtiruvchi manba hamdir. Organik o'g'itlar tuproq mikroorganizmlarini rivojlantiradi va faoliyatini kuchaytiradi.

Go'ng – muhim organik o'g'it. Uning tarkibi hayvonlarning turiga, ular oziqlangan em-xashakka, to'shamalarning turi va miqdoriga, go'ngni saqlash usullari va hokazolarga bog'liq.

Go'ng barcha qishloq xo'jalik ekinlariga eng yaxshi va har jihatdan ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi o'g'it hisoblanadi. U o'z tarkibida o'simliklar uchun zarur

bo'lgan oziq moddalarga ega. Shuning uchun go'ngdagi oziq moddalarni isrof qilmaslikning eng yaxshi samarador usuli uni moxsus sandiqlarda zichlab saqlashdir.

Go'ngni o'simliklarga solish miqdori – uning sifatiga, tuproq va o'simlik turiga, mineral o'g'itlar bilan mos kelishiga bog'liqdir. Noqora tuproq zonalarda bu miqdor bir gektar erga o'rtacha 30-40 tonnani tashkil qiladi. Go'ng og'ir tuproqqa qaraganda engil tuproqqa kamroq solinadi. Ko'proq yog'ingarchilik bo'lib turadigan joylarda tuproqqa go'ng bahorda 24-27 sm chuqurlikka solinadi; janubiy va iqlimi quruq bo'lgan tumanlarda go'ngni kuzda solish maqsadga muvofiqdir. Go'ngni mineral o'g'itlar bilan birga solishning samarasi yaxshi bo'ladi. Masalan, go'ngga 1-10% fosfor unini aralashtirib va uni 2-4 oy saqlab so'ng ishlatsa ta'siri kuchli bo'lib kutilgan natijalarni beradi.

Go'ng shirasi – bu tez ta'sir etuvchi, samarali, asosan azot-kaliyli o'g'itdir. U kompostlar tayyorlash va o'simliklarga solish uchun asosiy o'g'it sifatida ham ishlatiladi. Bunda 1 gektarga 5 tonnadan 16 tonnagacha 2-2,5 tsentner fosforli o'g'itni aralashtirib solinadi. O'g'itlash uchun go'ng shaltog'ini 1 gektarga 2-3 tonna bunda 2-4 barobar suv qo'shilsa yaxshi bo'ladi. Agar uni tuproqqa 3-4 sm chuqurlikda solinsa suv qo'shmasa ham bo'ladi. Go'ng shaltog'ini qo'llashda zaruriy shart – solingandan keyin tuproq bilan berkitishdir.

2.2. Manzarali va gulli o'simliklarning urug'idan va vegetativ ko'paytirish yo'llari

Manzarali va gulli o'simliklarni urug'idan ko'paytirish. Manzarali o'simliklarning ko'paytirishning eng ko'p tarqalgan usuli – urug'dan ko'paytirishdir. Uni gulli o'simliklarning yangi navlarini hosil qilishda, bir yillik, ikki yillik, bir qator o'tsimon ko'p yilliklar va mavsumda gullovchi oynavon issiq bino hamda xona o'simliklarni etishtirishda qo'llaydi.

**Urug` sifati.** Ekish uchun mo'ljallangan urug` yuqori ekish va nav sifatlarga ega bo'lishi zarur. Urug`ning ekish sifatlari ko'karish energiyasi, unib chiqishi, yashash qobiliyati, o'sish sur'ati, tozaligi, yirikligi, namligi, zararkunanda va

kasalliklar bilan kasallanganligi aniqlanadi. Urug`lar ekish sifatleri bo`yicha III sinfga bo`linadi. I- II- III- sinf va DST talablariga mos kelishi shart. Masalan, qo`qongul va shabo chinnigulining I sinfi 98% dan kam bo`lmagan tozalikka va 90% dan kam bo`lmagan unib chiqish qobiliyatiga ega bo`lishi kerak. II sinfi 95 % tozalikka, 70 % unib chiqish qobiliyatiga, III sinfi 90 % tozalikka va 40% unib chiqish qobiliyatiga ega bo`lishi kerak.

Urug`larning nav sifati nav tozaligini bildiradi. Manzarali o`simliklar urug`lari nav sifati bo`yicha nav tozaligi elita, 1-2 kategoriyalarga bo`linadi. Nav tozaligi elita va I kategoriyali urug`larda boshqa navlar va turli gibridlar aralashmasiga yo`l qo`yilmaydi.

**Urug`larni ekishga tayyorlash.** Yuqori sifatli manzarali o`simliklarni faqat sog`lom nav urug`lardan olish mumkin. Puch, lat egan, pishmagan urug`larda yashash xususiyati yo`q va ularni saralash zarur. Urug`lar juda yaxshi unib chiqishi va ulardan sog`lom o`simliklar olish uchun maxsus tarzda qayta ishlanadi.

Urug`larning tayyorlashning asosiy usullari quyidagilar:

Urug`larni dorilash – o`simlik ko`chatlarini kasalliklardan asraydi u quruq va nam bo`lishi mumkin. Quruq dorilash uchun odatda granozan preparati ishlatiladi. 1 kg urug`ni dorilash uchun 1g preparat etadi. Ekishdan 3-5 soat oldin urug`larga preparat sepiladi yoki aralashtiriladi.

Urug`larni termik qayta ishlash o`simliklar turlariga ko`ra 50-55<sup>0</sup>S issiq suvda 2 soatdan 12 soatgacha o`tkaziladi.

Ivitish – hushbo`y no`xat, nasturtsiya, asparagus va boshqa o`simliklar urug`i tez unib chiqishi uchun ularni ekishdan oldin 1 kun davomida 20-30⁰ li suvda ivitib qo`yish zarur. So`ng urug`lar salgina qurtitib ekiladi.

Muzlatish – urug`lar unib chiqish davrining qisqartirish va o`simliklar yashash faoliyatini yaxshilash uchun amalga oshiriladi. Urug`ni yashiklarga joylab o`raladi va qorga ko`miladi, ular bu holda erta bahorgacha qoldiriladi.

Issiq havoda qayta ishlash – urug` qatlamlarini dorilash va isitishdir. Bu usul urug`larning unib chiqish energiyasini oshiradi.

Skarifikatsiya – qalin sirtli urug` qatlamini shikastlashdir (masalan kanna). Shikastlangan qatlamdan kurtakka suv bir zumda o`tadi va urug` tezroq unib chiqadi. Mexanik shikastlashda urug`larning qattiq qatlamini ehtiyotkorlik bilan kurtakka zarar etkazmasdan arralanadi, kesiladi, yoriladi, urug`larni yirik qum yoki shag`al bilan ishqalab shikastlaydi. Shoyigul, banan, akkonit va boshqa o`simliklarni qiyin ko`karuvchi urug`larini qayta ishlashda oldin muzlatiladi, sungra urug` qatlami yorilguncha ustidan bir necha marta qaynagan suv qo`yiladi. Shundan so`ng kurtakka namlik oson kiradi va tez unib chiqadi. Kimyoviy ta`sir ko`rsatishda urug` qatlamiga 2-3 %li tuz yoki oltingugurt kislotasi eritmasi yordamida ta`sir ko`rsatadi.

Stratifikatsiya – urug`larni bir necha oy davomida past haroratda saqlashdir. stratifikatsiyadan oldin urug`larni nam qum, torf, yanchilgan mo`yna bilan 1:3 nisbatta aralashtiriladi. Sirti qattik urug`lar stratifikatsiya qilinadi. Agar stratifikatsiya uchun maxsus xonalar mavjud bo`lmasa urug`li yashiklar qorga ko`miladi. Kech kuzda ochiq erga urug` sepish yaxshi natija beradi, bunda urug` stratifikatsiyasiz tabiiy sharoitlarda kechadi.

**Gulli o`simliklarni ekish usullari** – urug` ekishning 3 xil qatorli, uyali va sepish usuli mavjud. Ekish usuli ekilayotgan o`simlik turi, urug` miqdoriga, ekish joyiga va vaqtiga, shuningdek hajmiga bog`liq.

Qatorli ekish – marker yoki chizg`ich bilan belgilangan egatchalarga hamda katta maydonlarga seyalka yordamida ekishdir. Ekishning uyali usulida yirik urug`lar 2-3 donadan chuqurchalarga ekiladi. Urug`lar sepma usulida qatorli va uyali ekishga ko`ra bir tekis joylashadi. Bu usul bilan urug`lar issiqxonalarga, yashiklarga va sayoz idishchalarga sepiladi, ko`chatlar esa keyinchalik boshqa joylarga ko`chirib o`tqaziladi. Urug`larni sepishda ularni maydon bo`yicha imkoniyati boricha bir tekis, zich qilmasdan sepish kerak aks holda ko`chatlar siqilib, nozik bo`lib qoladi va ularni sayraklatish uchun ko`p vaqt sarf qilinadi. Mayda urug`larni bir tekis sepish uchun qum yoki bo`r bilan aralashtiriladi, juda mayda urug`larni esa, masalan begoniya yaxshi ko`rinishi uchun qor qatlami yoki oqish neytral material ustiga sepiladi. Urug`lar qanchalik mayda bo`lsa, ular

shunchalar yuzaga ekiladi. Manzarali o`simliklar urug`i bevosita ochiq erga sepiladi yoki ko`chat usuli bilan etishtiriladi.

Bir yillik o`simliklarni ko`chatsiz etishtirish usuli. Bir yillik o`simliklarni ko`chatsiz etishtirish usuli mehnat sarfini va o`simliklik tannarxini ma`lum darajada kamaytiradi, bunda o`simlik kuchli rivojlanish bilan ajralib turadi, kamroq kasallanadi. Bu usulning kamchiligi shundan iboratki, o`simliklar ko`chat bilan etishtirilgandagiga qaraganda bir muncha kech gullaydi va urug` 2,5-3 barovar ko`p sarf bo`ladi. Bir yillik o`simliklarni ko`chatsiz usulda etishtirishda urug`lar bahorgi don ekinlari singari mart oxiri – aprel boshida ekiladi. Qatordagi o`simliklar va qatorlar orasidagi masofalar ekin vazifasi o`stirilayotgan o`simlik biologik xususiyatlarga ko`ra aniqlanadi. Urug`lar ariq tortuvchi traktor yoki qo`lda tayyorlangan qatorlarga ekiladi.

Erni tayyorlash – er haydalayotgan yoki kul`tivatsiya paytida o`g`it to`liq solinmagan bo`lsa u holda jo`yak tortish davomida $1m^2$ erga 30-50g superfosfat, 20-30g ammiyak seletrasi va 10-15g kaliy tuzi beriladi. Urug` yaxshi shamollatilgan torf, qum yoki chirindilar bilan ko`mib berkitiladi. Noqoratuproqlar sharoitlarida ekish ishlari qishdan oldin taxminan oktyabrning uchunchi o`n kunligida ekiladi. Bevosita erga sepilgan urug` ko`chatlari 2 marta yagonalanadi. Birinchi marta bir juft chinbarg chiqqanda, ko`chatlarni yarmi qoldiriladi. Ikkinchi yagonalashda esa 3-5 barglar paydo bo`lganda, ya`ni taxminan ikki haftadan so`ng, o`simliklarni orasida shu nav uchun belgilangan masofa qoldiriladi. Yagonalashda nimjon o`simliklar olib tashlanadi sog`lom ko`chatlar esa boshqa joyga ko`chirib o`tqazishda ishlatiladi.

Gulli o`simliklarni ko`chatini parvarishlash – vegetatsiya davri ko`pgina manzarali o`simliklar, ochiq erga ekilganda mamlakatimiz o`rta mintaqasining qisqa yozi davomida gullashga ulgurmaydi yoki juda kech gullaydi. Bunday o`simliklarni etishtirishda gul ko`chatlarini tayyorlash talab etiladi. Buning uchun urug`lar yashik yoki sayoz idishchalarga sepiladi, boshqa joyga ko`chirib o`tqazilgan ko`chatlar esa keyin ko`chat qilguncha issiqxonada saqlanadi. Issiqxonalarda gul ko`chatlarini etishtirish manzarali o`simliklar xilini ma`lum

darajada to'ldirish imkonini beradi. Gul ko'chatlarini etishtirishda tuproq haroratini atrof muhit va havo haroratidan 2-3⁰ baland ushlab turish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ko'chatli yashik va sayoz idishchalarni issiq suvli yoki bug'li isitish quvurlari ustiga qo'yish tavsiya qilinadi. Ko'chatlar paydo bo'lganidan keyin yashik yorug' joylarga o'tkaziladi, lekin tikka quyosh narlardan o'simlikni saqlash kerak. Xona haroratini 2-3⁰ ga pasaytiriladi. Issiq kunlar kelishi bilan ko'chatli yashiklar shamollatib turiladigan issiq yoki issiqroq xonalarga ko'chiriladi.

Ko'chatlarni boshqa joyga ko'chirib o'tqazish (pikirovka) – kuchli o'simliklar olinishini ta'minlovchi muhim agrotexnik usuldir. Ko'chatlar ikki tishli ko'chat ko'chirish vilkasi va qoziqcha yordamida yangi joyga ekiladi. Ildiz qismi yaxshi rivojlanishi uchun ko'pgina o'simlik ildizlari ko'chirib o'tqazishda 1/3 uzunlikka qisqich bilan qisqartiriladi. Ko'chatlar shaxmat tartibida boshqa joyga ko'chat qilinadi, bunda o'simliklar orasidagi masofa keyingi kechikib ekishlar paytida kengayib boradi. Qayta ko'chirib ekish ishlari zichroq va to'yimliroq tuproqlarda amalga oshiriladi. Ko'chatlari ko'chirish soyada va shamol bo'lmaganda amalga oshiriladi. Ko'chatlar yangi joyga ko'chirilgandan so'ng birinchi 2-3 kunda havo harorati urug' ekishdagi harorat singari bo'lishi, keyin esa 2-5⁰ pasaytirilishi kerak. Ko'chatlar etishtirishda tuproq har doim yumshoq bo'lishi, vaqtida sug'orilishi va begona o'tlardan tozalanishi lozim.

Manzarali va gulli o'simliklarni vegetativ ko'paytirish. Manzarali va gulli o'simliklarni vegetativ ko'paytirish turlari va tabiiy vegetativ ko'paytirish. Manzarali bog'dorchilikda o'simliklarni vegetativ ko'paytirish usullari boshqa o'simlikshunoslik sohalariga qaraganda ko'proq qo'llaniladi.

Vegetativ ko'paytirishga quyidagilar kiradi:

1. Urug'dan ko'paytirilganda ota–ona xususiyatlarini takrorlamaydigan manzarali o'simliklar. Bu – gladiolus, floks, iris, lola, georgina, nastarin, atirgul va boshqa ko'p yillik o'simliklardir.

2. Urug' tugmaydigan yoki pishgan urug' bermaydigan o'simliklar. Bizning sharoitda esa kaktusning ba'zi turlari, xona yasmini, geran, pankritsium, piyozning manzarali navlari, manjetkalar urug' bog'lamaydi.

3. O`simliklar rivojining boshlang`ich davrini saqlashga intilish (gullashga qadar).

4. Vegetativ ko`paytirish ko`pgina sabablarga ko`ra iqtisodiy jihatdan samaralidir.

5. O`simliklarni vegetativ ko`paytirishga biologik moslashganligi. Vegetativ ko`paytirish tabiiy va sun`iy bo`lishi mumkin.

Tabiiy vegetativ ko`paytirish – quyidagi vegetativ organlar yordamida amalga oshiriladi.

1. Barglar to`pi, “mo`ylovlilar”, buni qulupnay, xlorofitum, saksifraga va boshqalarda kuzatish mumkin.

2. Palaklilar – er bag`irlab o`suvchi oxirida bargli to`plamga ega novdalar.

3. Ildiz poya – er osti o`q ildiz, ularda uyqudagi kurtaklar mavjuddir (marvaridgul, iris, pion, solidago, shoyigul, bug`doyiq).

4. Bachki ildiz – o`simlik ildizida uyqudagi kurtaklardan hosil bo`luvchi novdalar. Yovvoyi nastarin, xrizantema, olxo`ri, terak, tol, derena, olcha va boshqa o`simliklarni ko`paytirishda keng qo`llaniladi.

5. Piyozechalar. Piyoqli o`simliklar ikki guruhga bo`linadi: doim yashil – krinum , pankratsium va bargi to`kiladigan o`simliklar – liliya, nargiz, lola, krokus va boshqalar. Ikkinchi guruh o`z vaqtida piyozechalarning joylashishiga ko`ra er osti va er usti poyasida, barg qo`ltig`ida joylashgan va bul`bochkalar bilan to`la to`p gul ko`rinishida bo`ladi.

6. Ildiz tuganaklari yoki shakli o`zgargan ildiz – oziq moddalar joylashadigan joy. Ayniqsa bu georginada yaxshi kuzatiladi. Ammo shuni esda tutish kerakki ko`paytirish uchun ildiz tuganagining o`zi yaroqli emas, chunki poyadagi haqiqiy tuganaklar (kartoshka) singari ularda uyqudagi kurtaklar mavjud emas, shuning uchun ham ularni ildiz poyasi bilan birga ajratiladi. Poya tuganaklari esa bo`lak-bo`lak holda ham ko`payadi. Ular chegarali o`suvchi poya tuganaklariga, ya`ni vegetatsiya oxirida o`sishni to`xtatuvchi (kartoshka, topinambur) va o`sishi davom etuvchi poya tuganaklari keyingi vegetatsiya davrlarida ham o`sadi (begoniya, tsiklamen, glaksina)

Tuganak piyozlilar. Tuganak piyozli o`simliklarga gladiolus, montbritstsiya, shafran va boshqalar kiradi. Ular tuganak piyozlarni bo`lish va bolachalari bilan ko`payadi.

Vegetativ ko`paytirishning sun`iy usullari.

I. To`pni bo`lish – ko`paytirishning eng oddiy usullidir. Bu usul bilan odatda ildizpoyali o`simliklar ko`paytiriladi, kuchli to`pli va katta miqdordagi bachkili, ya`ni ildiz yoki ildizpoyadan o`suvchi novdalar (flok, del`finium, speren, yirik gulli moychechak, gelenium, molidago, lyupin, marvaridgul, anemon, ko`p yillik xrizantema, ochiq er primulasi, diklitra, kampanula, atirgul, nastarinning ayrim navlari, chuboshnik, kalina, bul`donej va boshqalar, yopiq er o`simliklaridan esa – aspidistra, asparagus va boshqalar). Kovlab olingan to`p o`tkir bel`kurak, tokqaychi yoki pichoq bilan teng bo`laklarga bo`linadi, bunda har bir ildizda 2-3 tadan novda yoki kurtak bo`lishi kerak. Erta bahorda gullovchi o`simliklarni kuzda bo`lib ekish kerak. Yoz va kuzda gullovchi o`simliklarni kuzda va bahorda bo`lish mumkin.

II. Qalamcha payvand qilish – o`simliklarning ma`lum qismlarini ildiz oltirish yo`li bilan vegetativ ko`paytirish usuli. Qalamchalar poyali, ildizli, bargli bo`lishi mumkin.

1. P o y a q a l a m c h a l a r i. O`z vaqtida ular quyidagi guruhlariga bo`linadi: a) *yog`ochlashgan qalamchalar* (smorodina, terak, spirya, tol, majnuntol) va boshqalar. 15-30 sm. uzunlikdagi pishgan qalamchalar kuz yoki bahorda tayyorlanadi. Ulardan 60-70<sup>0</sup> burchak ostida 1-2 kurtakni er ustida qoldirib ekiladi, bunda qalamchanning ildiz otayotgan qismiga ko`proq havo tegib turishi kerak. Ekilgan qalamchalarni, albatta, sug`orish va nam saqlashni ta`minlash (mulchalash) kerak. Yog`ochlashgan qalamchalarning ildiz otishi hamma o`simliklarda ham bo`lavermaydi va bunday hollarda yarim yog`ochlashgan qalamchalar ishlatiladi.

b) *yarim yog`ochlashgan qalamchala.* Ular bargli va hali po`sti to`liq pishmagan bo`ladi. Bunday qalamchalar bilan xona yasmini, chubushnik, atirgul, nastarin, fuksiya va boshqalar ko`paytiriladi. Ekish uchun 2-3 ta ko`zli qalamchalar

qo'llaniladi, ularning uzunligi esa turlicha bo'lishi mumkin (tugunchaklar orasidagi uzunlikka ko'ra). Xona sharoitida xonaki yasmin 40-50 kundan so'ng ildiz otadi.

v) *yashil qalamchalar, ya'ni pishmagan va bargli o'sayotgan novdalar.* Oynavon issiq binoda yashil qalamchalar bilan ko'paytirish erta bahordan boshlanadi va yoz o'rtalarigacha davom ettiriladi; ochiq erda bu ko'paytirish usuli yosh novdalar paydo bo'lishi bilan qo'llaniladi.

Turli o'simliklar qalamchalarining ildiz otish muddatlari turlicha. Al'ternantera, geran, chinnigul, irezine, geliotrop, koleus, lyurin, del'finium, gulxayri, sedum, floks, ko'pgina xona o'simliklari – tradeskantsiya, fikus, oleandra, aukuba, ligustrum, xrizantema, fuksiya, ochiq erning yog'chli o'simliklardan esa – terak, tollarning qalamchalari uez ildiz otadi (6-8 kunda). Chiroyli gullovchi butalar – atirgul, nastarin, chubushnik, kalina, bul'donej – 20-24 kunda, ko'pgina igna bargli o'simliklar 3-4 oydan keyin va hatto 6 oydan keyin ildiz otadilar. Archa juda sekin ildiz otadi uning qalamchasini qishda issiqxonaga ekib, uni ustuni yopib, yaxshilab isitish kerak. Bahorda o'simlikning bir qismi ildiz otadi.

Qalamcha bilan payvandlash uchun faqat sog'lom, ishlab chiqarish va manzaraviy xususiyatlari tekshirilgan tuplar qo'llaniladi: o'tsimonlarni birdan 3-5 yoshdagisi, daraxtsimonlardagi – 10 yoshgachasi.

Qalamcha bilan payvandlashda tozalikka rioya qilish kerak. Asbob-uskuna, qo'l, idishlar oziqlantiruvchi muhit (substrat)lar va hokazolar bo'lishi zarur. Shu maqsadda, ish boshlashdan oldin yashiklar, kaliyning kuchli eritmasi (qora rangda) bilan dezinfektsiya qilinadi.

Qalamchani tutib ketishiga kesish sifat ham ta'sir qiladi. U juda tekis, silliq bo'lishi kerak. Shuning uchun qalamchalarni o'tkir asbob bilan kesish tavsiya qiladi. Barglari ketma-ket joylashgan o'simliklarda tuganak tagidan novda o'qiga kichik burchak ($50-70^0$) ostidan kesiladi, barglari bir-biriga qarama-qarshi joylashgan o'simliklarda esa tuganak tagidan novda o'qiga perpendikulyar qilib kesiladi. Yuqori kesimi esa kurtak tagidan olinadi.

2. Ildizli va ildiz poyali qalamchalar – bilan ko`pgina ildiz poyali o`simliklarni ko`paytirish mumkin. Shu maqsadda ildizpoya yoki ildizlarni 5-8 sm uzunlikdagi bo`laklarga bo`lib, oldindan tayorlangan tagiga qum sepilgan egatlarga qadaladi. Taxminan gorizantal qalamchalar ustidan qum va tuproq 2-3 sm qalinlikda solinadi. Ildizli va bachki idizli qalamchalar bilan quyidagi o`simliklar ko`payadi dratsena, floks, pilargoniya, diklitra, xmel, pion va boshqalar.

3. Bargli qalamchalar yoki barglar bilan o`sadigan o`simliklar. Begoniya, reks, exeverya, sansev`era, fikus, o`zanbar binafshasi, glaksina, fillo kaktus, liliyaning ayrim turlari va boshqa o`simliklar barglari bilan ko`payadi. Sansev`era, zebrinaning barglari 6-8 sm uzunlikdagi bo`laklarga bo`lib, 1/3 qismi tuproqqa ko`miladi bir necha oydan so`ng qalamchalar ildiz otadi. Qalin bargli o`simlik qalamchalarni usti yopilmaydi chunki ularda bug`lanish katta emas. Senpoliya barg bilan yaxshi ko`payadi, maksimal uzun bandli barg suvga solinadi. Ildiz bandning oxirida hosil bo`ladi, keyin shu erda yangi o`simlik novdasi rivojlanadi, ajratib ekish bandli bargni esa qaytadan ildiz otishga qo`yish mumkin. Glaktsinani ham ana shunday ko`paytirish mumkin.

**Manzarali va gulli o`simliklarni payvand qilish usullari** – bu bir o`simlik qismini boshqa o`simlikka o`tkazish va ularning bir bo`lib ketishi, bunda payvand qilinayotgan o`simlikning nav xususiyatlari saqlanishi ta`minlanadi. Payvand bilan atirgul, nastarin azaliya, zangori qarag`ay ko`paytiriladi. Payvandlashning jo`da ko`p usullari mavjud. Ularni tanlash quyidagilardan aniqlanadi: a) o`simlikning nav xususiyatlari bo`yicha; b) payvandlash muddati, payvandtag va payvand holati bo`yicha; v) payvand va payvandtag diametrlarining mos kelishi bo`yicha.

Payvandlash vaqti bo`yicha ikki davrni ajratish mumkin. Birinchi davr- shira harakati boshlanguncha, ya`ni po`stloq qatlamlari yog`ochdan ajralmaganda. Bu davrda payvandlashning po`stloqni ajratish bilan bog`liq usullari qo`llaniladi: po`stloqni ajratish, kurtak payvand, ko`prik qo`yish va boshqalar.

Oddiy kurtak payvand- nastarin, atirgul va boshqa ayrim manzarali o`simliklarning nav ko`chatlarini olish uchun keng qo`llaniladi. Kurtak payvandning boshqa payvand usullaridan asosiy ustunliklari quyidagilar.

- a) ko`pgina o`simliklarda yaxshi tutadi;
- b) qo`lay sharoit va bajarishning to`g`ri texnologiyasida tutib ketishi yuqori;
- v) texnik jihatdan oson bajariladi;
- g) kam mehnat sarfi evaziga yuqori samara beradi;
- d) kam miqdorda qalamchalar talab qilinadi;
- e) ko`pincha payvandtag va payvandustning birikib ketishi mukammaldir.
- j) payvandtagdagi kesilgan joy sezilarli bo`lmay, tezda bitadi.

Yaxshilangan yoki tilchali qalamcha payvand – qalamcha payvandning eng yaxshi usullaridan biri, ammo uni qo`llash chegaralangandir, chunki bu payvand payvandtag va payvandustning teng diametrlarida yoki uncha farqi bo`lmaganda mumkindir. Bu usulning afzalliklari quyidagilardir:

- tez va mukammal birlashib ketishi;
- ochiq yaraning yo`qligi;
- bajarishning nisbatan oddiy va osonligi.

Tilchali qundoqli payvand. Bu usulni payvand va payvandtag diametrlarining nisbatan kichik farqida qo`llash mumkin. Payvandtagda kerakli balandlikdan yuqorisidagi barcha o`simlik qismi kesib tashlanadi. Kesim payvantag o`qiga perpendikulyar holda yoki qalamcha payvandlanayotgan bo`ljak joydan ozgina orqaga qiyalab kesiladi. Hosil bo`lgan to`nkachada diogonal bo`yicha emas balki shoxning vertikal o`qiga nisbatan qiyaroq bo`ylama kesim tayyorlanadi. Payvand va payvandtag diametrlarida farq qancha katta bo`lsa, payvandtagdagi bo`ylama kesim qiyalik sirtini shuncha kichik qilish kerak. Payvandtagdagi kesim tengligi po`stloqning ichki qismida qalamcha kesimi kengligiga mos bo`lishi lozim, bu erda kambiy qatlamlari mavjuddir.

Manzarali va gulli o`simliklarni parxish qilib ko`paytirish - ona o`simlikda rivojlangan novdalarning ildiz otishi bo`lib uning quyidagi turlari bor.

1. Gorizontal parxish. Chuqur bo'lmagan jo'yaklarga yosh shoxlar joylashtiriladi ular qadab quyiladi va novdalarning o'sish sur'atiga ko'ra mavsumda 2-4 marta chopiladi, bo'yiga kesish yoki shoxlar asosi yaqinidan 2-4 o'ram mis sim bilan tortib qo'yish yaxshi natija beradi. Bu usul bilan atirgul, gortenziya, chubushnik, natarinni ko'paytirish mumkin.

2. Yoysimon parxish – oldindan qadalgan novda qismini vaqtincha ko'mil ko'yiladi.

3. Pul'pa – bu tuproqqa ko'milgan qism yuqorisidan yangi o'simlik hosil bo'lishidir.

4. Havodagi parxish – bu usul bilan yukka, fikus, yasimn, araliya, aroniya, rododendron, dratsenna, yuz yillik exeveriya va boshqalar ko'paytiriladi. Bu usul o'simlik juda o'sib ketib uning balandligini qisqartirish zarur bo'lib qolgan hollarda ishlatiladi. Ildiz otishi mumkin bo'lgan joylardagi barglar olib tashlanadi.

5. Chopmoq – uni terak, lipa va boshqa o'simliklarni ko'paytirishda qo'llaniladi. agar yosh daraxt kesilsa u holda kuchli rivojlangan tunka novdalari hosil bo'ladi. Novdalar 8-10 sm etganda, birinchi chlpiq o'tkaziladi. Ikkinchi chopiq novdalar uzunligi 15-18 sm, bo'lganda bajariladi. Uchinchi chopiq 45-50 smli novdalarda amalga oshiriladi. Sentyabr oxirlarida tuproqni ochib, ildiz otgan novdalar kesib olinadi va ularni ko'chatxona yoki doimiy joyga ekiladi.

2.3. Manzarali va gulli o'simliklarni ochiq va yopiq erlarda o'stirish agrotexnikasi

a) Gulli va manzarali o'simliklarni ochiq erlarda o'stirish agrotexnikasi

Bir mavsum davomida o'zining manzaraviy qiymatga ega bo'luvchi, pishgan urug'lar beruvchi va o'suvchi o'simliklar bir yilliklar deyiladi. O'zining biologik xususiyatlari bo'yicha ular faqatgina bir yillik (klarkiya, kalendula va boshqalar) emas, balki ko'p yillik ham bo'lishi mumkin (xushbo'y tamaki, sher og'zi va boshqalar). Ayrim hollarda bir yillik sifatida ikki yilliklar ham qo'llaniladi, masalan, yanvar, fevral oylarida ekilgan viola. O'simlikning rangi, gulining va tupining shakli, gullash davomiyligining xilma-xilligi, uning

rivojlanishi, ko`chirib o`tzazishning turli davrlarida yaxshi tutib ketishi va hokazolar tufayli bir yilliklar gulchilikda asosiy o`rinlardan birini egallaydi. Bir yilliklar guruhiga ko`p yillik guldonlarda qo`llanuvchi gilamli o`simliklar ham kiradi, ularning ona tuplari oynavon issiq binoda qishlaydi va har yili vegetativ ko`payadi. Ularga al`ternantera, geliotrop, geran, irezine, kleyniya, santolina va boshqalar kiradi.

Shunday qilib, bir yilliklar guruhiga tashqi ko`rinishi turlicha o`simliklarga emas, balki biologik xususiyati va tashqi muhit sharoitlariga munosabati turlicha o`simliklar ham kiradi. Bir yillik botanik belgilariga ko`ra turli oilalarga bo`linadi. Ko`pgina bir yilliklarning, boshqa guruh o`simliklari singari, eng qimmatbaho xususiyati – gullarining seryaproqligidir. Bir yilliklar balandligining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Balandligi 1 m bo`lgan o`simliklardan (kosmeya va kanakunjut), bo`yi uncha katta bo`lmagan, er ustida salgina ko`tarilib turadigan o`simliklargacha portulak, lobeliya va boshqalar bo`ladi. Qoidaga ko`ra tog`lik va shimoliy tumanlarning o`simliklari, janubiy vodiylar o`simliklaridan ancha past o`sadi.

Mamlakatimizning o`rta zonasida turli maddatlarda ochiq erlar allisum, bog`loviyasi, vasilik, akroklinalim, gipsafilu, goditssiya, xushbo`y nuxat, dil`finum, demorfotik, ibiris, kalendula, koreopsis, klarkiya, kosmiya, koxiya, lyupin, ko`knori, nasturtsiya, gulibeor, rezeda, xrezantema, esholtsiya va boshqa bir yilliklarni ekish. Ko`chatlar etishtirishda bir yilliklilar vegetatsiya muddatlarining turlicha ekilganligini hisobga olib ularni ekish turli vaqtlarda shunday amalga oshiriladiki yozgi mavsum boshida o`simliklar gullashga tayyorlangan bo`lishi kerak. Hamisha gullovchi begoniya, shabbo chinniguli, verbena, lobiliya, popukli petuniya, maritim, tsenirariya va boshqalar ekilganida to`g`ullashni boshlagunicha uzoq muddatda (130-180 kungacha) ega. Shunga ko`ra ularni yanvar yoki fevraldan ekish kerak.

Ko`pgina o`simliklar ochiq erdagi engil qumoq tuproqlarni afzal ko`radi. Duxobagul, bal`zamin, begoniya, sal`viya, ipomiya, nastursiyalar juda issiqsevar va salgina sovuqqa ham chidamsizdir. Adonis, qo`qongul, alissum, antirrinum,

godetsiya, chinnigul, del`finium, xushbo`y no`xat, kalendula, levkoy, ko`knori, rezeda, eshshol`tsiya esa aksincha, sovuqqa chidamlidir.

Manzarali bog`dorchilik va gulchilikda gullar va manzarali daraxtlarning tuproqqa bo`lgan talab va ehtiyojlari juda murakkab. Bunday tuproqlarni tayyorlash uchun biz yaxshi maysazor erlarning ustki qavatida nozik qilib, chim qirqib olib u erga to`kilgan yaproqlarni aralashtirib ular orasiga ko`k o`tlar chirindilardan solib, ularni har zamonda aralashtirib turiladi natijada o`simlik uchun zarur bo`lgan omixta tuproq hosil bo`ladi.

Erning ustki unumdor qatlamidan tuproq tayyorlash – biz bu tuproqni tayyorlash uchun qo`y qo`tanlari bo`lgan erlardan, maysazorlardan, o`t zich o`sgan erlardan kuzda to`kilgan yaproqlar to`kilgan yig`indisidan yig`ib olib, eni 1-1,5 m, uzunligi istalgan o`lchovdagi o`ralarda chiritiladi. Imkoniyati boricha unga turli xil go`nglardan qo`shib, suv solib suyultirilgan go`nglarni sharbat tariqasida uning ustidan qo`yib yil davomida 2-3 marta yaxshilab ag`darilgandan so`ngra tayyor chirindi hosil bo`ladi.

Chirindilardan tayyorlangan tuproqlar – bu tuproqlar O`zbekiston sharoitida asosan issiqxona qoldiqlaridan olinadi. Buning uchun kuz paytida paxta va paxta zavodlaridan, varaqadan chiqqan chiqindilar go`nglar bilan aralashtirib, baland-baland uyumlar shaklida to`planadi. So`ngra esa unga yaxshilab suv sepiladi. 3-4 kun o`tgach, uning ichki tomoni qiziy boshlaydi va undan biologik isitkichlar hosil qilinib issiqxona chuqurlariga to`shaladi. Ikkinchi yili esa u qazib olinib, maxsus g`alvirlar yordamida elanadi. Bulardan tuvaklarga solish yoki parniklarga ekilgan urug`larni ustiga yopqich sifatida foydalanish mumkin. Bu chirindilar gulxona tuprog`iga aralashtirilsa er nihoyatda yumshaydi va boyiydi. Bu shubhasiz o`simlik uchun juda foydalidir.

Yaproqlardan tayyorlangan chirindi – kuz faslida gul xonalarga yaqin erlardan eni bir 1,5-2 m, chuqurligi 1-1,5 m uzunligi istalgancha chuqur qazib, daraxtlardan to`kilgan yaproqlar turli tuman keraksiz xas-xashaklar yig`ilib ozroq go`ng aralashmasi bilan shu chuqurlar to`ldiriladi va ustki tomoniga yupqa qilib tuproq baliq sirti shaklida tortiladi va imkoni boricha imkoni boricha shakarob

sepiladi. Bu omixtani qish o'tishi bilanoq 1-2 marta aralashtirish talab etiladi. So'ng yaproq chirindisi hosil bo'ladi, bunday chirindilardan gulchilikda foydalanilsa yaxshi natija beradi.

Manzarali daraxt ko'chatlarini va gul urug'larini ekish. Manzarali bog'dorchilikda bir yillik gullar urug'idan ekiladi. Ekish uchun uchta mavsum qo'llaniladi: kuz, qish va bahor. Kuzgi ekish uchun tuproq, baxorgi ekish singari tayyorlanadi. Ko'chatlarni ko'chirib o'tqazishda ham xuddi shunday tortib qo'llaniladi. Urug'lar oktyabr oxiri-noyabr boshlarida shunday hisob bilan ekiladiki, ular sovuq tushguncha unib chiqmasin. Ularni oldindan tayyorlangan 1-3 sm chuqur jo'yaklarga ekiladi va tayyorlangan mul'cha organik material bilan yopiladi. Ochiq erga ekishda urug'lar sarfi ko'chat etishtirishdan uch barobar ko'pdir. Qishda gul qor qatlami 15-20 sm bo'lganda, dekabr-yanvar oylarida ekiladi. Uchaska kuzda yaxshilab tayyorlanadi mo'l'challash materiali muzlamaydigan binolarda saqlanadi. Urug'lar qo'lda ekiladi, bir vaqtning o'zida mo'l'cha ham solinadi. Qishda mo'l'challangan erlar bahorda tez eriydi va ko'pincha bu erlarda yog'ingarchilik suvlari bilan urug'lar yuvilishi hosil bo'lmaydi. Bahorgi ekish er etilishi bilan amalga oshiriladi. er maydoni kuzda tayyorlanadi. Bahorda boronalash yoki boronalashli haydash amalga oshirilganidan so'ng urug'lar ekiladi. Ochiq erga ekilgan o'simliklar ko'chatlar bilan etishtirilgan o'simliklar bilan ancha kech gullasa ham sog'lomroq o'sadi.

Urug'ni ekish chuqurligi – urug'lar asosan uch usulda, qatorlab, sochma va uyalab ekiladi. Urug'larni ekishda albatta kata-kichikligiga, urug' po'stining yupqa-qalinligiga va ekish vaqtiga e'tibor berish lozim. Mayda va nihoyatda mayda urug'larni issiqxona chuqurlari yoki yashiklarga ekayotganda urug'larni sepib ustidan lineyka yoki taxtachalar yordmida sekin bosib ko'yish lozim. O'rtacha va katta hajmdagi urug'lar sepilganda esa urug'ga nisbatan ikki barobar qalinlikda ustidan nuri yoki qum sepiladi. Ammo urug' 0,5 smdan chuqur tushmasligiga e'tibor berish lozim. Erta bahorda ekiladigan urug'lar yozgi yoki kuzgi ekiladigan urug'larga nisbatan sayozroq ekiladi. 1m² er maydoniga issiqxonalarga ekiladigan bo'lsa mayda urug'lardan 2-3 g, katta urug'lardan esa 7-

10 g dan 15 g gacha ekiladi. Yashiklarga ekiladigan bo`lsa, yashiklarni hajmi 30X60 sm bo`lsa mayda urug`lardan ajriqgul (portulaca), petunya (petunia), ajdargul (antirrhinum), tamaki (nicotiana), 0,3 g dan 0,5 g gacha, katta urug`lilardan esa tsinniya, astra (aster), o`lmaso`t (helechrusum)larni 1-2 g gacha ekish mumkin.

Ochiq erlarda ekiladigan gullar mart oyining oxiri aprel oyining boshlarida klarkiya, hidli no`xat, rezida, tirnoqgul, ko`knorgul ekiladi. Bir yillik gullar urug`ini O`zbekiston sharoitida kuzda ekish ham mumkin ya`ni noyabr oyining o`rtalarida unib chiqmaslik sharti bilan ekilib, ekilgandag so`ng ustki tomoni yaxshi yopilsa ochiq erda qishlatish mumkin. Erta bahorda esa urug`lar bir tekis unib chiqadi. Kuzda ekilayotgan urug`lar miqdori bahorgiga nisbatan ikki barobar ko`proq ekiladi va ustki qismi 2-3 sm qalindikda chirindi bilan qoplanadi bu vaqtda floks, rezeda, lyupin, gaylardiya, hidli tamaki, kartoshka gul, xrezantema, klarkiya va shunga o`xshaganlarni ekish mumkin.

***Gulli va manzarali daraxtlarni sug`orish*** – suv urug`ning unib chiqishi uchun eng zaruriy omillaridan bo`lib, uning ko`pchilik qismi o`simlikning bargi orqali bug`lanib ketadi. Suv tuproqdagi mineral moddalarni eritib, o`simlik qabul qiladigan darajaga keltiradi va butun tanani oziq moddalar bilan ta`min etadi. O`tqazilgan yosh daraxt, buta, ko`kat devor o`simliklari, o`tchil o`simliklar doimo sug`orib turishni talab etadi. O`sish davrida bu o`simliklar 6-8 marta 1m² da 100-150 g miqdorda suv qo`yib sug`oriladi. O`sish sharoiti og`ir bo`lgan ya`ni asfal`tlangan yo`lcha bilan ichi tsimentlangan ariq o`rtasida qolgan ko`cha daraxtlari suvli ariqlarga qanchalik yaqin bo`lishidan qat`iy nazar daraxt tanasi tevarigida alohida qazilgan ariqlardan har yozda kamida 6-8 marta sug`oriladi. Har galgi sug`orish oldindan daraxt tevaragidgi aylana ariq tiklanib suv bilan to`ldiriladi. Bu suv singib ketgach ariq yana bekitilib ustiga quruq tuproq yoki qipiq sochib qo`yiladi. Shunday qilinganda daraxt tagi tez qurib kechmaydi. Yangi o`tqazilgan yosh daraxt, buta o`simligi va ko`kat devor o`simliklari etarli darajada sug`orib turganda juda tez o`sib ketadi. Yoz davomida daraxt yaproqlari chang bilan qalin qoplanib xiralashib qoladi. Shuning uchun uning ustiga sun`iy ravishda

yomg'ir yog'dirish kerak bu ish o'simlikni yashil rangini qaytaribgina qolmay balki uning umrini uzaytiradi. Gulli o'simliklarni sug'orishda iloji boricha kechqurun suv qo'yish lozim. Juda ham bostirib suv qo'yish yaramaydi 10-15 sm chuqurlikkacha sug'orish etarli hisoblanadi. Suv qo'yilgandan so'ng yoki yog'ingarchilik bo'lgandan so'ng chopiq qilib chiqish ya'ni o'simlik atrofini yumshatish talab qilinadi. Bu nafaqat nam qaytarib turish uchun balki bunda o'simlik ildizlari yaxshi nafas oladi.

Gulli va manzarali o'simliklarni oziqlantirish.

erda o'simlik uchun bo'lgan oziq moddalar organik aralashmalar va mineral tuzlar aralashmasi holida uchraydi. O'simlik normal hayoti o'sishi uchun esa tuproqda azot, fosfor, kaliy va boshqa elementlar etarli bo'lishi zarur.

Suv urug'ning unib chiqish uchun eng zarur omillardan biri bo'lib, uning ko'pchilik qismi o'simlikning yaproqlari orqali bug'lanib ketadi.

Suv tuproqdagi mineral tuzlar va boshqa moddalarni eritib, o'simlik qabul qiladigan darajaga keltiradi va butun tanani oziq moddalar bilan ta'min etadi.

O'g'itlar asosan ikki qismga bo'linadi, ya'ni organik va mineral o'g'itlar. Organik o'g'itlarga turli tuman chirindilar, go'ng, go'ng sharbati, qon uni, turli kompostlar, parranda go'ngi va boshqalar kiradi.

Go'ng o'zida o'simlik uchun zaruriy oziq moddalarni saqlaydi, ya'ni azot, fosfor, kaliy, temir, magniy va boshqalardir. Bulardan tashqari mikroorganizmlarga ham boydir. Tuproqning fizik tarkibini har doim yaxshilab turadi.

Go'nglar asosan kuzgi shudgor davrida berilib, 20-30 sm chuqurlikda ag'dariladi. Har bir gektariga bir yillik gullar uchun 40-50 tonna, ko'p yillik uchun 60-70 tonna hisobida go'ng beriladi.

Bu tavsiya qilingan normallarni tuproqning tarkibiga qarab ko'paytirish yoki kamaytirish mumkin. Ammo serunum boy tuproqlarga ko'p go'ng berish ham ko'k massasini ko'paytirib, o'simliklarni ko'p gullashdan to'xtatish mumkin.

Ilongul va barcha piyoz ildizli gullar astra, levkoy ekiladigan erlarga chiritilmagan go'ng berish talabga muvofiq emas, u turli kasalliklarga olib kelishi

mumkin. Bahorda gul ekiladigan erlarga chiritilgan (kuydirilgan) go`nglarni berish talab etiladi (30-35 tonna gektar hisobiga). Odam ahlatini ham kompost hisobida berish yaxshi natija beradi. Qushlar go`ngi eng kuchli organik o`g`itlardan biri hisoblanadi.

Asosiy mineral o`g`itlar – asosiy mineral o`g`itlar fosfor, azot, kaliydir. Azotli o`g`itlarda ammiak selitrasi, sul`fat ammoniy, natriyli va kaliyli selitra kabilar erga ko`proq solinganda o`simlik tez o`sadi. Bundan tashqari uni qo`shimcha ozuqa sifatida ham berish mumkin. Ammiak selitrasini berish normalari 1 ga erga 200-300 kg.

Kaliyli selitra – hamma turdagi gullar va barcha o`simliklarga qo`shimcha ozuqa sifatida berish mumkin. Suvda tez eriydi. Buni ham har bir gektar er hisobiga 200-300 kg dan oshirmaslik lozim.

Fosforli o`g`itlar – gullar uchun eng yaxshi fosforit uni va super fosfordir. Superfosfat tuproqqa tezda aralashib, oriqlar uchun katta ahamiyatga egadir va uni barcha turdagi tuproqlarga bersa bo`ladi. (imkoniyati boricha ammiakli selitra bilan aralashtirib berilganda maqsadga muvofiq bo`lardi). Bu 1 gektar erga 450-500 kg hisobida berilishi mumkin.

Donador superfosfat mayin superfosfatga nisbatan sekin eruvchan bo`lib, o`simlik uchun katta ahamiyatga egadir.

Imkoniyati boricha har bir qatorga, ya`ni har bir o`simlik ildizi bo`g`ziga alohida berilsa, shuncha yaxshi bo`ladi. Bundan har bir m² ga 30-40 gramm berish kifoya.

Fosfarit uni – suvda yaxshi eriydi. Ammo erga berilgandan so`ng tuproq va ildizlarning hamda mikroorganizmlarning ta`siri natijasida asta-sekin eriydi va o`simlik o`ziga kerak bo`lgan miqdorni oladi. Bu bir necha yilga ta`sir etishi mumkin. Fosfarit unini iloji boricha erga kuzgi shudgor paytida har bir m² ga 80-100 gramm hisobidan berilsa yaxshi bo`ladi. Ammo o`simlik uchun qo`shimcha oziqa sifatida berish yaramaydi.

Kaliy o`g`itlari – sul`fat kaliy va xlorli kaliylar gulchilikda ishlatiladi. Sul`fat kaliy tarkibida xlor bo`lmaganligi tufayli hamma gullarga berish mumkin.

Ularni qatorlarga qo'shimcha ozuqa sifatida ham berish mumkin. Bu mineral o'g'itni 1 m² erga 15-20 grammdan berish kifoyadir.

Xlorli kaliy- xlorli kaliyning tarkibida xlor bo'lmaganligi sababli uni kuzda erlarni shudgor qilish paytida berilsa qishning qor yomg'irlari natijasida xlor yuvilib ketadi. Yoki erta bahorda namgarchilik ko'p bo'lgan vaqtda berish mumkin. Bunda har bir m² erga 20-25 gramm berish mumkin.

Gulchilikda eng yaxshi aralashma va qo'shimcha ozuqa sifatida organik o'g'itlar oralashmasidan foydalanilsa yaxshi natija beradi: Ya'ni chirindi 20 kg, er ustki qismidan olingan kuchli tuproq 20 kg, yaproqdan tayyorlangan tuproq chirindisi 2 kg, suyak uni 5 kg, qora qum 5 kg, superfosfat 10 kg, yog'och kuli 5-6 kg. Bularning hammasini aralashtirib, har bir chuqurchaga shu aralashmadan 100 grammdan tortib 1 kg gacha berilsa, o'simlik uchun juda yaxshi bo'ladi.

Gulli va manzarali o'simliklarni yopiq (oranjeriya) erlarda o'stirish texnologiyasi.

Gulchilik xo'jaliklarini mahsulot sotish manzillariga – yirik aholi punktlari, ko'kalamzorlashtirish ob'ektlari va hokazolarga yaqin joylashtirish tavsiya qilinadi. Ayrim hollarda gulchilik xo'jaliklari yopiq erni isitish uchun qo'llaniladigan qayta ishlangan issiq suv mavjud bo'lgan tumanlarda joylashadi. Bunday hollarda ularni temir yo'l yoki avtomobil yo'llariga yaqin joylashtirish yoki xo'jalik loyihasiga, beton yoki asfal't yo'llar qurishni kiritish kerak.

Ishlab chiqarish maydonlarini janubiy mintaqalarga joylashtirish zarur. Chunki bunda o'simliklar vegetatsiyasi va gullashi ertaroq boshlanadi. Buning ahamiyati esa kattadir. Ishlab chiqarish plantatsiyalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Er osti suvlari er sathidan 1,5 m dan pastda bo'lishi, xo'jalik qurilishida esa – 1,75-2 m dan yaqin bo'lmasligi kerak.

2. Gulchilik xo'jaliklariga zovursiz past va soylik tomorqalar ajratilmasligi lozim. Chunki bu erlarga yomg'ir yoki boshqa toshqin suvlar to'planib, sovuq havo oqimi kelishi mumkin.

3. Tuproq – yuqori hosildor, tarkibli, chuqur haydalgan qatlamli (25-30 sm dan kam emas), qumoq yoki qora tuproqli, suv o`tkazuvchan tagzaminli bo`lishi kerak. er maydoni tanlangandan so`ng avvalo tuproq tekshiriladi, uning xaritasi tuziladi va tarkibini yaxshilash bo`yicha agrotexnika tadbirlari tizimi ishlab chiqariladi. Albatta, er maydoni mayda daraxt, buta, to`nka va boshqa axlatlardan tozalanadi, bir xil sathda tekislanadi. Mineral o`g`itlar solingandan so`ng tuproq 30-60 sm gacha chuqurlikda, erni ishlatish yo`nalishi va o`stiriladigan o`simlik turiga ko`ra haydaladi. Bunday chuqur haydash o`simlik rivoji uchun qulay sharoit yaratadi. Zaruriy hollarda tuproqni ohak yoki gips bilan o`g`itlash amalga oshiriladi.

Tomorqa ochiq er o`simliklari va turli yopiq er inshootlari qurish uchun, xo`jalik hovlisi hamda himoya ko`chatlarini ekish va xokazolar uchun ajratiladi. Xo`jalikka elektr uzatuvchi liniyalar va kanalizatsiya uzatiladi. Suvga ehtiyoj kattaligi sababli xo`jalikda vodoprovod, suv ombori yoki nasosli quduq mavjud bo`lishi kerak. Bir vaqtning o`zida esa shamoldan himoya to`siqlari ham o`rnatishi lozim.

Issiqxonalarning shimoliy tarafidan xo`jalik ko`karilishlari – omborlar, kulolchilik binolari, avtosaroylar, idora, turli mollar uchun maydonchalar, quritish inshootlari va hokazolarga er ajratiladi. O`rtacha xo`jalik hovlisi uchun issiqxona (parnik) xo`jalgi umumiy maydoning 20-25 foizi beriladi.

Issiqxonalar janubida 20-30 m uzoqlikda issiqxonalar joylashtiriladi. Ular orasida 10-20 m gacha kenglikda yo`llar rejalashtiriladi. Bu yo`llardan bioo`g`itlar, issiqxona tuproqlari tashiladi. Issiqxonalar orasida kengligi 0,5 dan 1 m gacha yo`lakchalar hosil qilinadi. Qolgan maydon ochiq er uchun ajratiladi.

Yopiq yoki himoyalangan er – bir yillik va boshqa o`simliklar ko`chatlarini etishtirish hamda hamisha yashil va gulli o`simliklarni tez etishtirish uchun moslashtirilgan issiqxonalar, ko`chatzorlardir.

Issiqxonalar - oynali yoki boshqa yorug`lik qoplamali inshootdir. Ular – vegetatsiya davri davomiyligi ochiq er etishtirish uchun noqulay o`simliklarni ko`paytirish va etishtirishga mo`ljallangan.

Qish davridagi issiqlik tartibi bo'yicha issiqxonalar quyidagi turlarga bo'linadi.

a) 14 dan 18⁰ gacha va yuqori – tropik va tez etishtirilishi zarur bo'lgan o'simliklar uchun;

b) o'rtacha issiqlik 9 dan 13⁰ gacha – kamroq issiqsevar o'simliklar uchun ;

v) sovuq 4 dan 8⁰ gacha – alohida hamisha yashil subtropik o'simliklari tuganaklilar, qishki levkoy, gibridli tsenerariy va boshqa o'simliklarni etishtirish uchun.

Issiqxonalar oynali tom uchun tayanch bo'lib xizmat qiluvchi metall, temirbeton va ayrim hollarda yog'och asoslarga egadir. Qoida bo'yicha, tomlar uchun bir qavat oyna ishlatiladi, ikki qavat oyna ayrim hollarda yon devorlar uchun qo'llaniladi. issiqxonalar karkasi metall quvurlar yoki burchakli temirdan yasalgan bo'lsa, eng yaxshi yorug'lik o'tkazuvchi issiqxonalar hisoblanadi. Oynavon tomlar nishabroq qilinadi, bunda yorug'lik yaxshi tushadi va suv oqib ketadi. Qiyalik burchagi – mahaliy kenglikka, issiqxona tuzilishiga va o'simliklarning yorug'likka bo'lgan munosabatiga bog'liq. Oynalar uchun deraza oynalariga ko'ra pishiqroq 1,5 yoki 2 mm qalinlikdagi shaffofligi 95-98 % li oynalar ishlatiladi, angar tipli issiqxonalar uchun shaffofligi kamroq taram-taram oynalar qo'llaniladi. Issiqxonalar uchun eng qimmatbaho oynalar – ul'trabinafsha nurlari o'tkazuvchi ul'viola oynalaridir.

Oynavon issiq bino qurilmasiga ko'ra bir nishabli, bir yarim nishabli, ikki nishabli, ko'p nishabli, angar va boshqalarga bo'linadi.

Bir nishabli issiqxonalar – janubga qaragan qiyaligi 25-45⁰ gacha burchakli issiqxonalar hozirgi vaqtda deyarli ishlatilmaydi. Bir yarim nishabli issiqxonalar bir nishabli issiqxonalarga o'xshaydi, ammo ikkinchi yarim nishab shimol tarafga yuzlangandir. Ular o'zining ishlab chiqarish xususiyatini ham yo'qotadilar.

Ikki nishabli issiqxonalar eng ko'p tarqalgan. Ularni janubdan shimolga qarab, ammo sharqqa kichik (8-15⁰) og'ish burchagi bilan quriladi, ya'ni ularning nishablari asosan sharq va g'arbga qaragandir.

Ko`p nishabli yoki blokli issiqxonalar – birlashtirilgan ikki nishabli issiqxonalardir. Ular oynali (yoki plyonkali) bo`lib, nishablar yo`nalishi g`arb va sharqqa qaragan bo`ladi. Ichki devorlar ustunlarga almashtirilgan.

Ko`p nishabli issiqxonalarda o`simliklar asosan erda, ayrim hollarda esa tokchalarda etishtiriladi.

Agar tusli issiqxonalar – balandigi 5-7 m li ichki oraliq tayanchlarni yorug` inshootlardir. Ularning metall karkasi quvurlardan ishlangan. Bu quvurlar alohida holarda isitish uchun ham qo`llaniladi. ularda o`simliklar erda etishtiriladi, bu esa tuproqni qayta ishlash va o`simlikni prvarish qilishni mexanizatiyalashtirishga yo`l beradi. Issiqxonalar juda baland bo`lganligi uchun ko`p yoqilg`i talab etiladi, shuning uchun ular baland, hamisha yashil o`simliklar: pal`ma, ignabargli o`simliklar, lavrlar va boshqalarni etishtirish uchun qo`llaniladi. ayrim hollarda atirgul, chinnigul va boshqa o`simliklar ham etishtiriladi.

Tokchalar – issiqxonada uzunasiga joylashtirilgan bo`ladi. O`simliklar tuvaklarda, yashiklarda yoki urug` sepilgan erda etishtiriladi. Tokchalar balandligi 0,8-1 m, o`rtacha kengligi 2-2,25 m, yonlama kengligi 0,8-1,25 m bo`lishi tavsiya qilinadi. Tokchalar orasidagi kengliklar: yonlama – 0,7-0,8 m, -0,8 –1 m. Tokchalar metal ustunlardagi taxtalardan tayyorlanadi. Ular “issiq” deyiladi, chunki bunda o`simliklr yaxshi o`sadi. 2-3 yildan so`ng bunday tokchalar yaroqsiz bo`lib qoladi va ularni yangilarga almashtirilishi kerak.

O s m a t o k c h a l a r o`tish joylarida o`rnatiladi, bu bilan asosiy tokchalardagi o`simliklarga soya tashlanmaydi. Yorug`sevar o`simliklarning ko`chatlari yashik va tuvaklarda etishtiriladi. Bu tokchalarni yaxshisi taram-taram oynadan qo`rgan afzal. Tokchalar tagidagi maydon bog` tuprog`ini, tuvaklarni, shoyigul, kartoshkagul ildizlarini qishda saqlash uchun ishlatiladi.

erli (tokchalarsiz) issiqxonalar ko`p yillik o`simliklarni (chinnigul, atirgul) kesib etishtirish uchun qo`llaniladi. ularda 50-70 sm chuqurlikda havza qazilib, tubi ariq tarafiga qiya qilib qo`yiladi. So`ngra unga drenaj qatlami 10-15 sm qalinlikda somonli loy yoki mayda shag`al solinadi, keyin hosildor tuproq solinadi. Kerakli haroratni hosil qilish uchun suvli yoki bug`li markaziy isitish tarmog`i

ishlatiladi, bundan tashqari issiqxona va ko`chatzorlarda biologik isitish usullari ham qo`llaniladi.

*I s s i q x o n a (p a r n i k) x o ` j a l i k l a r i.* Issiqxonalar – bu mamlakatning o`rta mintaqasida mart oyidan noyabrgacha ishlatiladigan nisbatan arzon, chuqurlashtirilgan yopiq erli, oddiy inshootdir. Ular bir yillik ko`chatlarni etishtirish, chiniqtirish, payvandlash va mavsumiy gullovchi o`simliklarni yozda saqlash, issiqsevar o`simliklarni erto`lalarga olinguncha sovuq urdirmasdan asrash hamda tez etishtirish uchun tayyorlangan, nastarin, atirgul va piyozli o`simliklarni qishda saqlashga mo`ljallangan.

Issiqxonalar quyidagicha bo`ladi:

1. Tuzilishi bo`yicha bir nishabli – janubga qaragan va ikki nishabli – sharq va g`arbga qaragan, chuqurlashtirilgan yoki erli;
2. Qo`llanish tavsifi bo`yicha doimiy va vaqtinchalik (ya`ni ko`chiriluvchi);
3. Bioyoqilg`i va texnik isitiladigan;
4. Tayyorlangan materiali bo`yicha yog`ochsimon va temirbeton (toshli).

Bunda oxirgisi birinchisiga qaraganda ancha sovuq bo`ladi.

Gulchilikda ko`pincha yarim issiq va sovuq parniklar qo`llaniladi, chuqurlar, albatta, qiya qilib kavlanadi: pastda uning kengligi o`rtacha 1,2 m bo`lsa, yuqorisiga qarab 1,6 m gacha kengayadi. vaqtincha yoki ko`chiriluvchan (erdagi) issiqxonalar tuproq ustiga ya`ni chuqurlarsiz, biroz janubga qiya qilib o`rnatiladi. Bu holda bioyoqilg`i yuzaroq chuqurchaga joylanadi va tuproq bilan ko`miladi. Yuqorisi esa 2-3 ta romlarga taxtalardan ustunchalar o`rnatilib yopiladi.

Gulchilik xo`jaliklarida bir va ko`p yillik o`simliklarning kechki ko`chatlarini etishtirish uchun ko`chatzorlardan keng foydalaniladi. Ular uchun sovuq shamollardan yaxshi himoyalangan, quruq va quyoshli joy ajratiladi sovuq ko`chatzorlar tuproq ustiga joylashtiriladi, tuproq oldindan kovlanadi. Ko`chatzorlar karkasi burchaklari mahkamlangan taxtalardan tayyorlanadi. Ular issiqxonalardan romlari yo`qligi bilan farqlanadi. Sovuq urish hollarida ko`chatzorlar poxolli yoki qamishli bo`yralar, plyonka va boshqa materiallar bilan yopiladi. Ko`chatlar etishtirish uchun ayrim hollarda issiq jo`yaklar qo`llaniladi,

ular uchun 80-90 sm kenglikda 20-30 sm, chuqurlikda hamda ixtiyoriy uzunlikda chuqur kovlanadi va unga 15-20 sm li issiq go`ng va shuncha tuproq solinadi.

Gul o`simliklari etishtirilayotgan issiqxona yoki ko`chatzorlar harorati ayrim kunlari, ya`ni bioyoqilg`i issiqligi va quyosh energiyasi hisobiga juda yuqori bo`lib ketadi. Bunday hollarda kunduzi issiqxonalarni shamollatish zarur: romlar hamda plyonkalar ko`tarib qo`yiladi.yoki kechgacha umuman olib tashlanadi. O`simliklarning ayrim turlarini etishtirishda yuqori namlik, harorat va yoyiq yorug`lik zarur bo`ladi.

Aholini gullar bilan uzviy ta`minlash uchun sintetik plyonklar ishlatilgan turli inshootlar keng qo`llanilmoqda:

a) isitiladigan va isitilmaydigan plyonkali issiqxonalar, ularning asosiy vazifasi turli o`simliklarning kechki, kuzgi, qishki va erta bahorgi navlari – chinnigul, xrizantema va hokazolarni etishtirish uchun qo`llaniladi;

b) plyonkali texnik yoki quyosh harorati bilan isitiladigan issiqxonalar, ular gul ko`chatlarini, piyozli va boshqa o`simliklarni tez etishtirish uchun qo`llaniladi;

v) tunellar – vaqtincha, turli o`lchamdagi plyonkali ravoqsimon pana joy, ular gul ko`chatlarini erga ekkandan so`ng 1-2 oy himoya qilish, urug`lar ekish, ikki yoki ko`p yillik o`simliklardan ertaki mahsulot olish maqsadida ularni saqlash uchun qo`llaniladi.

Vaqtinchalik foydalaniladigan tunnel` shaklidagi plyonkali yopishlarda ekiladigan gullar.

Qatorlab o`tqazilgan piyozboshli gullardan nargiz, sumbula,lola va boshqalarni, albatta imkoniyati boricha xar birini aloxida-alohida o`tqazish shartdir.Chunki har birining agrotexnik talablari alohida bo`ladi.

Qatorda o`tqazilgan gullarning markaziy qismidan 6-8 sm oralig`ida yog`ochli qoziqlar qoqilib, erdan 60-80 sm balandlikda bo`lishi kerak.Shunga zanglamaydigan simlardan tortib, chetki qoziqlarga bog`lanadi. Har bir qator orasiga 8 mm yo`g`on simdan yoy shaklida yarim aylana qilib erga qoqiladi. Imkoniyati boricha plyonkani zanglatmaslik simlar ranglanishi lozim. Shuning ustki tomonidan uzunasiga plyonkalar tortiladi.Gullar ishlov berish davrida yoki

vaqti-vaqti bilan shamollatish maqsadida ikki tomoni ochilib, plyonkalar vaqtincha yuqori qismiga tashlab qo'yiladi.

Gullarni barvaqt gullatish, ya'ni muddatdan oldin gullatish hamda ular piyozlarini yaxshi saqlash maqsadida shu usul qo'llanilsa talabga muvofiq bo'ladi.

Yana shunga ham e'tibor berish kerakki, ayniqsa nargizlar va lolalar orasida tez gullovchi, o'rta gullovchi va kech gullovchi navlari mavjuddir. Bu holda ularni ajratib har birini alohida-alohida o'tqazish zarurdir. Ammo shunisini ham aytib o'tish kerakki issiqlik harorati yuqori bo'lgan issiqxonalarda lolalar muddatdan oldin gullab, ostidagi piyozlarining sifati buzilib, keyingi yillarda ekish uchun sifatsiz bo'ladi.

Barvaqt gullaydigan nargizlarni plyonkalar ostiga olganda juda yaxshi natija beradi. Kech gullaydigan navlari esa ko'proq issiqlik talab qiladi. Barvaqt gullaydigan nargizlar kech gullaydigan nargizlarga nisbatan 12-15 kun farq qilib, barvaqt gullaydi. Qatorlarda o'tqazilib ustki tomoni yaltiroq plyonkalar yordamida yopilgan bo'lsa, u holda issiqlik harorati qo'shimcha ravishda berilmagan bo'lsa ham 20 kundan 37 kungacha oldin gullashga muvofiq bo'ladi. Bir navga kiruvchi nargizlarni kesib olish muddatlari 67 kungacha davom etishi mumkin. Plyonkalar ostida parvarish qilingan navlarning ochiq erdagilardan farqi shundaki, umumlashtirilgan issiqxonalarda etishtiriladigan gullar muddatidan oldin gullab, nihoyatda yirik va chiroyli gullari bo'ladi, ammo piyozlarini ko'paytirish qiyin bo'ladi. Chunki nihoyatda issiq o'stiruvchi moddalarning ta'siri natijasida tez gullab, piyozlari esa zaiflashib boradi, natijada ikkinchi yili gullamay qoladi. Hamda faqatgina piyozni kattalashtirish uchun harakat qiladi.

Oddiy yorug' plyonkalar bilan yopilgan, qator qilib o'tqazilgan va qo'shimcha issiqlik berilmagan holda 21 kundan 38 kungacha gullashni davom ettiradi va bir navdagi gullarning davomiyligi 55-65 kun davom etadi. Plyonka ostidagi nargizlar ochiq erdagilarga nisbatan 7-12 % ko'proq piyoz bersada sifat jihatdan ochiq erdan olingan piyozlardan farq qiladi. Ya'ni ochiq erdagi piyozlarning unib chiqishi va gullashi kelgusi yilda gullaydi. Plyonka ostida o'stiriladigan quyidagi navlar tavsiya qilinadi: barvaqt gullovchi nargizlardan

Gol`den Xarvis, Match master, Golden Marvel, Forchun, Mel`k endkrem, Karlton, Krakford, o`rta gullaydigan navlardan Magiet, Bikoller, Maunt Xud. Tunis, kech gullaydigan nargiz navlaridan Prezident Lebrum, Birshi va M-S Krelledj, M-S Matrina, Flauer Rekord, Aranji Demonarx, Semper Avante.

***O`stirish texnologiyasi*** – O`zbekiston sharoitida nargiz lolalar oktyabr oyining birinchi yarmida tunnellarda o`tzaziladi. O`tzazishda chuqurligi 10-12 sm qilib o`tzazilsa, 1m<sup>2</sup> erga 50 dona piyoz joylashishi mumkin. Bu piyozlar saralangan birinchi navdagi piyozlar bo`lishi shart agar yuqorida ko`rsatilgan muddatdan kechiktirilib o`tzazilganda gullashlari anchaga kechikib gul sifatleri yaxshi bo`lmaydi. Piyozlar o`tzazilayotgan vaqtda qishki yog`inlar to`planib, ko`l bo`lib qolishni hisobga olgan holda erni tekislab o`tzazish shart. Piyozlarni o`tzazishda har bir bo`limning eni 110-120 sm ko`chatlarning orasi 15-20 sm bo`lsa qatorlar usunligi 40-50 m bo`lishi kerak. Piyoz gulli o`simliklarni begona o`tlar bosib ketmasligi uchun gerbetsidlardan foydalanish zarur, ya`ni piyozlar o`tzazilib bo`lgandan 3 kun o`tgach 3 kg semazinni 800-1000 l toza suvga qo`shib purkash tavsiya qilinadi. Plyonkalar yopilgandan so`ng har necha vaqtda havosini almashtirish maqsadida ikkala tomon ochilib shamollatirish lozim. Aks holda turli zamburug` kasalliklarga duchor bo`lishi mumkin. Gullab bo`lgach lola, nargiz, sumbula piyozlari TMTD bilan changlantirib, soya shamolgoh erda quritib olish tavsiya qilinadi.

Qo`shimcha xonalar (er to`lalar va yordamchi inshootlar). Yirik gulchilik xo`jaligidagi qo`shimcha xonalarga turli omborlar, er to`lalar, saroylar va xokazolar kiradi. Harorati boshqariladigan er to`la yoki omborlar georgina, gortenziya, qalamcha qilingan atirgul nastarinlarni qishda saqlash uchun er yuzasida va chuqurlikda bo`lishi mumkin. Ularga qo`yiladigan asosiy talablar: yaxshi issiqlik qoplamasi, xonani shamollatib turuvchi qurilma, elektr yorug`ligining bo`lishi. er to`lalarda o`rtacha harorat 2-6 S⁰ bo`ladi. Ularning o`lchami va tuzilishi turlicha, foydali ish maydonlari hajmini ko`paytirish uchun bir necha qismli tokchalar quriladi.

Bokslar (alohida xonalar), xolodil`nik, qurilmali xonalar – bular kesilgan gullarni saqlash uchun mo`ljallangan. Shuningdek, uni erta bahorda, kuzda va qishda. kuzgi va kech bahorgi tezlashtirib etishtirishga mo`ljallangan o`simliklarni saqlash uchun qo`llash mumkin. Gulchilik xo`jaliklarida piyoz va tuganak piyozlarni quritish, saqlash uchun markaziy isitish tarmog`li, xonani shamollatib turuvchi qurilma qismli tokchalarga ega maxsus omborlar bo`lishi kerak. Yirik gulchilik xo`jaliklari tezlashtirib etishtirilayotgan piyoz gullarni saqlash uchun maxsus xonalarga ega bo`lishi lozim. Asbob uskunalar, o`g`itlar, idishlar, tuvaklar va boshqa materiallarni saqlash uchun asbob uskuna saroylarini qurish ko`zda tutiladi. Hamisha yashil o`simliklarni yozda saqlash va ildiz ottirish uchun shiyponlar quriladi.

Issiqxonalarga ekilgan urug`lardan o`stirilgan gullarni tashqariga ekish uchun chiniqtirish. Ko`pgina bir yillik va gilamli o`simliklar doimimy joyiga ekilguncha yopiq erda, ya`ni issiqxona, bino, plyonkali pana joylar va hokazolarda etishtiriladi. Shunday tayyorlangan o`simliklar qoida bo`yicha nozik bo`ladi va ularni ochiq erga ekishdan oldin chiniqtirish zarur.

***O`simliklarni chiniqtirish*** – bu qator usullar bo`lib, ularga ko`ra o`simlik ochiq er sharoitida etishtirishga moslashadi. Bunda o`simlikning harorati namlik tebranishlariga va tashqi muhitining boshqa yoqimsiz ta`sirlariga chidamliligi ortadi.

O`simliklarning sovuqqa bardoshliligi ochiq erga ekishga uzoq va murakkab tayyorgarlik bilan ortadi, ochiq erga ekilgan vaqtda xujayralar tsitoplazmasida chuqur fiziologik o`zgarishlar bo`ladi, bu xujayralar o`simlik ko`karishining yomon sharoitlariga eng yuqori moslashishini ta`minlaydi.

Chiniqtirishda sekin-asta etishtirish sharoiti o`zgaradi. Xonalar ko`proq shamollatiladi, xarorat pasaytiriladi, tik yoritilganlik kuchaytiriladi, buning natijasida o`simlik tashqi muhit sharoitiga sekin-asta moslashadi. Ko`chatlarni chiniqtirish uchun 10-12 kun zarur, so`ngra ular ochiq erga ekiladi. Ona o`simliklarni yopiq erga ko`chirishda, ular oldindan soyali parniklarda saqlanadi, sekin – asta harorat ko`tariladi, so`ngra issiqxonalarga olib kiriladi.

Tezlashtirib etishtirilgan o`simliklarni ham realizatsiya qilishdan oldin chiniqtirish zarur. Chunki boshqa sharoitda ular o`z manzaraliligini yo`qotishi mumkin.

Oynavon bino va xona o`simliklarini boshqa idishga bahorda (fevraldan maygacha) ko`chiriladi, buning uchun katta tuvaklar olinadi. Ko`chirilayotgan o`simlikning chirigan yoki shikastlangan ildizlari, shuningdek drenaj uchun solingan sopol parchasi ildiz bilan o`ralgan bo`lsa olib tashlanadi. O`simlik yumshatilgan tuproqqa ekiladi. Ekishda tuvakdagi drenaj teshikchasi sopol parchasi bilan qavariq tomoni yuqoriga qilib berkitiladi. Ortiqcha namlikni kamaytirish uchun yirik donali qum, so`ngra 3-5 sm qalinlikda shu o`simlik uchun mos keluvchi ozuqaviy tuproq solinadi. Tuvakdagi tuproq sathi o`simlik ekilgandan so`ng tuvak o`lchamiga mos ravishda uning chetlaridan 1-2,5 sm past bo`lishi kerak. Ko`chirib o`tqazilgan va tokchalarga joylashtirilgan o`simliklarni tekis va to`liq namlanishi uchun 2-3 usulda sug`oriladi. Alohida hollarda ko`chirib o`tqazishdan oldin o`simlikning er usti qismlari ham kesiladi: eski barglar, singan yoki shikastlangan shoxchalar, novdalar va hokazolar.

III. BOB. MANZARALI VA GULLI O'SIMLIKLER BILAN ATROF, XONA, KIRISH JOYLARI VA YO'LAKLARNI BEZASH.

Ixtiyoriy yashillik bunyod etishning ya'ni yashil qurilishning muhim asosi – bu klumbalar, rabatkalar, guruhlar, gazon maysazor fonidagi, alohida va guruhli ekishlar hisoblanadi. Lekin gulli bezatishda aniq munosabatlar va o'lchamlarga bo'ysunish kerak. Xiyobonlar, istirohat bog'lari va ko'kalamzorlashtirishning boshqa ob'ektlarini gulzorlar bilan o'ta to'ldirib yuborish ratsional emas va har doim ham o'zini oqlamaydi. Gulzorlarni loyihalashda bosh tamoyilga tayanish kerak, ya'ni gulli bezak berilgan ko'kalamzorlashtirish ob'ektining umumiy maqsadiga bo'ysunishi zarur, bunda gulzorni qanday ob'ekt oldida – madaniyat saroyi, memorial, xiyobon, ma'muriy binolar oldidagi hisobga olinadi. Bu holda gulzorlar arxitektura inshootlariga (monument, bino va h.k.) diqqatni jalb qilishi va ularning o'ziga xos xususiyatini ajratib ko'rsatish kerak.

Lekin boshqa maqsad ham bo'lishi mumkin. Masalan, tomoshabinda (dam oluvchi) gullarning go'zalligi, ularning rangi, shakli, hidi, yangiligi va takrorlanmasligi bilan yaxshi kayfiyat hosil bo'lishi ehtimoldan holi emas. Bu holda umumiy arxitektura maqsadda bezatishga bo'ysunilmaydi, ya'ni teskarisi, arxitektura ansanblari va ularning detallari o'simliklar shaklining o'ziga xosligini ajratib ko'rsatadi, ularga qo'shib ketadi va o'ziga xos garmoniya kasb etadi.

Parterli va turli kompozitsiyali rang – barang, chiroyli gulzorlar alohida xususiyatga ega inshootlarni bezatishda ishlatiladi. Jumladan, bu ishlar ko'rgazmalar, madaniyat saroylari, haykallar, memoriallar, muzeylar, teatrlar ro'parasida amalga oshiriladi. Gullar va boshqa o'simliklarning barcha sifatlarini yaxshi ko'rsatish uchun, bog'lar, xiyobonlar va alohida gulzorlarni ko'kalamzorlashtirishda turli klassik usullardan – regulyar (geometrik, frantsez) va landshaft (ingliz) usullaridan foydalanish mumkin. Bu usullar tinch, shoirona muhit va tabiatga bevosita yaqinlik tasavvurini aks ettiradi. Shaharlar va boshqa yirik aholi punktlarida madaniyat va dam olish bog'lari shunday tashkil qilinadiki, ularda gulzorlar, maysazorlar daraxt-butalar bir nechta mintaqalarda turlicha

maqsad va har xil ko`rinishda joylashishi mumkin. Ko`kalamzorlashtirishda xiyobonlar, dahalar, maxsus bog`lar-rozariyalar, sirengariyalar, georginariyalar va hokazolar ham katta ahamiyat kasb etadi.

Gulzorlar tashkil qilish – bu loyihalash va ularni amaliyotda bajarishdan iboratdir. Gulzorlar loyihasini xiyobonlar, istirohat bog`lari va boshqa qurilishlari mo`ljallangan joydan ajratilgan holda amalga oshirish mumkin emas.

Gulzor aniq tarkibiy qismlarga ega: 1) turli shakldagi gul ekinlari; 2) yo`lakchalar; 3) maysazor. Ularning klassik mos tushishi, gul ekinini maydoni, yo`lakchalar va maysazorlarning 3:5:8 munosabati hisoblanadi. So`ngi yillarda maysazorlar uchun ko`proq, gullar uchun kamroq joy ajratilyapti. Ob`ektlarni ko`kalamzorlashtirish turli diametrining foizli munosabati ham mavjud. Daraxtlarga 40-50% (janubda bir muncha ko`proq), butalarga 10-20 % (shimolda ko`proq), maysazorlar uchun 8-18 %, gul ekinlariga 4-8 % va yo`lakchalarga 15-20 % joy ajratish tavsiya qilinadi. Ko`rsatilgan elementlarning foizli munosabatini aniqlagandan so`ng, loyihalar tuziladi, bunda vertikal ko`kalamzorlashtirish, toshli tog`chalar, suv qurilmalari (havzalar, favoralar va boshqalar), dam olish va xizmat ko`rsatish ayvornchalari, kioskalar, kichik arxitektura shakllarining joylashishi hisobga olinadi. Loyihalashda shuningdek, berilgan ob`ektning mehmonlari soni ham hisobga olinadi. Shunga ko`ra yo`lakchalarga ajratilgan maydonni ko`paytiradilar yoki kamaytiradilar, kichik arxitektura shakllari soni hisoblanadi. Gulzorlarning mehmonlari ko`p bo`lsa, yo`lakchalar eni kengaytiriladi.

Amaliyotda ko`kalamzorlashtirish ob`ektining quyidagi o`rganish usuli ishlatiladi. Ko`kalamzorlashtirish uchun ajratilgan joyni tayyorlaydilar, rejalashtiradilar, o`g`it soladilar, haydaydilar, boronlaydilar va ko`p yillik boshqali o`g`itlar sepiladi. O`tlar yaxshi o`sib, o`rganilgandan so`ng, ustidan yurishga ruxsat etiladi. Bosilgan yo`lchalar kelgusida ham yo`llar tarmog`i, yo`lchalar, gulli bezashning maydonchalari va elementlari (klumbalar, rabatkalar va h.k.) ni loyihalash uchun asos bo`lib xizmat qiladi.

Daha va mavzalar ichini ko`kalamzorlashtirishda va bog`lar tashkil qilishda, tinch dam olish joylarini, qumdonlarni, arg`amchilarni, zinapoyalarni

vav hokozalarni joylashtirishni ko`zda tutish kerak. Idoralar va boshqa ma`muriy binolar oldida mashinalar, motatsikllar, otlar uchun turish joy, e`lonlar, ruznoma va hurmat taxtalari uchun maydonchalar ajratiladi.

Loyilashda gilamli klumbalar, rabatkalar va hokazolarning murakkab rasmlaridan foydalanmaslik kerak. Hozirgi vaqtda chiroyli, oddiy va aniq kompozitsiyalarga talab ortmoqda.

Gulzorlar uchun quyosh tushadigan ochiq joylar ajratiladi. Joyning shimoliy va g`arbiy chegaralarida daraxt va butalardan himoya chizig`i tortiladi. Bunday chiziqlarni ko`chalar, yullar bilan chegaralangan tomonlarga tortish maqsadga muvofiqdir.

Gulzorlarni tashkil qilishda quyidagi qoidalaridan foydalanish tavsiya qilinadi:

1. Gulzor – klumbaning o`rta, markaziy qismi eng yorqin, diqqatni jalb qiluvchi bo`lishi kerak. U havza, haykal yonida yoki o`zicha mustaqil ob`ekt bo`lishi mumkin.
2. Gulzorlardagi gul shakllari mayda bo`lmasligi kerak, aks holda u xunuk ko`rinishi mumkin. Oddiy chiziqli yirik shakl hosil qilinishi ma`qulroqdir.
3. Gulli shakllar kamroq va ma`lum masafalarda gazon bilan ajratilgan bo`lishi kerak.

Nusxa loyihasini tuzish va tasdiqlanish dekabr` oyining oxiri yanvar oyining bishidan kechiktirmaslik kerak, chunki ko`kalamzorlashtirish uchun kerakli o`simlik ko`chatlarini etishtirish bo`yicha ishlab chiqarish topshirig`ini oldindan berish lozim. Shundan so`ng ekishningsh ishchi chizmasi masshtabda, buyoqsiz bajariladi, bunda yo`llarning eni, klumbalarning diametri, rabatkalar eni va uzunligi, ekish uchun o`simliklar va jo`yaklar orasidagi masofa ko`rsatiladi. Ekish chizmasi loyihani bajarish rasmlar, rabatkalarning rejasi tuziladi.

Gulli ekinzorlarning shakllari – gulzorlar tashkil qilishda gulli ekinzorlarning turli shakllari, klumbalar, rabatkalar, naqshlar, guruxlar, hoshiyalar, massivlar, alpinariyalar, miksborderlar va alohida ekinzorlar ishlatiladi.

Klumbalar - shakli deyarli bir xil o'lchamdagi, turli perpendikulyar yo'nalishdagi, geometrik tugallangan kontur shaklida bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, gulzor bu jimjimadar gulli juyak, barcha yo'nalishlarda deyarli bir xil o'lchamga ega. Klumbalarni atrofidagi maysazor yoki yo'lakchalardan yuqoriroq qilib hosil qilinadi va manzarali o'simliklar ekiladi. Klumbalar odatda maysazor fonida joylashtiriladi, ochiq maydonlarda esa ularning chetlari ajriq bilan xoshiyalanadi.

Rabatkalar (jo'yaklar) – gulzor qismi, juyak ko'rinishidagi uzun er maydoni – gulli ekinzor shakli. Unda gullirvchi va manzarali-bargli o'simliklar ekiladi. Rabatkalar- yo'lakchalar, maydonchalar yoki qurilmalar bo'lab joylashgan gulli juyakchalardir. Rabatkalar ishlatilishiga va bezatilayotgan maydonga ko'ra turli uzunlik va kenglikka egadir. Eng kaltalari 2-4 m, uzunlari esa bir necha yuz metrgacha bo'ladi. Rabatkalarning kengligi 0,5 dan 3-4 m. gacha, ko'proq tarqalganining kengligi 1- 1,25 m. Rabatkalar yuzasi har doim tekis, suvning turib qolmasligi uchun faqat markazga nisbatan ozroq ko'tarilgan bo'ladi.

Arabeska – gulli ekinzor shakli sifatida hozirgi vaqtda juda kam ishlatiladi – bu maylarni kichikroq, yassi yoki bir oz ko'tarilgan klumbalardir, o'zining abrisi, ya'ni tashqi ko'rinishi va konturlari bo'yicha barglar, gullar, girlyandalar, gulchambarlar, kapalaklar va boshqa rasmlarni eslatadi. Arabeskalar asosan parter va gulzorlarning yon qismlariga, maysazor burchaklariga joylashtiriladi

Gurux- bu gulzorning qismi, kichikroq sonli bir tur yoki nav o'simliklarining ekilgan joyini o'zida aks ettiruvchi gulli ekinzorlarning bitta shaklidir. Guruxlar uchun ko'pincha baland bo'yi gullovchi hamda manzarali-bargli bir yillik yoki ko'p yillik o'simliklar, butalar yoki daraxtlar ishlatiladi, bunda ular yaqin masafalarda ekiladi.

Gurux ikki xil bo'ladi:

1) devor oldi xili - devorlar, daraxtlar poyasi, axlat qutilari, hojatxonalar, devorchalar va boshqalarni manzaralashtirish uchun baland bo'lyli chiroyli bargli o'simliklar (kleshvevina, manzarali kanop va boshqalar) ishlatiladi.

2) erkin o'suvchi xili, maysazorda ozod kompozitsiyada ekiladi, bu guruxlar uchun turli balandlikdagi o'simliklar ishlatiladi.

Alohida yoki soliter ekish deb - alohida bir yillik yoki ko'p yillik o'simliklar ekilgan ekinzorning bir shakliga aytiladi. Bu maysazor, gulzor, istirohat bog'i yoki hiyobon fonida, guruhlar, klumbalar, rabatkalar, kichik me'moriy shakllari va hokazolardan uzoqroqda joylashadi. Alohida ekinlarning ko'rkamliligi barcha yo'nalishlarda to'liq bo'lishi kerak: serbarglilik, chiroyli gabitus, barglarning originalligi, gullashning to'liq hamda ketma-ketligi.

Soliterlar sifatida qoida bo'yicha yorug'sevar o'simliklar qo'llaniladi. Mayda bargli, to'q rangdagi gulli o'simliklarni yo'lakchalar va ko'rinadigan joylarda, aksincha yirik bargli, yirik va yorqin gulli yoki gulbargli o'simliklarni esa uzoqroqqa ekish mumkin.

Bordyurlar (hoshiyalar) – gulzor qismi gulli ekinzorlar shakli, klumbalar konturi, yo'lakchalar chizig'i, rabatkalar, maysazorlar, alliyalar bo'ylab ekilgan gullovchi yoki manzarali bargli bir yillik hamda ko'p yillik o'simliklar bo'lib, ular hoshiya hosil qiladi. Bordyurlar o'simlikning kattaligi va hoshiyali xususiyatiga ko'ra 10 -40 sm, kenglikda 1-5 ta qatorda hosil qilinadi. Bordyurlarning balandligi hoshiyalanayotgan ob'ektga ko'ra, juda o'zgarib turadi. Bordyurlar ko'kalamzorlashtirilayotgan joyning manzarali me'moriy bezash uchun xizmat qiladi, ular gulzorli bezatishning tugallangan ko'rinishini yaratadi.

Parter – bino oldidagi yoki istirohat bog'i, hiyobon boshida va boshqa joylardagi tantanali gulzor. U gulli manzarali bezatishning qat'iy usulida bajarilab hiyobonlar va istirohat bog'larining kirish joylarida, bino oldiga aniq, to'g'ri shaklda o'rnatiladi. Parter bir nechta tarkibiy qismlardan (maysazorlar, maxsus tanlangan manzarali – bargli va gullovchi o'simliklar, yo'lakchalar, kichik

me'moriy shakllar) tashkil topgan. Bu qismlar o'z navbatida gul kompazitsiyasida birlashib bir butunlikni tashkil qiladi.

Massiv – bu yirik o'lchamli o'simliklar (daraxt va butalar) ekilgan, etarlicha keng maydonni egallagan ekinzorlardir. Massiv yaratishda uning maqsadiga tayaniladi. O'rmon bog'larini tashkil qilish, ko'pincha tabiiy o'rmon massivlarida amalga oshiriladi. Ko'p hollarda yangi massivlar yaratishda yorug'sevar o'simliklar ishlatiladi.

Chirmashuvchi o'simliklar – asosan devorlar, ayvonchalar, balkonlarni bezatish, pergor yaratish uchun ishlatiladi, lekin ulardan gulzorlardan foydalanish mumkin. Bunday hollarda maysazorlarda karkazlar o'rnatiladi va ip tortiladi. Shu tariqa o'simlik chirmashi o'sadi va vertikal devorlar, kolonnalar, konuslar hamda boshqa shakllar hosil qiladi.

Al'pinariya – toshli bog' yoki tog'cha, al'pflorasi qo'llanilgan tog' lanshaftining o'ziga xos chiroyini aks ettiruvchi suvni yaratilgan qurilmadir. Al'pinariya kompleksida tosh hamda o'simliklarning bir yillik, ko'p yillik va butalari chiroyli qo'shib yaxlit bir butunlik hosil qiladi. Al'pinariyalar ko'pincha lanshaft stilidagi parklarda ishlatiladi.

Miksborderlar – devorlar, binolar, baland bo'yli ekinlar oldida tabiiy guruhlar ko'rinishida joylashgan manzarali o'simliklarning ko'p guruhli va qatorli aralash ekinzordir.

Gulzorlarda gulli va manzarali o'simliklarni tanlab o'tqazish.

U yoki bu shakldagi guli ekinzorlarni yaratishda o'simliklarni to'g'ri tanlashga katta ahamiyat beriladi. Bu masalani hal qilishda o'simliklarning biologik xususiyatlari va agrotexnikasidan tashqari, badiiy didga ham ega bo'lishi kerak.

O'simliklarni balandlik bo'yicha tanlash. Agar klumba markazida haykal yoki boshqa me'moriy qurilma bo'lmasa, u holda markazda baland ko'rimli o'simlik (agava, pal'ma va boshqalar), markazda uzoqroqqa esa bo'yi pastroq klumba chetlariga undan ham kichik bo'lmagan o'simliklar ekiladi. Bunday

joylashtirishda o`simliklar bir – birini to`smaydi, hatto ozgina do`ng klumbalar ham juda manzarali ko`rinadi.

O`simliklarni gullash vaqti bo`yicha tanlash. Bu masalani echishda, erta gullaydigan va gullash muddati davomiy bo`lgan o`simliklarni ishlatishga intilish kerak. O`simlik assortimenti shunday bo`lsinki, klumbalar, gulli ekinzorlar va boshqa shakllarda ekilgan o`simliklar ikki haftadan so`ng gullasin. Turli vaqtda gullashga yo`l qo`ymaslik kerak (mikrsborderlardan tashqari).

O`simliklarni gullar yoki barglar rangi bo`yicha tanlash. Turli xil va nav o`simliklarida faqat gullarning tuslarigina emas, balki barglarning tusi ham turlichadir. Yil – davomida – bahorda, yozda va kuzda tuslariningo`zgarishinigapirmasa ham bo`ladi. Gul birligini shunday tanlash kerak-ki, u juda chiroyli bo`lsin.

Gullarni koler bo`yicha tanlashda quyidagilargatayanish mumkin:

- 1) kolerlar kontrasti qonuniga;
- 2) kolerlar garmoniyasi qonuniga;
- 3) neytral tuslar ahamiyati.

Kolerlar kontrasti qonuni. Prizmadan o`tgan quyosh nuri – qizil, olov rang, sariq, yashil, ko`k, binafsha ranglarini beradi. Eng chiroyli rang birliklari: qizil bilan yashil, olov rang bilan ko`k, sariq bilan binafsha ranglardir. Bu kolerlar kontrasti qonuniga mos keladi. Shu bilan bir vaqtda, qizil, olov rang va sariq ranglar – eng aktiv, issiqlik hissini uyg`otadi. Yashil, ko`k, binafsha ranglar – passiv kolerlar, sovuq ranglardir, ulardan ko`k – eng sovuq rang hisoblanadi. Bu tuslar gulzorga qat`iylik beradi. Juda qat`iy kontrastni yumshatish uchun ayrim hollarda bu guruhlar orasiga neytral tusli o`simliklar ekiladi. Barcha to`q koler (to`q–qizil, to`q–ko`k, to`q–binafsha) tomoshabinlarga yaqinroq joylashtiriladi, chunki uzoqroq yaxshi ko`rinmaydi.

Kolerlar garmoniyasi qonuni u yoki bu tusning jadalligini sekin – asta ko`payishini yoki kamayishini bildiradi. Shu qonunga bo`ysungan holda klumbalarda yoki butun gulzorda o`simliklarni ekishda ixtiyoriy kolerni, turli jadallikda qo`llash mumkin. Agar kolerning intensivligi klumba markaziga qarab

ko`paysa, masalan, och–pushtidan pushtiga, och-qizilga, uning markazi och – qizil rangda bo`lsa, o` holda bu klumba nisbatan chetdan markazga qarab jadallikni pasaytirganga qaraganda ko`proqchiroyli, rang-barang ko`rinadi.

Neytral kolerlar ahamiyati. Neytral tuslar – oq va qora tuslardir. Ular ko`p ishlatiladi. Lekin qora rangli o`simliklar tabiatda mavjud emas (viola, koleus deyarli qora rangga ega), oq rangli o`simliklar esa juda ko`p. Oq va boshqa och tuslar uzoqdan yaxshi ko`rinadi, ular qoida bo`yicha juda chiroyli. Oq rang kolerlar dissonansini tekislaydi, disgarmoniyani yo`qotadi. Qizil va binafsha ranglarning birligi mavjud bo`lsa, ular og`ir qabul qilinadi, qo`pol ko`rinadi, oq bilan to`ldirilsa, o` holda bu birlik sezilarli yumshaydi. Oq rang keskin farqni yoki tusni birtekis yumshatadi, qora rang esa tusning esa yorqinligini kuchaytiradi.

Gazon – frantsuzcha so`z bo`lib, maysazor ma`nosini anglatadi. Maysazor – bu o`t bilan qoplangan, tabiiy yoki sun`iy ravishda yaratilgan maydondir. Manzarali bog`dorchilikda bu tabiiy yoki sun`iy ravishda yaratilgan o`tsimon maydon ko`kalamzorlashtirish uchun ham, spart maydonchalari va boshqa maqsadlarda ham ishlatiladi.

Yashil maydonlar bunyod etishda (yashillik qurilishda) maysazorlarga katta e`tibor beriladi. Maysazorlar ikki guruhga ajratiladi:

- a) manzarali maysazorlar;
- b) maxsus maysazorlar.

Manzarali maysazorlaro`z o`rnini quyidagilarga bo`linadi: parterli, o`tloq ko`rinishi (bog` va o`rmondorchiligida), ko`p yillik chiroyli gullovchi va mavritaniya (bir yillik, xilma xil gullovchilar).

Maxsus maysazorlar – bular sport (futbol va boshqalar), piyodalar xarakatini ajratuvchi, yo`l chetlaridagi chiziqlarni mustahkamlovchi maysazorlardir.

Parterli maysazorlar - bog`ning markaziy qismida va gulzorninng asosini tashkil qiluvchi boshqa maydonlarda joylashadi. Bu maysazorlarga juda katta talablar qo`yiladi: ular, ayniqsa, yuqori sifatli, seryaproq, tusi bo`yich, bir xil, tekis, maysasi zich, pastak bo`lishi kerak. Parterli maysazorlar kichik maydonni

egallaydi. Qoida bo'yicha ularga mayda nozik bargli, barglari asosan tupining pastki qismida joylashgan va kesiladigan so'ng tez o'suvchi boshqali o'tlar ekiladi.

O'tloq ko'rinishidagi maysazorlar kengroq maydonni egallaydi, chunki ularni manzarali va boshqa bog` hamda o'rmon – bog`dorchiligining ochiq joylarida ishlatiladi.

Ko'p yillik chiroyli gullovchi maysazorlar – maysazor fonida guruh-guruh bo'lib joylashgan, chiroyli gullovchi ko'p yillik o'simliklardan tashkil topadi.

Mavritaniya yoki xilma-xil gullovchi maysazorlar ko'pgina gullovchi bir yillik o'simliklarni boshqali o'tlar bilan aralashmasidan tashkil topganligi bilan ahamiyatlidir. Mavritaniya maysazorlari uchun asosan bir yillik o'simliklar, juda kam hollarda ekilgan yili gullovchi ko'p yillik o'simliklar ishlatiladi.

Yaxshi parterli maysazorni yaratish juda katta e'tibor va mehnatni talab qiladi. Oldin maysazor uchun maydon tayyorlanadi. Parterli maysazorlar uchun yaxshi o'g'itlangan engil qumoq yoki qora tuproqni ishlatgan afzaldir. Parterli maysazorlarni yaratishda o'simliklar uchun zaruriy qatlam qalinligi 15-20 sm dan kam bo'lmasligi kerak. Tuproqning mexanik tarkibiga ko'ra qum yoki loy qo'shish mumkin.

Maysazorlar uchun ko'pincha boshqali o'tlar, kam hollarda esa loviya o'tlar ishlatiladi. Maysazor o'tlari ayniqsa, pastki qismida ko'p bargli poyaga ega bo'lishi, yaxshi chim holis qilishi, o'rilgandan so'ng tez o'sishi, payxon qilishiga, ivishiga, mog'orlashiga, qurg'oqchilikka chidamli va manzarali bo'lishi kerak.

Barcha boshqali o'tlarni 3 guruhga bo'lishi mumkin:

a) pastki, b) yuqorigi, v) o'rtacha.

Pastki boshqalilarga o'tloq myatnigi, qizil ovsyantsa, oq va oddiy polevitsa, yaylov raygrasi kiradi. Pastki boshqalilar ko'pincha parterli maysazorlar ishlatiladi.

Yuqori boshqalilar asosan o'tloq tipidagi maysazorlarda ishlatiladi- yig'ma eja, koster, bozostiy, jitnyak, o'tloq ovsyantsasi, chirmashuvchi pirey va boshqalar.

O'rtacha boshqalilarga temofeevka, lisoxvost va boshqalar kiradi.

Maysazorlarni parvarishlash. Maysazorlar sifatida ularning parvarishiga bog`liq. Erta bahorda, qorlar eriy boshlashi bilanoq, maysazorlar atrofiga, ularning ustidan yurilmasligi va ular bosilmasligi uchun, vaqtincha shtaketnik yoki 50-60 sm balandlikda to`siqlar o`rnatiladi.

Maysazor parvarishning keyingi bosqichi – kesish yoki o`rishdir. Uni odatda maysazor o`tloqlari (kosilkalari) bilan kesiladi. Bog` sahnidagi maysazorlar ayniqsa, nam bilan etarli ta`minlanganlik sharoitlarida har 6-16 kunda kesib turiladi. Shunday qilib, butun vegetatsiya davrida 10-12 marta kesiladi. O`rilgandan so`ng o`tlarning balandigi 6 sm dan oshmasligi kerak. O`tloq turidagi maysazorlar oyida bir marta, ya`ni yilda 2-4 marta o`riladi. O`rmon bog`laridagi maysazorlar yozda 1-2 marta o`riladi. O`rilgan o`tlar 1-2 kun mobaynida yig`ib olinadi.

Maysazor boshoqlilarga, ya`ni oziq maydoni kichik bo`lgan va uzluksiz kesib turildiganlar uchun katta miqdordagi oziq moddalar zarur. Ekilgan maysazorlarga har gektariga 300 kg azotli va fosforli, 150-200 kg kaliy o`g`it solinadi. O`g`itlar yoz davomida o`tlar o`rilgandan so`ng 3-4 marta solinib keyin sug`oriladi. O`tlar kuzgi yuzaki kompost ko`rinishdagi organik o`g`itlarga juda ta`sirchandir. O`g`it 0,2 – 2 sm qalinlikda solinadi va xaskash bilan tekislanadi.

Xonalarda, kirish joylarida manzarali gulzorlarni tashkil qilish.

Zamonaviy inter`erlar gullar hozirgi vaqtda ishlab chiqarish korxonalari, bino va inshootlar, ishxonalar, madaniyat uylari va xonalarni bezatish uchun kesilgan jonli gullar va manzarali o`simliklardan tuzilgan kompozitsiyalar ishlatiladi. Gullar va manzarali o`simliklarni xonalarda turli yashiklar, kashpolar, maxsus stolchalar va hokazolarda joylashtirish mumkin. Ampel va chirmashuvchi o`simliklar o`simliklar osma va devoriy kashpolarga o`rnatiladi. Agar bezatilayotgan xona katta bo`lsa, u holda gulli va manzarali o`simlik solingan guldon hamda savatlarni erga (polga) qo`yish mumkin. Yassi guldonlarda rangi, balandligi va shakli bo`yicha bir-biriga mos tushuvchi gulli va manzarali bargli o`simliklar joylashtiriladi. Bunday o`simliklardan tuzilgan klmpozitsiyalar, agar ampel o`simliklari bir tomonidan osilib tursa, juda chiroyli ko`rinadi. Yashiklarni turli materiallardan yasash mumkin. Ular devor tusiga xos yoki yorqin bo`lmagan

ranga bo'yab laklanadi. Yashiklar yoki kashpolarga joylashtirilgan gul tuvaklar yashik chetlaridan bir muncha past bo'lishi kerak. Tuvaklarni yuqorisiga yangi mox, keramzit, vermikulit yoki yuvilgan toshchalar solinadi. Tuvaklar orasidagi bo'sh joylar ham shu materiallarning biri bilan to'ldiriladi.

Xonalardagi gullarning joylashishi simmetrik bo'lmasligi kerak, baland bo'yli o'simliklar shakllari pastak o'simliklar bilan mos tushishi lozim. Gullarni kashpo yashiklarga joylashtirishda ularning balandligi va yorug'likka talabini hisobga olish lozim. Yorug' sevar va past bo'yli o'simliklar yorug'likka yaqinroq, soyaga chidamli, baland bo'yli o'simliklar esa devor oldiga joylashtiriladi. Kashpo yashiklarini manzarali o'simliklar bilan to'ldirishda, yirik o'lchamlarni pastak va ampel o'simliklari bilan moslashtirish yaxshi samara beradi.

Zamonaviy inter'erni bezatishda tuvak o'simligi va tabiat materiallaridan tuzilgan kompozitsiyalar ham keng tarqalgan. Ular kesilgan gullardan tuzilgan kompozitsiyalardan farqli ravishda juda uzoq saqlanishi mumkin. Bunday kompozitsiyalar keramik yassi guldonlarda yoki keng tuvaklarda ishlatiladi. Kompozitsiyalar uchun xona o'simliklarini tanlashda ularning ekologiyasini hisobga olish kerak va sukkulentlar bilan namsevar o'simliklarni, yorug'sevar bilan soyaga chidamli o'simliklarni birga esmaslik zarur. Odatda bitta yirik o'simlik bunday kompozitsiyaning asosi bo'lib xizmat qiladi. Uning atrofida kichikroq o'simliklar, guldon chetlariga esa ampel o'simliklari ekiladi. Sukkuletlerden tuzilgan kompozitsiyalarga turli o'lchamdagi, lekin bir xil rang va o'ziga xos bir necha toshlarni qo'shish mumkin.

Xizmat xonalarini ko'kalamzorlashtirish uchun beor o'simliklar, ya'ni yorug'lik va namlikka uncha talabchan bo'lmagan o'simliklar ishlatiladi. Yashil o'simliklar ola-bula bargli o'simliklardan xlorofitum, marmarli peperomiya, aukuba, ola-bula bargli tradeskantziya va boshqalar ishlatilsa chiroyli ko'rinadi. Tuproqni berkitish uchun chirmashuvchi yoki ampel o'simliklari (sedum, zibol'di, selaginella, qirmizi setreaziya, tradiskantsiya va boshqalar) ishlatiladi. Xonalarni mavsumida gullovchi o'simliklar: azaleya, gloksiniya, tsiklamen, kal'tseolyariya va boshqalar juda yaxshi bezaydi. Gullovchi tuvak o'simliklarini va kesilgan

gullarni yil mavsumiga ko`ra almashtirib turish inter`erlarni gul bilan bezatishning turli-tumanligini ta`minlaydi.

Gulzorlarni parvarishlash xususiyatlari – agar o`simliklar o`z yo`nalishiga javob bersa va to`g`ri ekilib, ishlatilgan bo`lsa bunday gulzorlar samarali bo`lib, kishida yaxshi kayfiyat uyg`otadi. Bundan tashqari, gulzorlar har doim toza, chiroyli, ya`ni yaxshi parvarishlangan bo`lishi kerak. Gulzorlar parvarishida asosan uning sifati muhim ahamiyat kasb etadi. O`simliklar parvarishi bo`yicha sarflarni kamaytirish uchun ularning o`sish va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish kerak va shunga mos ravishda quyidagi qoidalarga tayanish lozim.

1. O`simliklarni optimal masofalarda ekish.
2. O`simliklarni tezroq o`sib, bir-biri bilan birlashib ketishi va er yuzini yashillik bilan qoplashini hisobga olgan holda joylashtirish.
3. Gullash xususiyati va ketma-ketligini hisobga olish.
4. O`simliklarni past haroratga chidamliligiga ko`ra, ularni ochiq erga bahorgi sovuqlar ehtimoli ketgandan so`ng ekish.

Gulzor parvarishida quyidagi usullardn foydalaniladi:

- a) ekilishi bilan sug`oriladi. Zaruriyatga ko`ra sug`orish takrorlanadi;
- b) ekilgandan so`ng birinchi haftalarda tutmagan ko`chatlar o`ringa, o`sha navdagi yangi o`simlik ko`chatlari ekiladi. Buning uchun 10-25 foiz miqdorda o`simliklar zahirada etishtiriladi.

v) o`simliklar birlashib ketguncha, tuproqni uzluksiz yumshatish va o`simlikni yagana qilish. birlashib ketgach va kuchli yomg`irdan so`ng ularni bajarishga hojat yo`q, chunki, bu vaqtda yovvoyi o`tlar madaniy o`tlar tomonidan eziladi va taxminan gulzor ko`rinishini buzmaydi;

g) o`simliklar tutishi va o`sa boshlashida organik va mineral o`g`itlar bilan oziqlantiriladi. Bunda mikroo`g`itlar kamroq foydalaniladi;

d) alohida o`simliklarning gullab bo`lishi bilan so`ligan gulbarg va gullar kesib tashlanadi. Gulzor ko`rinishini buzuvchi, so`ligan va to`kilmagan gul va gulbarglardan ham tozalanib turishi kerak. Gullash davri aytarli uzoq bo`lmagan

o`simliklarda bu ish taxminan haftada bir marta bajariladi. Kesib turilsa, o`simlik manzarasi uzoqroq saqlanadi.

Sentyabr oyi oxiri oktyabr oyi boshlarida birinchi kuzgi sovuqlar tushadi, ular issiqsevar o`simliklar – begoniya, irezine, al`ternantera va boshqalarga zarar etkazishi mumkin, sovuqdan keyin issiq havo davri kelsa ham, bu o`simliklarning ayrimlari nobud bo`lishi ehtimoli bor. Shuning uchun sentyabr oyi oxirida ehtiyot chorasi uchun o`simliklarning bir qismini (10-15%) zararlanmagan ona tuplarni issiqxonalarga kiritiladi. Ular tuvakka ekiladi yoki zich qilib yashikka joylashtiriladi. Suv o`simliklari ham havzalardan olib qo`yiladi. O`simliklar gulzrning tashqi ko`rinishini buzmasdan tanlab olinadi.

engil sovuqlarda ona tup yuzasi doka, shoxli payraxa yoki plyonka bilan yopiladi, chunki kuchsiz sovuqlardan so`ng, issiq havo kelishi va gulzorlar o`zining manzarasini yana bir necha hafta saqlashi mumkin. Hozirgi vaqtda TSXAning Sabzavotchilik tajriba stantsiyasida sun`iy yo`l bilan hosil qilinuvchi ko`pikni yaratish ustida isholib barilyapti. Sovuqlar ehtimoli tug`ilishi bilan, o`simliklar ko`pik bilan qoplanadi va 8-10 soatdan keyin ko`pik qotib, ingichka qatlamli plyonka iz qodirmay uchib ketadi. Oktyabr oyi boshlaridahavo sovushi bilan, ona tup sifatida qo`llanilmaydigan ko`p yillik, bir yillik va gilamli o`tlarning er usti qismi qirqilai yoki sug`urib, kompost qilinadi. O`simliklardan tozalangan maydonlar o`g`itlanadi va kavlanadi. Qishga chidamsizroq ko`p yillik o`simliklarni (atirgul, giatsint nargisning ayrim navlari, regali liliyasi va boshqalar) qarag`ay shoxlari va boshqa materiallar bilan yopiladi.

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

Jamiyat va tabiat asosi, uni o'z faoliyati bilan rivojlantiruvchi va boshqaruvchisi inson ekanligini e'tiborga olib, uning hayot faoliyatini yaxshilash, e'zozlash – taraqqiyot yo'lidagi muhim omili bo'lib hisoblanadi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan fuqarolarimizning hayot sharoitini yaxshilash, ularni turli ta'sirlardan saqlash, har qanday holatda ham ehtiyot etib, muhofaza etish asosiy ezgu maqsadimiz qilib olingan.

Shuning uchun, malakali kadrlarni tayyorlashda ta'lim mazmunini inson hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash g'oyasi bilan to'ldirib, talabalar ongiga singdirish va bu borada ta'lim tarbiya, targ'ibotning zamonaviy usullaridan samarali foydalanish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish», «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi qonunlari va Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2008 yil 3 sentyabrdagi 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Aholini favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga tayyorlashga oid yo'riqnoma», O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008 yil 28 oktyabrdagi 318-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash institutning barcha bakalavrlar malakaviy bitiruv ishining «Hayot faoliyati xavfsizligi» faniga asoslangan holda, shu fandan mashg'ulot olib borgan o'qituvchi maslahati bilan amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

Shuning uchun bakalavriatura barcha ta'lim yo'nalishlari bitiruv malakaviy ishlarida (BMI) alohida «Hayot faoliyati xavfsizligi» bo'limi bajarilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

BMI «Hayot faoliyati xavfsizligi» bo'limi, BMI umumiy topshirig'ida ilmiy maslahatchi rahbarligida, yakka tartibdagi topshiriqlarga asosan bajariladi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bo'lim ish rejasini BMI mavzusidan kelib chiqqan holda ilmiy rahbar va maslahatchi bilan kelishish;

- bo'limni yozish bo'yicha zarur bo'ladigan ma'lumotlarni to'plash.

BMI «Hayot faoliyati xavfsizligi» bo'limini bajarishda talabalarni bitiruv oldi amaliyotini o'tishi muhim ahamiyatga ega. Chunki, bu davrda talaba o'zi tanlagan korxona, tashkilot, laboratoriya va h.k. faoliyati, holati bo'yicha materiallarni yig'ib, qayta ishlab chiqadi va hisobotida ko'rsatishi mumkin.

Hayot faoliyati mehnat muhofazasining qonuniy asoslari

Hayot faoliyati xavfsizligi mehnat muhofazasining huquqiy, qonuniy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va turli vazirliklarning ko'rsatmalari va buyruqlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (1992 yil 8 dekabr): Oliy Majlisining vakolatlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning muddatini uzaytirish va to'xtatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash kiradi (78-modda).

Mahalliy hokimiyat organlarning Konstitutsiyamiz tomonidan belgilangan vazifalari qatoriga jumladan quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy-tartibotini va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlar belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalar hosil qilish;
- atrof muhitni muhofaza qilish (100-modda).

Konstitutsiyada eng avvalo inson huquqlarini himoya qilish ko'rsatilgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar ham himoyalanih asosi berilgan.

Konstitutsiyaning IX bobi iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni himoyasiga qaratilgan. 36-moddada «Har bir shaxs qonunda ko'rsatilgan tartibda mehnat qilish, erkin kasb tanlash, odilona sharoitlarda mehnat qilish va ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir» deyilgan va uning davomida «Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan

(harbiy xizmat chog'ida, favqulodda holat sharoitida va h.k.) tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi» deyilgan.

Konstitutsiyaning 37-moddasida «Barcha yollanib ishlayotgan fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi» deb, fuqarolarning dam olish huquqini amalga oshirilishini ta'minlaydi. 38-moddada «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega, xuddi shuningdek pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas» deb fuqarolarimizning hayot xavfsizligi ta'minlangan.

39-moddada «Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega» deb tibbiyot xizmati hech bir cheklanishlarsiz, turli-tuman tibbiyot xizmati korxonalari tashkil etilishi va jumladan malakali tibbiyot xodimlari o'z shaxsiy davolash muassasalariga ega bo'lishi, davolash sohasida raqobat vujudga kelishi bilan Respublikamizda yashovchilar malakali tibbiyot xizmatidan foydalanish imkoniyati ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi mazmunida ishlab chiqarish korxonalari ma'muriyati mehnatkashlarga ishlab chiqarish bilan bog'langan har qanday shikastlanish yoki zararlanishni, shuningdek moddiy yo'qotishni qoplash majburiyatini oladi.

Xavfsiz ishlash sharoitini yaratish borasida yo'l qo'yilgan har qanday kamchilik yoki xavfsiz ishlash sharoitini tashkil qilmaslik natijasida ishchining baxtsiz hodisaga uchrashi sanoat korxonasining yoki rahbar xodimlarning aybi hisoblanadi. Moddiy yo'qotishni qoplash miqdori va tartibi maxsus qoidalar asosida olib boriladi.

Yuqorida biz mehnat qonuni, kodeksi va ayrim me'yoriy hujjatlardan qonun, qoida va ko'rsatmalardan ayrimlarini ko'rib chiqdik. Shulardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O'zbekistonda fuqarolarning hayot faoliyati yetarli qonun va qoidalar bilan kafolatlangan.

Mehnat xavfsizligi tadbirlarini yaratish va ularning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligi

Hayot faoliyati xavfsizligida mehnat muhofazasi, qonunda ko'rsatilganidek:

- mehnat muhofazasi ish jarayonida insonning mehnat qobiliyatini, sog'ligi va xavfsizligini ta'minlash uchun yo'naltirilgan qonunlar majmuasi, sotsial-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, gigiyenik, profilaktik tadbirlarni o'z ichiga qamrab olar ekan, demak barcha jabhalarda fuqarolarning mehnat qilish sharoiti talab darajasida yaratilishi lozim.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining metodologik asosining yana bir tomoni, bu mehnat sharoitini, texnologik jarayonni, ajralib chiqadigan zaharli moddalarni va foydalanish vaqtida paydo bo'ladigan xavfli vaziyatlarni muntazam ravishda ilmiy tahlil qilib borishdir. Chunki, faqat tahlil asosida ishlab chiqarishdagi xavfli joylar, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavfli vaziyatlar aniqlanadi, ularning oldini olish va bartaraf etish choralari ishlab chiqiladi. Bu masalalarning barchasi o'zaro bog'langan, kelajak rejalarni hisobga olgan holda ko'rib borilishi lozim.

Ishlab chiqarishda, tashkilotlarda har bir rahbar va muxandisning O'zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuniga amal qilish, ishlab chiqarish xavfsizligi masalalarini ish faoliyatida to'g'ri hal etishi, uning shu sohadagi bilim va malakasiga bog'liq. Hayot faoliyati xavfsizligi bilan bir qatorda uning tarkibiy qismi bo'lgan mehnatni texnika xavfsizligi hamda yong'inning oldini olish masalalari hozirgi vaqtda eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bu borada, yalpi safarbarlik bilan tashkilotlarda mehnat xavfsizligiga doir barcha qaror va hujjatlarni tahlil qilish, kelgusida mehnat xavfsizligi darajasini ko'tarish, ish yuritishda texnika xavfsizligi mashg'ulotlarini o'tkazish, mehnat muhofazasi ishlarini tashkil etish, o'quv yurtlari o'qituvchilari, talabalari, xizmatchi va ishchilari o'rtasida shikastlanishning oldini olish hamda davlat standarti masalalari talablariga rioya etish maqsadida «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida» Qonunning qabul qilinganligi maqsadga muvofiq bo'lib, bu sohadagi barcha chora-tadbirlar aynan qonun asosida talab etiladi.

3. Ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklarining tahlili

Sanoat korxonalarida xavfsizlik texnikasi, sanoat sanitariyasi va yong'in xavfsizligi qoida, norma va yo'riqnomalariga rioya qilmaslik jarohatlanishga, zaharlanishga va kasb kasalliklariga olib kelishi mumkin.

Inson tanasining teri yoki ayrim qismlariga tashqi mexanik, kimyoviy, issiqlik va elektr ta'siri natijasi jarohatlanish va shikastlanish deb tushuniladi.

Urilish natijasida lat yeyish, terining kesilishi, suyak sinishi va chiqishi, kuyish, sovuq urishi, elektr toki urishi va inson hayoti faoliyati buzilishiga olib keladigan boshqa cheklanishlar jarohatlanishga misol bo'ladi.

Jarohatlanishni va shikastlanishni baxtsiz hodisa deb ham yuritiladi va uch turga bo'lib qaraladi hamda baholanadi:

1. Ishlab chiqarishda, ish joyida jarohatlanish.
2. Ish bilan bog'langan, lekin ishlab chiqarish bilan bog'lanmagan.
3. Ishlab chiqarish va ish bilan bog'lanmagan jarohatlanish.

Birinchi turdagi jarohatlanishga ishchining ma'muriyat tomonidan buyurilgan ishni bajarishi davomida, ish joyida, sexda, korxona maydonida, yuk ortish va tushirish yoki yuklarni boshqa joyga ko'chirish vaqtida olgan jarohati kiradi.

Ikkinchi turdagi jarohatlanishga ishchining ishxona transport vositalarida, ishga borib kelish vaqtida, komandirovka vaqtida, korxona ma'muriyati topshirig'i bilan boshqa joylarda ishlarni bajarganda olgan jarohati kiradi.

Uchinchi turdagi jarohatlanishga maishiy holatlarda, mast bo'lish natijasida, davlat mulkini o'g'irlash vaqtida, uy sharoitida vujudga kelgan jarohatlanishlar kiradi.

Xavfsizlikni ta'minlashda psixologiya, zaharli moddalar va kasb kasalliklarini ogohlantirish

Xalqaro tajriba, izlanishlarning ko'rsatishicha maishiy ishlab chiqarishdagi shikastlanishlarning 60-90%i zarar ko'rgan kishilarning mexnatini muhofaza qilishda psixologik bilimlarni tatbiq qilishni ifodalaydi. Bu yerda mexnat faoliyati

jarayonida ko‘rinadigan psixologik holatlar turlari to‘liq tekshiriladi, psixologik jarayonlar, psixik xususiyatlar ko‘rib chiqiladi.

Insonning psixik faoliyatida uchta asosiy guruh: - psixik jarayonlar, xossalar, holatlar farqlanadi.

Psixik jarayonlar psixik faoliyatning asosini tashkil qiladi. Busiz bilimlarni jamlash, hayotiy tajribaga ega bo‘lish mumkin emas. Psixik jarayonlar bilish, sezish, his-tuyg‘u, qabul qilish, iroda, xotira va boshqalarga farqlanadi.

Psixik xossalar shaxsning o‘ziga xos xususiyatini, fazilatini (yo‘nalishi, karakteri, temperamenti) ifodalaydi. Shaxsning sifatleri (xossalari) ichida zukkolik, zakovatlilik, his-tuyg‘u, iroda, odob-ahloq, mehnat ajralib turadi va u o‘zgarmas hamda doimiydir.

Psixik holatlar xilma-xilligi, vaqtincha karakteri bilan farqlanadi va psixik faoliyatning xususiyatlarini aniqlaydi, psixik jarayonlarga foydali yoki foydasiz bog‘lanishi mumkin.

Mehnat psixologiyasi vazifalari va xavfsizlik muammolaridan kelib chiqib holatlarni ishlab chiqarish va maxsus psixik holatlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bu ishlab chiqarishdagi shikastlanish, avariyaning oldini olish choralari tashkil etishda muhim o‘rin tutadi.

Insonning qobiliyati, samarali mehnat faoliyati uning psixik (ruhiy) kuchlanishi darajasiga bog‘liq. Psixik kuchlanish insonning mehnatiga ma’lum daraja – chegaragacha ijobiy ta’sir etadi. Faollikni kritik nuqtadan yuqoriga ko‘tarish ish qobiliyatini yo‘qotishgacha olib kelishi mumkin.

Psixik kuchlanishning chegaradan yuqori shaklida insonning shaxsiy xususiyatlari pasayadi, harakat koordinati o‘zgaradi, xulqi samarasiz holatga o‘tadi yoki hayot faoliyatida boshqa salbiy o‘zgarishlar namoyon bo‘ladi.

Chegaradan yuqori psixik kuchlanishni xususiyatiga qarab tormozlovchi (to‘xtatuvchi), qo‘zg‘atuvchi turlarga ajratish mumkin.

Tormozlash xili inson harakatining pasayishiga va cheklanishiga olib kelishi bilan ifodalanadi. Kasb egasi vazifani avvalgidek shijoat bilan bajarishga qodir bo‘lmaydi, javob berish xususiyati va tezligi pasayadi. Xotiralash,

fikrlash jarayoni sekinlashadi, yomonlashadi va shu kabi boshqa salbiy omillar kuzatiladi.

Qo'zg'atuvchi xilida esa insonda faollikning pasayishi, ko'p gapirish (sergaplik), ovozning titrashi kuzatiladi. Natijada, ya'ni psixik kuchlanishning yuqori shaklida odamlarda murakkab sharoitlarda noto'g'ri harakatlanish va xatolarga yo'l qo'yish, toliqish sodir bo'ladi. Yuqoridagilarni hisobga olib inson psixik holatining nazoratiga katta e'tibor beriladi.

Insoning psixik holatiga ta'sir etadigan omillar – umidsizlanish, kayfiyatning buzilishi, qo'pollik alomatlari, yiqilib tushish, toliqish kabilar bo'lmasligi uchun tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Shu jumladan, insoning salomatligiga, ish holatiga, psixologik faoliyatiga ijobiy ta'sir etadigan psixofarmakologik vositalar ishlab chiqilgan va ular tavsiya etilgan taqdirda qo'llaniladi.

Yengil stimulyatorlar (choy, kofe) ni qo'llash insonning ish qobiliyatini qisqa vaqtga oshiradi, uyqusini qochiradi. Ayniqsa, aktiv stimulyator (pervitin, fenamin) larni iste'mol qilish bilan harakatchanlik, sezish qobiliyati pasayadi.

Trankvillizatorlar (seduken, elenium va h.k.) ichilsa, inson bir oz tinchlanadi, lekin nevroz kasalligi kelib chiqadi, uyqu elitadi, faollik, psixik holat pasayadi.

Insoning ish qobiliyatiga, psixik holtiga jiddiy ta'sir etadigan alkohol ichimliklarni iste'mol qilish tavsiya etilmaydi.

Xullas, maishiy va ishlab chiqarish sharoiti asosida insoning psixik holati barqaror bo'lishi uchun chora-tadbirlar ko'rish, takomillashgan nazorat sulini uyushtirish asosida vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Odam tanasiga o'tib, uning to'qimalariga kimyoviy, fizik-kimyoviy ta'sir qiladigan, mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladigan moddalar zararli va zaharli moddalar deb ataladi. Ular kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqariladi va qo'llaniladi.

Sanoatda zaharli moddalar odam tanasiga nafas olish yo'li yoki teri orqali, ovqat yeyish vaqtida, ifloslangan suvni iste'mol qilinganda o'tadi va saqlanuvchi zaharlanishga olib keladi.

Kuchli zaharlanish ko'proq miqdordagi zararli moddalarni to'satdan tanaga o'tishi bilan sodir bo'ladi. Shuningdek, zararli moddalarni tanaga oz-ozdan o'tishi va yig'ilishi natijasida kasb kasalliklari kelib chiqadi.

Zararli va zaharli moddalarning ta'siri ularning tarkibiga, tuzilishiga, fizik – kimyoviy xususiyatiga, xossalriga, miqdordagi, tanaga o'tish yo'llariga, holatiga, uchuvchanligiga va suvda, yog'da eruvchanligiga bog'liq.

Kimyo sanoati korxonalarida olinadigan, ishlatiladigan moddalar va mahsulotlarning ko'pchiligi, masalan, ammiak, gazlar, benzol, benzin, kerosin, karbon vodorodlar, spirtlar, efirlar, kislotalar, ishqorlar va boshqalar zaharli hisoblanadi.

Neft mahsulotlari tarkibida past molekulali karbon vodorodlar molekulyar og'irligi oshishi bilan ularning zaharlash qobiliyati ortadi. Masalan, butanning ta'siri etandan, etilen esa etandan, atsetilen esa etilendan kuchlidir. Normal tuzilishdagi moddalarga nisbatan tarmoqlangan, zanjirli birikmalarning ta'siri kamroq bo'ladi.

Moddalarning uchuvchanligi kamayib borishi bilan dekan ($C_{10}H_{22}$) dan boshlab ularning ta'sirchanligi ham kamayadi. Karbon vodorodlar tarkibiga galogenlar kiritish, ularning zaharlash qobiliyatini oshiradi, aksincha, giroksil guruhining kiritilishi ta'sirchanlik xususiyatini kamaytiradi.

Karbon vodorodlar molekulasidagi vodorodni nitro (NO_2), amino (NH_2) guruhlarga almashtirish ularning zaharlash xususiyatini o'zgartiradi.

Moddalarning valentligi ortib borishi bilan ularning ta'sirchanligi ham o'zgaradi. Masalan, 6 valentli xrom 3 valentlikdan, marganes oksidi marganes sulfatdan, temir oksidi temir sulfatdan kuchlidir.

Kimyoviy moddalar vakillarining gomologik qatorini o'rganish natijalari ko'pgina o'xshash moddalar haqida fikr yuritishda, kasallikning va zaharlanishning oldini olishda ma'lum darajada yordam beradi. Zahar moddalarni olishda ma'lum

darajada yordam beradi. Zahar moddalarni suvda, tanadagi suyuqliklarda eruvchanligining oshishi bilan ularning ta'sirchanligi ham ortib boradi.

Masalan, suvda eruvchan oq mishyak (As_2O_3) kuchli zahar, kam eruvchani (As_2C_3) zaharsiz, eruvchan bariy xloridi (BaCl_2) zaharli, bariy sulfat (BaCO_4) esa zaharsiz va h.k.

Zaharli moddalar odam tanasi va ayrim to'qimalariga ko'rsatadigan ta'sirga qarab shartli ravishda to'qqiz guruhga bo'lingan:

1. Asab zaharlariga benzin, kerosin, yog' spirtlari, karbon vodorolar, metanol, anilin, vodorod sulfidi, dioksan, ammiak, nikotin, kofein, tetraetil qo'rg'oshin, fosforli organik birikmalar va boshqalar misol bo'ladi. Ular asosan markaziy asab sistemasini shikastlaydi.

2. Jigar zaharlariga tarkibiga xlor, brom, ftor, yod bo'lgan birikmalar misol bo'ladi. Ular jigar to'qimasi faoliyatining buzilishiga, jigarning qattiq yallig'lanishiga olib keladi.

3. Qon zaharlariga karbon angidridi, amino – nitrobrikmalarning aromatik qatori va hosilalari, fenal gidrazin, mishyak, benzol, toluol, ksilol va boshqalar misol bo'ladi. Ular qon tarkibining buzilishiga, karboksil va metgemogloblin (SoNb , MtHb) hosil bo'lishiga, to'qimada kislorodning kamayib ketishiga, hatto o'limga ham olib keladi.

4. Ferment zaharlariga kiruvchi simob, mishyak, sian birikmalari, fosforli va organik birikmalar (tiofos, metafos) tanani biologik katalizatorlari hisoblanadigan fermentlarning (Sn) guruhlari bilan bog'lanib, ular faoliyatining buzilishiga, zaharlanishiga olib keladi.

5. Qitiqllovchi, kuydiruvchi zaharlar yuqori va quyi nafas olish yo'llarini shikastlaydi, kasalanishga olib keladi. Bunday zaharlarga xlor, ammiak, azot oksidi, fenal, kislotalar, ishqorlar misol bo'ladi.

6. Allergen zaharlari nikel, berilliy birikmalari, nitroxlorbenzol, piridin birikmalari, ursol va boshqalar tananing reaksiya qobiliyatini o'zgartiradi, terining yallig'lanishiga, nafas olish yo'llarining torayishiga va boshqa kasalliklarga olib keladi.

7. Konserogen zaharlar hisoblangan toshko‘mir smolasi, amino va izobirikmalar, xlorbenzidin, ko‘mir, qorakuya va boshqalar tanada shish, rak kasalligini keltirib chiqaradi.

8. Mutagen zaharlarga etilenimin, etilen oksidi, xlorli karbonvodorodlar, qo‘rg‘oshin va simob birikmalari misol bo‘lib, ular odam va hayvonlar jinsiy organlariga qattiq ta‘sir etadi.

9. Emriotron zaharlar (tolid amid va boshqalar) odam va hayvonlarning tug‘ilishiga salbiy ta‘sir etadi. Naslini yo‘q qiladi.

Kimyoviy moddalarni dezinfeksiyalovchi eritma va vositalar

Dezinfeksiyalovchi vosita nomi	Ishlatish usuli	Yuqumsizlantiriladigan ob'ektlar
Xlorli ohakning tindirilgan 0,2-5% li eritmalari	Sepish, chayish	Turar-joy va xizmat xonalari, mebel
Xlorli ohakning tindirilgan 10-20% li eritmalari	Sepish, chayish	Binolarning tashqi yuzalari, hojatxonalar, turli joylar
0,2-1% li xloramin eritmasi	Sepish, artish, bo‘ktirish (ho‘llash)	Turar-joy va xizmat xonalari, mebel, idish – tovoq ich – kiyim va o‘rin ko‘rpa oqliklari

Kalsiy gipoxlorid gidroksid tuzining (DTSGK) 1-3% li eritmasi	Artish, sepish	Turar-joy xonalari, jamoat joylarida foydalanadigan anjomlar, yuk vagonlari.
3% li vodorod peroksid eritmasi	Artish	Xonalarning devorlari, pollari, badan terisi
Etilen oksid (metall ballonlarda)	500 ml/m ³ konsentratsiyagacha purkash	Berk binolar

XULOSA

Xulosa qilib aytganda go`zallik va ozodalik insonga xos eng oddiy fazilatlardan bo`lib inson doimo unga intilib yashaydi. Inson qadim-qadimdan o`z yashash joylarini go`zal va obod qilish uchun harakat qilib kelgan. Chunki, shinam va ko`rkam muhit kishiga o`zgacha zavq bag`ishlaydi. Inson paydo bo`libdiki u tabiat ne`matlaridan, uning go`zalligidan baxramand bo`lib kelmoqda. Demak inson va tabiat bir-biri bilan chambarchas bog`liq. Shuni ham aytish joyizki qadim zamonlardan ibtidoiy odamlar o`z go`shasi atrofida o`suvchi egulik va kasalliklarga da`vo bo`luvchi o`simliklarni qidirib topishga harakat qilishgan. Tabiatning yam-yashil libosga o`ralishi uning qo`ynida ochilib turgan rang-barang gullar, barg shoxlari, ularning tana tuzilishlaridagi o`zgarishlar bilan hamohang. Gulzorlar rang-barangligi hamda xushbo`y hidlari bilan insonni o`ziga rom qilib, sehrlab o`ziga tortadi. Gullarga bo`lgan intilish, qiziqish insonga xos bo`lib, avlodlardan o`tib kelayotgan tabiatga bo`lgan tug`ma muhabbat belgisidir. Go`zal manzaralar, gulzorlar inson kayfiyatini ko`taradi, ruhan tetik qiladi va estetik did bag`ishlaydi.

Arxeologik qazilmalardan ham shu narsa ma`lumki, qadimgi dunyo xalqlari o`simliklardan oziq-ovqat, dorivor va manzarali o`simliklar sifatida foydalanishgan. Eron, Hindiston, Yaponiya, Markaziy va Janubiy Amerika xalqlari qadim vaqtlardan beri yirik va ochiq gulli yovvoyi o`simliklardan, shuningdek dorivor xususiyatga ega bo`lgan o`simliklardan o`z ehtiyojlariga yarasha foydalanishgan. Bu o`simliklar bilan ular o`zlari yashagan joylarni bezashgan va ular tibbiyot sohasida ishlatishgan.

Manzarali o`simliklarga yuqori tuzilishga ega bo`lgan bir, ikki va ko`p yillik o`t-o`simliklar, chala buta va daraxtlar kiradi. Bu o`simliklar o`z navbatida vegetativ va generativ organlardan tarkib topgan. Ularning vegetativ organlariga ildiz, poya va barglari kirib, bu o`simliklarning o`sishi va rivojlanishi uchun zarur. Generativ organlariga esa gullari, mevalari hamda urug`lari kiradi. Vegetativ organlar o`sish, ko`payish xususiyatiga ega bo`lib, generativ organlar esa urug`dan ko`paytirish uchun xizmat qiladi. O`simlik hujayralari protoplazma, tsitoplazma,

yadro va vakuola hamda qobiqdan iborat. Protoplazmada plastidalar joylashgan. Protoplasma rangsiz suyuqlik bo'lib harakat qilish xususiyatiga egadir. Uning ichki qismida vakuola joylashgan hamda organik, anorganik moddalar bor. Hujayra yadrosi dumaloq ba'zan cho'ziqroq shaklga ega. Yadro o'simlik hayotida muhim rol o'ynaydi. O'simliklarda kelib chiqishiga ko'ra uch xil ildiz bo'ladi: asosiy, yon va qo'shimcha. Gulchilikda qo'shimcha ildizlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Qo'shimcha ildizlar o'simliklarning poya va barglarida hosil bo'lib, bu ko'pchilik manzarali o'simliklar (verbena, gnafalium, binafsha va boshqalar) ning vegetativ ko'payishi uchun asosiy rol o'ynaydi. Ko'pchilik piyozli gullarda ildizlar va nafaqat piyozining ostki tomonidan balki piyoz ustidan, ya'ni poya asosida hosil bo'ladi. Shuning uchun bunday piyozlarni piyoz usti ildizlari tuproq ichida bo'lishi uchun chuqurroq ekishga to'g'ri keladi.

Manzarali va gulli o'simlik o'simliklarning guruxlanishi. Dunyoda 250 mingga yaqin gulli o'simliklar turi ma'lum va er yuzida ular keng tarqalgan. Gullar morfologik, biologik va xo'jalik belgilari bo'yicha keskin farqlanadi. Hayotining davomiyligiga ko'ra gulli o'simliklar bir yillik, ikki yillik, ko'p yilliklarga va yopiq maydon o'simliklari, barvaqt etishtiriladigan o'simliklar, doimiy yashil o'simliklarga bo'linadi.

Manzarali va gulli o'simliklar uchun tashqi muhit omillarining ta'siri. Gulchilikni to'g'ri tashkil qilish uchun berilgan joyning iqlim xususiyatlarini hisobga olish zarur, chunki shunga ko'ra manzarali o'simliklar navlarini tanlash oson bo'ladi. Iqlim ma'lumotlariga ko'ra quyidagilar aniqlanadi: vegetatsiya va gullash vaqtlari, o'simlik urug'larini bahorda sepish va ko'chatlarini o'tqazish, kuzda esa yig'ish muddatlari, shuningdek, ko'p yillik gullarning qishlash imkoniyatlari. Qishki eng past harorat – qishlovchi ko'p yillik gullarni tanlash uchun hal qiluvchi omillardir.

O'simliklar hayoti tashqi muhit sharoitlariga bevosita bog'liqdir. Ularning o'sish va rivojlanishiga ta'sir o'tkazuvchi asosiy omillar – issiqlik, suv, yorug'lik, havo va oziq moddalardir. Gulchi gulni etishtirar ekan, ularning rivojlanishi uchun

qulay sharoit yaratish, ya'ni yuqoridagi barcha omillar o'zaro eng qulay muddatlarda bo'lishiga erishishi kerak.

O'simlikning barcha organlari, shuningdek, ildizlar ham nafas oladi. Shuning uchun tuproqni yumshatish ta'lab etiladi. bundan tashqari, yaxshi ishlangan tuproqda foydali mikroorganizmlar o'simlik qoldiqdari va boshqa organik moddalarni minerallarga aylanishini ta'minlaydi.

Ayrim hollarda o'simlikning nafas olishiga halaqit qiluvchi hollar yuzaga kelganda uning kislorodga talabi ortadi so'ng o'simlik kuchsizlanadi, kasallanadi va nobud bo'ladi. Bunday hollar joylarni suv bosganida, muz qatlami hosil bo'lganida yuzaga keladi. Shunday vaqtda darhol suvni to'xtatish yoki muz qatlamini buzish zarur.

Manzarali va gulli o'simliklarni urug'idan ko'paytirish. Manzarali o'simliklarning ko'paytirishning eng ko'p tarqalgan usuli – urug'dan ko'paytirishdir. Uni gulli o'simliklarning yangi navlarini hosil qilishda, bir yillik, ikki yillik, bir qator o'tsimon ko'p yilliklar va mavsumda gullovchi oynavon issiq bino hamda xona o'simliklarni etishtirishda qo'llaydi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., O'zbekiston, 1995.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. T., 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" to'g'risidagi qonuni. T., 1997.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" qarori. PF-3709-Farmoni. // Xalq so'zi – 2006 yil 11 yanvar.
5. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat Reestri. T., 2006.
6. Bo'riev H.Ch., Abdurahmonov L.A., Djananbekova A.T. Gulchilik. T., «Mehnat», 1999.
7. Vakulenko V.V., Zaytseva e.N., Klevinskaya T.M. i dr. Spravochnik tsvetovoda. M., «Kolos», 1996.
8. Abdurahmonov L.T. Gulchilik. (Ma'ruza matnlari) T., 2000.
9. Djananbekova A.T. Tsvetovodstvo (Tekst lektsiy) T., 2000.
10. Chuvikova A.A., Potapov S.P. i dr. Uchebnaya kniga tsvetovoda. Moskva «Kolos», 1974.
11. Chuvikova A.A., Potapov S.P. Praktikum po tsvetovodstvu. Moskva, «Kolos», 1984.
12. Bilov V.N., Mixaylov N.L., Surina V.I. Розы. Itogi introduktsii. M., «Nauka», 1988.
13. Zinov'eva N.F. Komnatnoe tsvetovodstvo. T., «Mehnat», 1988.
14. Kiyatkin A.K. Tsvety Uzbekistana. T., «Mehnat», 1978.
15. T.O'tenov „Qaraqalpaqstannin' ag'ashli-putali o'simlikleri, olardi paydalaniw ha'm qorg'aw" No'kis: Qaraqalpaqstan, 1987
16. T.O'tenov „ Qaraqalpaqstannin' qala ha'm awllarinin' jasil qurilisi" No'kis: Qaraqalpaqstan, 1984

17. Ametov M., Yusupov Sh., Talipov X., „Qaraqalaqstanda terek egiw”
No’kisbilim, 1995
18. Saytlar:
- <http://www.gardenia.ru> Tsvety i tsvetovodstvo.
- <http://luzhok.ru/guide/ourpartners/art1088.html> Samaya polnaya illyustrirovannaya entsiklopediya rasteniy.
- www.floriculture.ru Komnatnoe tsvetovodstvo.
- www.web.vrn.ru/irva Traditsionnoe komnatnoe tsvetovodstvo.

**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Tabiatshunoslik va
geografiya fakulteti 4 b Biologiya ta'lim yo'nalishi talabasi Reimbaeva Iroda
Usmanboevananing «Manzarali o'simliklar va ularning biomorfologik
xususiyatlarini o'rganish» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishining
ANNOTATSIYASI**

Mavzuning dolzarbligi. Go'zallik va ozodalik insonga xos eng oddiy fazilatlaridan bo'lib inson doimo unga intilib yashaydi. Inson qadim-qadimdan o'z yashash joylarini go'zal va obod qilish uchun harakat qilib kelgan. Chunki, shinam va ko'rkam muhit kishiga o'zgacha zavq bag'ishlaydi.

Hozirgi zamonda meditsina ham shinam va ko'rkam joylar kishining mehnat layoqatini oshirishni isbotladi. Demak, shinamlilik va go'zal manzaralar kishiga faqatgina zavq berib qolmasdan, balki uning mehnat layoqatiga, sog'ligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach bunday go'zal muhitni yuzaga keltirishga alohida e'tibor qaratdi. Ayniqsa, 2003 yili "obod mahalla yili" deb e'lon qilinishini bu boradagi olg'a qadam deb hisoblash mumkin. Bugungi kunda respublikamizning barcha tuman va qishloqlarida, mahalla va muassasalarida manzarali gulzorlar barpo qilish, atrof-muhit ko'kalamzorlashtirishlari qizg'in tus olgan. Chiroyli ko'kalamzorlashtirilgan xiyobonlar, did bilan qurilgan katta ko'chalar shahar xusniga xusn qo'shib, aholini sof havo bilan ta'minlaydi. Yashil daraxtlar, butazorlar, gulzorlar havoni chang va tutun hididan tozalaydi va normal mikroiklim yaratadi.

Inson paydo bo'libdiki u tabiat ne'matlaridan, uning go'zalligidan baxramand bo'lib kelmoqda. Demak inson va tabiat bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ibtidoiy odamlar o'z go'shasi atrofida o'suvchi egulik va kasalliklarga da'vo bo'luvchi o'simliklarni qidirib topishga harakat qilishgan. Tabiatning yam-yashil libosga o'ralishi uning qo'ynida ochilib turgan rang-barang gullar, barg shoxlari, ularning tana tuzilishlaridagi o'zgarishlar bilan hamohang. Gulzorlar rang-barangligi hamda xushbo'y hidlari bilan insonni o'ziga rom qilib, sehrlab o'ziga tortadi. Gullarga bo'lgan intilish, qiziqish insonga xos bo'lib, avlodlardan o'tib kelayotgan tabiatga bo'lgan tug'ma muhabbat belgisidir. Go'zal manzaralar, gulzorlar inson kayfiyatini ko'taradi, ruhan tetik qiladi va estetik did bag'ishlaydi. Qolaversa bu go'zalliklardan zavqlana bilish uni chuqurroq tuyish va unga to'g'ri munosabatni shakllantirish insonning madaniyati hamda estetik mezoni belgisidir.

Arxeologik qazilmalardan ham shu narsa ma'lumki, qadimgi dunyo xalqlari o'simliklardan oziq-ovqat, dorivor va manzarali o'simliklar sifatida foydalanishgan. Eron, Hindiston, Yaponiya, Markaziy va Janubiy Amerika xalqlari qadim vaqtlardan beri yirik va ochiq gulli yovvoyi o'simliklardan, shuningdek dorivor xususiyatga ega bo'lgan o'simliklardan o'z ehtiyojlariga yarasha foydalanishgan. Bu o'simliklar bilan ular o'zlari yashagan joylarni bezashgan va ular tibbiyot sohasida ishlatishgan.

Gullar kishilarga estetik zavq berishdan tashqari, ular shahar va qishloqlarni tutun, ishlangan gaz va hakazolardan saqlashdek juda katta sanitar ahamiyatga molikdir. Ko'pgina o'simliklar fitontsidlik (o'simlikdan chiqadigan, bakteriyalarni yo'qotadigan uchuvchan moddalar) xususiyatga ega. Bog' va xiyobonlar shahar

havosini tozalovchi o`ziga xos arteriya hisoblanadi. Daraxt va butalar harorat tebranish qo`lamini ma`lum darajada me`yorlaydi, issiq kunlarda havo namligini ko`paytiradi, meliorativ va suv saqlash xususiyatiga ega bo`ladi. Yashil o`simliklar turli xil ishlab chiqarish jarayonida yuz beradigan ayrim holatlarga va ko`cha shovqinlariga qarshi kurashda ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi.

To`g`ri tashkil etilgan gulchilik yuqori foydali tarmoq hisoblanadi. Shuning uchun gulchilik ham qishloq xo`jaligining boshqa tarmoqlari singari ishlab-chiqarish unumdorligini oshirish asosida rivojlanishi zarur. Bu masalalarni muvaffaqiyatli echishda soha mutaxassislari va gulchilik bilan shug`ullanuvchilar o`z bilimlarini yanada boyitish bilan ko`proq tarqalgan manzarali o`simliklarni etishtirish, ularning navlarini ko`paytirish, agrotexnikasini mukammallashtirib borishlari lozim deb hisoblaymiz.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari.

Ishning maqsadi: Manzarali va gulli o'simliklarning guruhlanishi, ko'paytirish usullari, o'stirish agrotexnikasi va ularni fitodizaynda qo'llash usullarini o'rganish va olingan ma'lumotlarni o'quv-tarbiyaviy jarayonidagi ahamiyatini tadqiq etishdan iborat.

Ishning vazifalari:

- Istiqbolli manzarali o'simliklarni aniqlash;
- Manzarali va gulli o'simliklarning guruxlanishi va ularga tashqi muhit omillarining ta'siri o'rganish;
- Manzarali va gulli o'simliklarning urug'idan va vegetativ ko'paytirish yo'llarini o'rganish;
- Manzarali va gulli o'simliklarni ochiq va yopiq erlarda o'stirish agrotexnikasini o'rganish;
- olingan ma'lumotlarni o'quv-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilish.

Ishni bajarishda foydalaniladigan uslublar.

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishini bajarishda botanika va o'simliklar ekperimental biologiyasada umumqabul qilingan uslublardan foydalandik.

Ishni bajarish jarayonida asosan manzarali o'simliklar va ularning estetik jihatlari, etishtirish uslublariga bag'ishlangan adabiyotlardan keng foydalanildi.

Ishning ahamiyati.

Manzarali o'simliklar kishilarga estetik zavq berishdan tashqari, ular shahar va qishloqlarni tutun, ishlangan gaz va hakazolardan saqlashdek juda katta sanitar ahamiyatga moyillikdir. Ko'pgina o'simliklar fitontsidlik (o'simlikdan chiqadigan, bakteriyalarni yo'qotadigan uchuvchati moddalar) xususiyatga ega. Bog' va xiyobonlar shahar havosini tozalovchi o`ziga xos arteriya hisoblanadi. Daraxt va butalar harorat tebranish ko'lamini ma`lum darajada me'yorlaydi, issiq kunlarda havo namligini ko`paytiradi, meliorativ va suv saqlash xususiyatiga ega bo'ladi.

Yashil o'simliklar turli xil ishlab chiqarish jarayonida yuz beradigan ayrim holatlarga va ko'cha shovqinlariga qarshi kurashda ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi.

To`g`ri tashkil etilgan gulchilik yuqori foydali tarmoq hisoblanadi. Shuning uchun gulchilik ham qishloq xo`jaligining boshqa tarmoqlari singari ishlab-chiqarish unumdorligini oshirish asosida rivojlanishi zarur.

Bu masalalarni muvaffaqiyatli echishda soha mutaxassisleri va gulchilik bilan shug'ullanuvchilar o'z bilimlarini yanada boyitish bilan ko'proq tarqalgan manzarali o'simliklarni etishtirish, ularning navlarini ko'paytirish, agrotexnikasini mukammallashtirish va kelajak avlodga estetik tarbiya berish ishlarini olib borishlari haqida ham ma'lumotlar keltiriladi.

İshning sinovdan o'tishi. Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha tadqiqot natijalari 2011 yil 21 mayda Tyumen shahrida Межкультурные коммуникации и идеология миротворчества konferensiyasida, 2013 yil 26-27 aprel kunlari Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Tabiatshunoslik va geografiya fakultetida **«Ekologik muvozanatni saqlash, chiqindisiz texnologiya ishlab chiqish va barqaror rivojlanishda talim-tarbiya muammolari va istiqbollari»** mavzusida Respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanida, 2013 yil 20 dekabrda Kamolot YIH QK, O'zRFA QQB, YOK hamkorligida tashkil etilgan Qoraqalpog'iston yosh olimlarining XIII respublika ilmiy konferensiyasida hamda NDPI Botanika kafedrasida diplom oldi himoyasida ma'ruza qilindi va muhokamadan o'tdi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. İshning hajmi 80 betdan iborat bo'lib, 2 ta jadval keltirilgan. Bitiruv malakaviy ishini yozishda 26 manbadan foydalanildi ulardan 4 ta tasi chet el adabiyoti va internet saytlari.

4 b kurs talabasi:

I. Reimboeva

İlmiy raxbar:

b.f.n. R.A. Eshmuratov